Xuddi) mehmonday – mehmon alohida izzat-hurmatga loyiq shaxs, uni yuksak hurmat bilan qarshi olish kerak (regulyativ); ***Ochiq yuz bilan, ochiq chehra bilan*** – samimiy muomala mehmondo‘stlik belgisi (kommunikativ-axloqiy); ***Qovog‘i soliq*** – sovuq muomala mehmondo‘stlikka zid (salbiy baholovchi); ***Ko‘nglini tog‘day ko‘tarmoq*** – mehmonni mamnun qilish muhim (emotsional); ***Ko‘nglini ovlamoq*** – mehmondo‘stlik mehmon kayfiyatini ko‘tarishga qaratiladi (kommunikativ-utilitar); ***Ko‘nglini olmoq*** – mehmondo‘stlik e’tibor va iltifotni talab qiladi (regulyativ); *“Mehmon avval kuni – tilla, ikkinchi kuni – nuqra, uchinchi kuni – mis”, “Mehmon birinchi kuni – oltin, ikkinchi kuni – kumush, uchinchi kuni – chaqa, to‘rtinchi kuni – baqa”* – mehmondorchilikda vaqt me’yori mavjud, mehmonning Qadri vaqt o‘tishi bilan kamayib boradi (regulativ, baholovchi); *“Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan”* – mehmon o‘z rizqi, barakasi bilan keladi (diniy-mifopoetik); *“Mehmon kelsa choptirar, bor-yo‘g‘ingni toptirar”* – mehmon kutish mezbonni jismoniy harakatga majbur qiladi va iqtisodiy resurslar safarbarligini talab qiladi (utilitar); *“Mehmon kelsa et pishar, et bo‘lmasa bet pishar”* – mehmonni har qanday holatda ham izzat-hurmatini joyiga qo‘yish kerak (regulativ); *“Mehmon mezbonga aziz, mezbon – mehmonga”* – mehmondo‘stlik o‘zaro hurmat va ehtiromga asoslanadi (ijtimoiy); *“Mehmonning oldiga osh qo‘y, ikki qo‘lini bo‘sh qo‘y”* – mehmonni saxiylik bilan siylash kerak (etik-regulativ); *“Mehmonning oldida mushugingni “pisht!” dema”* – mehmonning oldida qo‘pol muomala qilinmasligi kerak (etik); *“Mehmon oz o‘tirsa ham, ko‘p sinaydi”* – mehmon mezbonning odobi va muomalasiga baho beradi (ijtimoiy-psixologik); *“Mehmon – otangdan ulug‘”* – mehmon alohida hurmatga loyiq bo‘lgan yuksak maqom egasi sifatida baholanadi (aksiologik); *“Mehmon otangdan ham aziz”* – mehmon eng muqaddas va oliy qadriyat sifatida talqin qilinadi (aksiologik); *“Mehmon osh deb kelmas”* – mehmon moddiy manfaat uchun emas, insoniylik yuzasidan keladi (axloqiy); *“Mehmon so‘rab yemaydi”*–mehmon hayo va odob saqlashi kerak (etik); *“Mehmondorchilik – turmush ziynati”*–mehmondo‘stlik hayotning bezagi va qadriyati hisoblanadi (ijtimoiy-madaniy); *“Mehmon kelgan uydan baraka arimaydi”*–mehmonga baraka manbayi sifatida qaraladi (diniy-madaniy); *“Qo‘noq kelsa, qut kelar”*–mehmon qut-baraka olib keladi (mifopoetik, baholovchi); *“Qo‘noq qo‘noqdan ulug‘”*–mehmonning qadri va martabasi yuksak baholanadi (aksiologik); *“Mehmon – aziz, mezbon – laziz”* – mehmon va mezbon o‘rtasida o‘zaro hurmat muhim (ijtimoiy); *“Sening eshiging hammaga ochiq bo‘lsa, Hammaning eshigi senga ochiq”*–mehmondo‘stlik ijtimoiy birdamlik va o‘zaro munosabatni mustahkamlaydi (ijtimoiy); *“Odam bor joyga odam keladi”* – samimiy va ochiq muhit odamlarni jalb qiladi (ijtimoiy-psixologik); *“Jon tanga mehmon, Inson – insonga”*–inson hayoti vaqtinchalik, shuning uchun ham odamlar bir-biriga muhtoj (falsafiy); *“O‘zi kelgan mehmon – mezbonning izzati”* – mehmon kelishi mezbon uchun hurmat ve e’tibor belgisi (aksiologik); *“Uying tor bo‘lsa ham, ko‘ngling keng bo‘lsin”* – qalb kengligi mehmondo‘stlik belgisi hisoblanadi (axloqiy); *“Ko‘ngling keng bo‘lsa, hujra ham saroyday”* – ma’naviy yetuklik moddiy kamchilikni sezdirmaydi (baholovchi); *“Uying koza (chayla, kulba) bo‘lsin, Ko‘ngling toza*

bo‘lsin” – samimiylik va poklik moddiy boylikdan ustun (axloqiy); *“Oshing oz bo‘lsa ham, fe’ling soz bo‘lsin”* – yaxshi muomala moddiy ne’matdan muhimroq (axloqiy); *“Mehmonga ko‘ngling qo‘rini ber, uying to‘rini ber”* – mehmonni chin dildan e’zozlash kerak (regulyativ); *“Mehmon joyi – ko‘z ustida”* – mehmon eng yuqori hurmatga loyiq (aaksiologik); *“Supurilmagan uyga mehmon kelar”* – mehmon kelishi kutilmagan holatda ham bo‘lishi mumkin (maishiy); *“Mehmon oz o‘tirar, ko‘p ko‘rar”* – mehmon mezbonning turmushi va odobini kuzatadi (ijtimoiy-psixologik); *“Ot boqqin uloqqa, Qo‘y boqqin qo‘noqqa”* – mehmon kutish uchun oldindan tayyorgarlik zarur (utilitar); *“Mehmon izzatda, Mezbon xizmatda”*, – mezbonning vazifasi mehmonga hurmat bilan xizmat qilish (regulyativ); *“Mehmonni uy palosi emas, so‘z adosi xushnud etadi”* – mehmonni yaxshi muomala mamnun qiladi (kommunikativ); *“Ochiq yuz – ne’matdan yaxshi”* – samimiyat moddiy ne’matdan ustun (baholovchi); *“Uyingga kelganga o‘ylab so‘yla”* – mehmon bilan ehtiyotkorona va muloyimlik bilan muomala qilish kerak (kommunikativ); *“Ovulga kelganni it qopmas”* – mehmon himoya va hurmat ostidagi shaxs hisoblanadi (ijtimoiy-madaniy).

“Bug‘doy noning bo‘lmasin, bug‘doy so‘zing bo‘lsin”, “Bug‘doy noning bo‘lmasa, bug‘doy so‘zing yo‘qmidi?” – shirinso‘zlik moddiy ne’mat o‘rnini bosa oladi (axloqiy-kommunikativ); *“Bug‘doy noning bo‘lmasa, bug‘doy so‘zing yo‘qmidi?” – mehmondo‘stlik samimiyat bilan belgilanadi (axloqiy); “Bug‘doy noning bo‘lmasa ham, ochiq yuzing bo‘lsin”* – samimiyat moddiy ne’matdan ustun turadi (axloqiy); *“Issiq oshing bo‘lmasa ham, iliq so‘zing bo‘lsin”, “Siylagani puling bo‘lmasa, siypagani tiling bor”* – shirinso‘zlik mehmondo‘stlikning asosiy belgisi, moddiy imkon bo‘lmasa ham, yaxshi muomala bilan hurmat ko‘rsatish mumkin (axloqiy-kommunikativ); *“Ko‘ngilni qo‘ling bilan ovlolmasang, tiling bilan ovla”* – inson qalbiga yaxshi so‘z orqali yo‘l topiladi (psixologik-kommunikativ); *“Osh-tovog‘ing kerakmas, qosh-qovog‘ing kerak”* – mehmon uchun muomala taomdan muhimroq (regulyativ); *“Mehmon o‘z rizqi bilan keladi”* – mehmon mezbonning rizqini kamaytirmaydi (diniy-mifopoetik); *“Mehmonning rizqi – yo‘lda”* – mehmon uchun atalgan rizq oldindan taqdir qilingan va unga yetib keladi (diniy-mifopoetik); *“Mehmonning rizqi o‘zidan oldin keladi”* – mehmonning nasibasi uning kelishidan avval hozirlangan bo‘ladi (diniy-mifopoetik); *“Yo‘xcha guruch osh bo‘lur, mehmon ko‘ngli xush bo‘lur”* – ozgina imkoniyat bilan ham mehmonni mamnun qilish mumkin (etik-regulativ); *“Uyning ko‘rki – dasturxon”* – xonadonning fayzi dasturxon orqali namoyon bo‘ladi (aksiologik); *“Uy noni bilan chiroyli, Ombor – doni bilan”* – uy-ro‘zg‘orning asosiy boyligi oziq-ovqat va mo‘l-ko‘lchilikdir (utilitar); *“Uying kichik bo‘lsa ham noning katta bo‘lsin”* – moddiy sharoitdan ko‘ra saxiylik va mehmondo‘stlik muhimroq hisoblanadi (aksiologik); *“Mol-siz uy bo‘lsa bo‘lar, nonsiz uy bo‘lmas”* – non ro‘zg‘orning eng zarur ne’mati sifatida talqin qilinadi (aksiologik); *“Joying kapa bo‘lsa ham, choying quyuq bo‘lsin”* – uy sharoiti oddiy bo‘lsa ham, mehmonni yaxshi kutib olish lozim (regulativ); *“Qutli qo‘noqqa – totli tomoq”* – modomiki, mehmon qut-baraka olib kelar ekan, uni yaxshi siylash kerak (diniy-mifopoetik, aksiologik); *“Mehmonni kamroq kut, quyuq kut”* – mehmon sonidan ko‘ra uni qanchalik sifatli va izzat bilan kutib olishing muhim (regulativ); *“Mezbon saxiy bo‘lsa – nur ustiga nur, Baxil bo‘lsa – mehmonning o‘tirgani to‘r, yegani sho‘r”* – mehmonning taassuroti mezbonning saxovatiga bog‘liq, baxillik salbiy baholanadi (baholovchi); *“Borini bergan uyalmas”* – imkon qadar saxiy bo‘lgan inson aybdor hisoblanmaydi (etik); *“Erta ossang et pishar, Kechga qolsang bet pishar”* – mehmon kutishda tayyorgarlikni vaqtida qilish zarur (regulativ); *“Qizg‘anganing – qizil itga yem bo‘lar”*–baxillik foyda keltirmaydi, boylik baribir bekorga ketadi (baholovchi); *“Oz oshini ayagan ko‘p oshdan quruq qolar”* – saxiy bo‘lmagan inson keyinchalik ko‘proq ne’matdan mahrum bo‘lishi mum-kin (baholovchi, didaktik); *“Oyga yetmas oshingni ovuldoshingdan ayama”*–hatto moddiy boyliklaring oz bo‘lsa ham, undan boshqalarga ulashish kerak (etik-regulativ); *“Osh egasi bilan totli”*– taomning qadri uni tortayotgan insonning samimiyati bilan belgilanadi (ijtimoiy-psixologik); *“Mehmon so‘rab yemaydi”* – mehmon odob yuzasidan biron narsani so‘rab olib yemaydi, mezbonning o‘zi uning ehtiyojini sezishi kerak (ijtimoiy-psixologik); *“So‘rab berguncha urib ber”*–mehmonning ehtiyojini u aytmasidan ilg‘ab, o‘z vaqtida g‘amxo‘rlik qilish lozim (regulativ); *“Chiroysitib (aftini burishtirib) osh berguncha, kulib turib og‘u ber”*–muomaladagi samimiyat moddiy ne’matdan ham muhimroq (etik); *“Yemayman degan kuyov yetmish quymoq yebdi”, “Yemayman degan kelin yengdek hasipni yebdi”, “Yemayman, yemayman deb, yengdagini yebdi”* – mehmon (kuyov/kelin) odob yoki tortinchoqlik sababli haqiqiy xohishini ochiq bildirmasligi mumkin, ya’ni, odob va hayo sababli aytilgan rad javobi har doim haqiqiy istakni anglatmaydi (ijtimoiy-psixologik); *“Taom lazzati – mehmon izzati”* – taomning qadri mehmonni hurmat qilish bilan ortadi (aksiologik); *“Avval taom, ba’daz kalom”*–mehmon kutish madaniyatida ovqat tortish va xizmat ko‘rsatish suhbatdan ustun qo‘yilishi lozim (regulyativ); *“Mehmonning izmoni (ixtiyori, erki) bor”*–mehmonning shaxsiy erki va tanloviga hurmat bilan qarash lozim (etik); *“Kelmoq – irodat bilan, ketmoq – ijozat bilan”, “Kelish izmi mehmonda, ketish izmi mezbonda”* – mehmon kelishni o‘zi hal qiladi, ketishda esa mezbon

bilan hisoblashadi (regulyativ); *“Qo‘noq o‘zi kelsa ham, uy egasi izmida bo‘ladi”, “Mehmon – mezbonning quli”* – mehmon uyga kirgach, mezbonning tartib-qoidalariga bo‘ysunadi (etik-regulativ); *“Salomsiz kirgan – uyat, Javobsiz chiqqan–uyat”*–salomlashish va javob qaytarish muomala madaniyatining majburiy qismi (etik); *“Mehmonning ketishini so‘rama, kelishini so‘ra”, “Kel” demoq bor, “ket” demoq yo‘q”* – mehmonning tashrifi qadrlanishi, uning ketishi esa oshkor istalmasligi kerak, mehmonni haydash odobsizlik hisoblanadi (etik-regulyativ); *“Suhbat sevmagan tegirmon qurar, Mehmon sevmagan bolasin urar”* – mehmon va suhbatni yoqtirmaslik salbiy insoniy sifat deb qaraladi (baholovchi); *“Kelmoq – sunnat, Ketmoq –farz”, “Ketuvchiga yo‘l yaxshi”*– mehmonga borish ma’qullansa-da, vaqtida ketish ham zarurdir (diniy-regulativ); *“Qoluvchiga uy yaxshi”* – mezbon o‘z uyida erkin va qulay bo‘ladi (ijtimoiy); *“Mehmonni otqar (otga mingazmoq), Boshingni qutqar”* – mehmonni vaqtida kuzatish ikki tomon uchun ham foydali (utilitar); *“O‘z izzati bilgan mehmon – yaxshi”* – mehmon ham me’yorni bilishi kerak (baholovchi); *“Yaxshi mehmon osh ustiga, Yomon mehmon bosh ustiga”*–yaxshi mehmon xursandchilik keltiradi, yomon mehmon tashvish tug‘diradi (baholovchi); “*Mezbon borini qo‘ysa, mehmon ozga sanamas”*–mehmon mezbonning imkoniyatini tushunishi va minnatdor bo‘lishi kerak (etik); *“Aytmas yerda og‘zingni tiy, Mehmonga borsang–nafsingni”*–mehmon o‘zini tiyib, odob doirasida tutishi kerak (etik-regulativ); *“Kunda kelgan mehmonning qadri yo‘q”, “Kunda kelsa kuyov yomon”, “Oyda kelganga oyoq tutiladi, Kunda kelganga tayoq tutiladi”* – haddan tashqari tez-tez tashrif qadrsizlanishga olib keladi va ijtimoiy me’yor buzilishi sifatida baholanadi (baholovchi); *“Yaxshi mehmon – uch kunlik”, “Qo‘noqning kuni – uch, Undan keyin –ko‘ch”, “Mehmonning otini asl derlar, Uch kundan keyin sasir derlar”*–mehmonda bo‘lishning maqbul davomiylik muddati mavjud (regulativ); *“Yolg‘iz mehmon – atoyi xudo, Otliq mehmon – Baloyi xudo”* – mehmon soni va hamrohlari mezbon uchun yuk bo‘lishi mumkin (utilitar); *“Mehmon kelsa mushtdakkina, uchib ketsa qushdakkina”* – mehmonning kelishi kichik voqea bo‘lsa-da, ketishi mezbon uchun yengillik bo‘lishi mumkin (ijtimoiy-psixologik); *“Betamiz mehmon mezbonni qistar”* – odobsiz mehmon mezbon uchun noqulaylik tug‘diradi (baholovchi); *“Mehmon jabrchi bo‘lsa, Mezbon sabrchi bo‘lsin”* – mehmonning noqulay xatti-harakatlariga mezbon bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lishi kerak (etik-regulyativ); *“Baxil ehsondan qochar, Xasis mehmondan qochar”* – baxillik saxovat va mehmondo‘stlikka zid xususiyat sifatida talqin qilinadi (baholovchi); *“Qora suv chanqoq qondirmas, Baxil kishi qo‘noq qo‘ndirmas”*, *“Baxilning tuynugidan yel kirmas, Eshigidan –el”*, – baxil inson mehmondo‘stlik qila olmaydi, u ijtimoiy aloqalardan uzoqlashadi (baholovchi); *“Bermasning oshi pishmas, qozoni o‘tdan tushmas”* – baxil insonning mol-dunyosi odamlarga foyda va baraka keltirmaydi (baholovchi); *“Bermasning qozoni qaynaguncha, buloqdagi suv ham quriydi”* – baxilning biror narsa ulashishi juda qiyin va kam uchraydigan holat (baholovchi);

“Baxilning tuzi tatimas”–baxil odamning bergan ne’mati ham qadrsiz va yoqimsiz tuyuladi (ijtimoiy-psixologik); *“Xasisning oshini yemoqqa temirdan tish kerak”*–xasis insonning mehmondorchiligi samimiy emas, undan bahramand bo‘lish qiyin (baholovchi); *“Yomon na yeydi, na yediradi”* – yomon (xasis) inson na o‘zi ne’matdan foydalanadi, na boshqalarga ulashadi (baholovchi).

Paremiologik material tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida “mehmondo‘stlik” konseptining yadrosi hurmat (20%), saxovat (17%) va samimiyat (16%) semalaridan tashkil topgan bo‘lib, ular umumiy nominativ maydonning 53 foizini egallaydi. Yaqin periferiyada baraka, ko‘ngil kengligi va mehmon-mezbon odobi haqidagi tasavvurlar (28%) joylashadi. Uzoq periferiyani esa mehmonlikning vaqt me’yori hamda baxillikni qoralovchi paremiologik birliklar (19%) tashkil etadi. Natijada o‘zbek madaniyatida mehmondo‘stlik konsepti, avvalo, mehmonni ulug‘lash, saxovat ko‘rsatish va samimiy munosabat bildirish bilan bog‘liq milliy-madaniy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, “mehmondo‘stlik” konsepti o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari tizimida muhim o‘rin tutadi va u, avvalo, hurmat, saxovat, samimiyat, ko‘ngil kengligi, mehr-oqibat va baraka kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘langan. Paremiologik materiallarda mehmon yuksak qadriyat sifatida talqin qilinib, unga hurmat ko‘rsatish, izzat-ikrom qilish va samimiy munosabat bildirish mezbonning muhim axloqiy burchi sifatida ifodalanadi. Shu bilan birga, mehmondorchilik jarayonida mezbon va mehmonning o‘zaro huquq va majburiyatlari, odob-axloq me’yorlari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar aks etganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Попова З.Д. Семантико-когнитивный анализ языка .З.Д.Попова, И.А.Стернин. Воронеж, 2006, 226 с.

(2). Зацепина Е.А. Номинативное поле как объективация концепта. Вестник ВГУ. Серия: Филология. Журналистика. 2007, № 1, 36–38 с.

(3). Гарипова Г.Р. Концепт «гостеприимства» в русском и английском языках. Дисс. …канд. филол. наук. Уфа, 2010, 226 с.

(4). Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Национально-культурная семантика русских фразеологизмов. Словари и лингвострановедение. М., 1982, с. 89 –98; Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). М., изд-во РУДН, 1997, 331 с; Залевская А.А. Слово в лексиконе человека. Психолингвистические исследования. Воронеж, изд-во ВГУ, 1990, 207 с; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты. Дискурс. М., “Гнозис”, 2004, 390 с; Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. Из наблюдений над речевой практикой масс-медиа. С-Пб., 1999, 288 с; Кубрякова Е.С. Эволюция лингвистических идей во второй половине XX в. Язык и наука конца 20 в. М., 1995, с. 173 – 189; Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка. Русская словесность, Антология. М., “Academia”, 1997, 196 с.

(5). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild, Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 671-bet.

(6). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild, Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 591-bet.

(7). Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2013, 319-bet.

(8). Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining qisqacha frazeologik lug‘ati. Toshkent, “Fan”, 1964, 211-bet.

Qulmanova Mohinur Anvar qizi (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti; E-mail: mohinurkulmanova@gmail.com; https://orcid.org/0009-0009-0390-3241)

RETROSPEKSIYA VA PROSPEKSIYANING MATN KATEGORIYALARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada matn tilshunosligining muhim masalalaridan biri retrospeksiya va prospeksiya kategoriyalarining matn kategoriyalari tizimidagi o‘rni, turlari hamda vazifaviy-ma’noviy xususiyatlari yoritilgan. Bunda mazkur kategoriyalarning matn yaxlitligini ta’minlashdagi o‘rni, turlari va ifoda vositalari ingliz hamda o‘zbek badiiy asarlari misolida tahlilga tortilgan. Retrospeksiya va prospeksiya matnning zamoniy-tuzilmaviy qurilishini belgilovchi umumlisoniy kategoriyalar bo‘lib, turli tuzilishdagi tillarda ularning ko‘rinishi va ifoda yo‘llarida ko‘zga tashlanadigan farqlar mavjudligini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *matn kategoriyalari, retrospeksiya, prospeksiya, diskontinuum, temporal struktura, funksional-semantik tahlil, tipologik tasnif, badiiy matn.*

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕТРОСПЕКЦИИ И ПРОСПЕКЦИИ ТЕКСТОВЫХ КАТЕГОРИЙ

Аннотация. *В статье рассматривается одна из важных проблем лингвистики текста – место категорий ретроспекции и проспекции в системе текстовых категорий, их виды, а также функционально-семантические особенности. На материале английских и узбекских художественных произведений анализируются роль данных категорий в обеспечении целостности текста, их разновидности и средства выражения. Ретроспекция и проспекция рассматриваются как общеязыковые категории, определяющие временно-структурную организацию текста; выявляются различия в их проявлении и способах выражения в языках различного строя.*

Ключевые слова: *текстовые категории, ретроспекция, проспекция, дисконтиниум, темпоральная структура, функционально-семантический анализ, типологическая характеристика, художественный текст.*

FUNCTIONAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF THE TEXT CATEGORIES OF RETROSPECTION AND PROSPECTION

Annotation. *The article examines the role, types, and functional-semantic characteristics of the categories of retrospection and prospection—key issues in text linguistics—within the system of text categories. It analyzes the role of these categories in ensuring textual coherence, as well as their types and means of expression, using examples from English and Uzbek literary works. Retrospection and prospection are identified as universal linguistic categories that determine the temporal-structural organization of a text; the study highlights the observable differences in their manifestation and modes of expression across languages of varying structures.*

Keywords: *text categories, retrospection, prospection, discontinuum, temporal structure, functional-semantic analysis, typological classification, literary text.*

1. Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda matn lingvistikasi alohida paradigma sifatida shakllanib, uning markaziy muammolaridan biri matn kategoriyalarini aniqlash, tavsiflash va ularning o‘zaro munosabatlarini tadqiq etishdan iboratdir. Bu borada I.R.Galperinning «Текст как объект лингвистического исследования» (1981) asari matn kategoriyalarini tizimli o‘rganishning nazariy-metodologik asosini yaratdi [1]. Olimning tasnifida matnni tashkil etuvchi asosiy kategoriyalar sirasiga informativlik, kogeziya, kontinuum, diskontinuum, retrospeksiya, prospeksiya, modallik va integratsiya kiritiladi.

Ushbu kategoriyalar orasida *retrospeksiya va prospeksiya* alohida o‘rin egallaydi, chunki ular matndagi temporal-faktual ma’lumotning bir xil yo‘nalishda rivojlanishini buzib, o‘quvchining diqqatini boshqa vaqt qatlamlariga yo‘naltiradi. Retrospeksiya matnda oldingi voqea yoki holatga qaytishni, prospeksiya esa kelgusida sodir bo‘ladigan voqea yoki holatni oldindan bildirishni ifodalaydi [2]. Bu ikki kategoriya matnning to‘laqonli kommunikativ-estetik ta’sirini ta’minlovchi vositalar sifatida ayniqsa badiiy matnda faol qo‘llaniladi.

Shunga qaramay, zamonaviy tilshunoslikda mazkur kategoriyalarning matn kategoriyalari paradigmasidagi aniq lingvistik maqomi, tipologik tasnifi hamda funksional-semantik xususiyatlari masalasi qator bahsli jihatlarga ega bo‘lib qolmoqda. Bu muammoning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi: birinchidan, retrospeksiya va prospeksiya bir qator tadqiqotlarda faqat temporal kategoriya sifatida talqin etilib, ularning kognitiv-pragmatik jihatlari yetarlicha yoritilmagan; ikkinchidan, mazkur kategoriyalar turli tizimli tillarda turlicha lisoniy vositalar orqali ifodalanishi qiyosiy-tipologik tadqiqotlarni taqozo etadi.

2. Adabiyotlar tahlili. Retrospeksiya va prospeksiyaning lingvistik kategoriya sifatida shakllanishi matn lingvistikasi sohasining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu sohada I.R.Galperinning 1980-yilda nashr etilgan «Ретроспекция и проспекция в тексте» nomli maqolasi hamda 1981-yilda chiqqan «Текст как объект лингвистического исследования» monografiyasi muhim ahamiyat kasb etadi [1;2-b.]. Olim birinchilardan bo‘lib mazkur ikki kategoriyani matnning mustaqil grammatik kategoriyalari sifatida ajratib ko‘rsatdi.

Keyingi tadqiqotlarda mazkur kategoriyalar turli matn tiplari misolida o‘rganildi. Xususan, D.D. Antipova ilmiy matnda retrospeksiya va prospeksiyaning funksiyalarini ingliz lingvistik adabiyoti materialida tadqiq etgan [3]. N.V.Bruskova nemis tilidagi badiiy matnlarda ushbu kategoriyalarning namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rgangan [4]. Y.A.Chigovskaya esa rus tilidagi ilmiy matnlarda retrospeksiya va prospeksiyaning ifoda vositalari hamda vazifalarini aniqlagan [5].

Adabiy-narrativ nuqtai nazardan bu hodisa ingliz tilshunosligi va narratologiyasida *analepsis (retrospeksiya) va prolepsis (prospeksiya)* atamalari ostida o‘rganiladi. Fransuz narratologi J.Jenett «Narrative Discourse» asarida ushbu ikki tushunchaning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo‘lib, u retrospeksiya va prospeksiyaning ichki va tashqi turlarini farqlab ko‘rsatgan [6]. M.Bal hamda S.Rimmon-Kenan kabi tadqiqotchilar mazkur konsepsiyani yanada rivojlantirdilar [7;8].

Matnni tashkil etishda kogeziya kategoriyasining o‘rnini M.A.K.Hallidey va R.Hasan “Cohesion in English” asarida tizimli tarzda yoritganlar [9]. Ularning tadqiqotlari bevosita retrospeksiya va prospeksiyaga bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, matn yaxlitligini ta’minlovchi vositalar sifatida havola (reference), ellipsis va boshqa aloqa usullarining o‘rnini belgilashda muhim nazariy asos hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida retrospeksiya va prospeksiya kategoriyalari alohida tadqiqot obyekti sifatida deyarli o‘rganilmagan. Biroq matn lingvistikasi doirasidagi M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matn lingvopoetikasi” [10], D.Xudoyberganovaning “Matn lingvistikasi” [11] va Sh.Safarovning “Pragmalingvistika” [12] asarlarida mazkur muammoning ayrim jihatlari qisman yoritilgan. Bu holat ushbu yo‘nalishda maxsus qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiqotlar olib borish zaruratini belgilaydi.

Retrospeksiya va prospeksiyaning matn kategoriyalari paradigmasidagi o‘rnini belgilash uchun, avvalo, mazkur kategoriyalarning *kontinuum* va *diskontinuum* kategoriyalari bilan munosabatini aniqlash zarurdir. I.R.Galperinning ta’kidlashicha, kontinuum matndagi voqealarning vaqt va makondagi izchil, uzluksiz rivojlanishini, diskontinuum esa bu izchillikning buzilishini, uzluklilikni ifodalaydi [1].

Retrospeksiya va prospeksiya aynan diskontinuumning konkret shakllari hisoblanadi. Ular matn chiziqli rivojlanishiga “pauza” kiritib, o‘quvchini boshqa vaqt qatlamlariga yo‘naltiradi. Shu nuqtai nazardan, retrospeksiya va prospeksiya matnning *temporal-struktur kategoriyalari*ga kiradi, ya’ni, matndagi vaqt munosabatlarining buzilishi va qayta tiklanishi orqali matn yaxlitligini ta’minlovchi vositalar vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, retrospeksiya va prospeksiya *kogeziya* (matn bog‘liqligi) va *integratsiya* (matn yaxlitligi) kategoriyalari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Ular matnda oldin bayon qilingan yoki keyinchalik bayon

qilinajak mazmunga havola qilish orqali matn qismlarini bog‘laydi va uning yagona mazmuniy-kompozitsion butunligini shakllantiradi.

Ayni paytda, retrospeksiya va prospeksiya nafaqat temporal, balki kognitiv-pragmatik kategoriyalar sifatida ham talqin etilishi mumkin. Chunki ular orqali muallif o‘quvchining diqqatini ma’lum voqea yoki holatga jalb etadi, uning tasavvurida matn dunyosini shakllantiradi va presuppozitsiya hamda implikatura kabi pragmatik hodisalarni yuzaga keltiradi. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda mazkur kategoriyalarni funksional-semantik va kognitiv-pragmatik nuqtayi nazardan o‘rganish yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylangan.

Retrospeksiya va prospeksiyaning tipologik tasnifi turli mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Birinchi mezon – ifodalanish usuliga ko‘ra, retrospeksiya va prospeksiya quyidagilarga bo‘linadi: *eksplitsit* – maxsus lisoniy vositalar (vaqt leksemalari, fe’l zamonlari, kirish so‘zlar) orqali ochiq ifodalangan turi; *implitsit* – matn konteksti, presuppozitsiya va o‘quvchining bilimiga tayanib yuzaga keladigan turi. I.R.Galperinning ta’kidlashicha, aksariyat matnlarda retrospeksiya implitsit shaklda namoyon bo‘ladi va bu uning asosiy xususiyatlaridan biridir [1].

Ikkinchi mezon – masofaga ko‘ra, retrospeksiya va prospeksiya quyidagi turlarga bo‘linadi: *kontaktli* (havola qilinayotgan ma’lumot matndagi hozirgi nuqtaga yaqin), *o‘rta masofali distant* (havola qilinayotgan ma’lumot sezilarli masofada) va *katta masofali distant* (havola matn doirasidan tashqariga chiqadi) turlari. Bu tasnifni T.I.Golubeva va N.V.Kudryashova kundalik matnlari misolida ishlab chiqqanlar [13].

Uchinchi mezon – J.Jenettning narratologik yondashuvi bo‘yicha *ichki (internal)* – asosiy hikoya chizig‘i doirasidagi retrospeksiya/prospeksiya; *tashqi (external)* – hikoya chizig‘idan tashqariga chiqadigan turi; *aralash (mixed)* – har ikki turni o‘z ichiga olgan [6].

To‘rtinchi mezon, vazifasiga ko‘ra, quyidagi turlar ajratiladi: *kompozitsion-integrativ* (matn qismlarini bog‘lash funksiyasi), *perspektiv-belgilovchi* (keyingi voqealarni oldindan belgilash funksiyasi) va *stilistik* (badiiy-estetik ta’sir funksiyasi) [13].

Beshinchi mezon subyektiga ko‘ra ajratiladi: *obyektiv-muallif* (muallif tomonidan sujetga qo‘shilgan) va *subyektiv-o‘quvchi* (o‘quvchining tasavvurida yuzaga keladigan) turlari [1]. Mazkur turli tasnif-lar bir-birini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi va retrospeksiya hamda prospeksiyaning ko‘p o‘lchovli hodisa ekanligini ko‘rsatadi.

Retrospeksiya va prospeksiyaning funksional-semantik xususiyatlarini badiiy matn misolida tahlil etish mazkur kategoriyalarning amalda qanday realizatsiya bo‘lishini ko‘rsatadi.

Ch.Dikkensning “A Christmas Carol” asarida prospeksiyaning yorqin namunasi kuzatiladi: bosh qahramon Ebenezer Skruj “Ghost of Christmas Yet to Come” bilan uchrashib, o‘z kelajagini – o‘limini va atrofdagilarning bunga bo‘lgan munosabatini oldindan ko‘radi [14]. Bu holatda prospeksiya nafaqat syujet tuzilishining asosiy unsuri, balki personaj xarakterining o‘zgarishi uchun ham asosiy vosita vazifasini bajaradi.

E.Brontening “Wuthering Heights” asarida retrospeksiya keng qo‘llanilgan: hikoyaning asosiy qismi Nelli Din tomonidan Lokvudga o‘tmishdagi voqealar haqida aytib beriladi. Bu yerda retrospeksiyaning ifoda vositalari sifatida o‘tgan zamon fe’l shakllari (*Past Simple, Past Perfect*), vaqt ravishlari (*then, that day, years ago, long before*) hamda nutqni kirituvchi fe’llar (*she recalled, he remembered, as I recall*) faol qo‘llaniladi.

Zamonaviy ingliz adabiyotida K.Isiguroning “The Remains of the Day” romani retrospeksiyaning psixologik funksiyasini namoyish etadi: bosh qahramon Stivens o‘z o‘tmishini eslash orqali o‘zining shaxsiy va kasbiy hayotini qayta baholaydi. Bu holatda retrospeksiya personajning ichki monologida namoyon bo‘lib, uning ruhiy holatini ochib berishga xizmat qiladi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani o‘zining nomidan boshlab retrospeksiyaning semantik asosini belgilaydi. Romanda retrospeksiya orqali XIX asr o‘rtalaridagi Turkiston hayoti, uning ijtimoiy-madaniy muhiti tiklab ko‘rsatiladi. Bu yerda retrospeksiyaning ifoda vositalari sifatida *o‘tgan zamonlarda, bundan ko‘p yillar muqaddam, o‘sha paytda* kabi vaqt-ma’noli birliklar, shuningdek, fe’lning o‘tgan zamon shakllari (*bo‘lgan edi, kelgan edi*) qo‘llaniladi.

Oybekning “Qutlug‘ qon” romanida retrospektiv segmentlar Yo‘lchining bolalik va yoshlik xotiralari orqali uning shaxsiyatining shakllanish yo‘lini ochib beradi. Bunda retrospeksiyaning psixologik-kompozitsion funksiyasi aniq namoyon bo‘ladi.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida prospeksiyaning qiziqarli namunasini ko‘rish mumkin: muallif ma’lum hayotiy hodisalar orqali keyingi voqea haqida oldindan ishora beradi, bu esa o‘quvchida kutish va qiziqish hissini yuzaga keltiradi.

Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida retrospeksiya va prospeksiyaning namoyon bo‘lishida bir qator o‘xshash va farqli jihatlar mavjud. O‘xshashlik shundaki, har ikki tilda ham mazkur kategoriyalar matnning temporal-kompozitsion tuzilishini shakllantirish, personaj obrazini yaratish va pragmatik ta’sir o‘tkazish vazifalarini bajaradi.

Farqli jihatlar esa lisoniy ifoda vositalari darajasida yaqqol seziladi: ingliz tilida retrospeksiya asosan *fe’l zamonlari tizimi* (Past Perfect, Past Perfect Continuous) orqali ifodalansa, o‘zbek tilida *analitik va sintetik fe’l shakllari* (*-gan edi, -gan ekan, kelib edi*) hamda leksik markerlar birgalikda qo‘llaniladi. Prospeksiya esa ingliz tilida *will/shall, be going to, would* kabi modal va zamon shakllari orqali, o‘zbek tilida esa *-ajak, -ar, bo‘lajak, kelajak* kabi fe’l shakllari va *ertaga, keyin, keyinroq* kabi ravishlar vositasida ifodalanadi.

Muhokama. Olib borilgan tahlil natijalari retrospeksiya va prospeksiyaning matn kategoriyalari paradigmasida ikki yoqlama maqomga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bir tomondan, ular diskontinuumning konkret shakllari sifatida *temporal-struktur kategoriyalar* qatoriga kiradi; ikkinchi tomondan, kogeziya va integratsiyani ta’minlashda muhim o‘rin tutib, aloqa kategoriyalari funksiyasini bajaradi. Bundan tashqari, mazkur kategoriyalar pragmatik ta’sir o‘tkazish, muallif intensiyasini ro‘yobga chiqarish va badiiy obraz yaratishda faol ishtirok etib, funksional-pragmatik kategoriya sifatida ham talqin etilishi mumkin.

Retrospeksiya va prospeksiyaning tipologik tasnifi ko‘p o‘lchovli bo‘lib, u ifodalanish usuli, masofa, narrativ o‘rin, vazifa va subyekt kabi mezonlar asosida amalga oshiriladi. Bu tasniflar turli matn tiplari va turli tillar uchun universal asos bo‘la oladi, biroq har bir tilning o‘ziga xos lisoniy-struktur xususiyatlaridan kelib chiqib, aniq modifikatsiyalarni taqozo etadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, ingliz va o‘zbek tillarida retrospeksiya va prospeksiyaning funksional-semantik xususiyatlari umumiy bo‘lsa-da, ularning lisoniy ifoda vositalari jiddiy tafovutlarga ega. Bu holat mazkur kategoriyalarni qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiq etishning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Xususan, badiiy tarjima amaliyotida retrospektiv va prospektiv segmentlarning pragmatik muvofiqligini saqlash masalasi maxsus o‘rganishni talab etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mazkur kategoriyalar diskontinuumning aniq shakllari sifatida matnning temporal-struktur qurilishini belgilaydi, ammo ayni paytda kogeziya, integratsiya va modallik kabi kategoriyalar bilan uzviy aloqada bo‘lib, ko‘p funksional hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Retrospeksiya va prospeksiyaning tipologik tasnifi ifodalanish usuli, masofa, narrativ o‘rin, vazifa va subyekt mezonlari asosida amalga oshirilib, badiiy matnda kompozitsion, perspektiv-belgilovchi, psixologik va stilistik funksiyalarni bajaradi. Bu funksiyalar muallif intensiyasini ifodalash va o‘quvchiga pragmatik ta’sir o‘tkazishga xizmat qiladi. Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida bu kategoriyalar umumiy vazifalarga ega bo‘lib, lisoniy ifoda vositalarida til tipologiyasidan kelib chiquvchi tafovutlarga ega. Bu hol mazkur kategoriyalarni qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiq etishning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. 1981, 139 с.

(2). Гальперин И.Р. Ретроспекция и проспекция в тексте. № 5, с. 44–52.

(3). Антипова Д.Д. Категории ретроспекции и проспекции в научном тексте. Москва, 1988, 245 с.

(4). Брускова Н.В. Категории ретроспекции и проспекции в художественном тексте. Москва, 1983.

(5). Чиговская Я.А. Категории ретроспекции и проспекции в русских научных текстах. Перм, 2001, 22 с.

(6). Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. Transl. by J.E.Lewin. Ithaca: Cornell University Press, 1980, 285 p.

(7). Bal M. Narratology: Introduction to the Theory of Narrative. Toronto, University of Toronto Press, 1997, 254 p.

(8). Rimmon-Kenan S. Narrative Fiction: Contemporary Poetics. London: Routledge, 2002, 192 p.

(9). Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. London, Longman, 1976, 374 p.

(10). Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent, “Fan”, 2008, 160-bet.

(11). Xudoyberganova D. Matn lingvistikasi. Toshkent, “Turon-Iqbol”, 2013, 168-bet.

(12). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 320-bet.

(13). Голубева Т.И., Кудряшова Н.В. Golubeva T.I., Kudryashova N.V. Ретроспекция и проспекция – важные составляющие темпоральной структуры текстов дневников\ филология и литературоведение. 2017, № 1.

(14). Меркулова М.Г. Ретроспекция в английской “новой драме” конца XIX – начало XX века: истоки и функционирование монография. Москва, “Прометей”, 2005, 184 с.

Raximova Umida Salievna (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent),
Mahmood Shaxlo Atabayevna (5-son maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi, tadqiqotchi;
E-mail: shaxlomahmood@gmail.com)

JANE AUSTENNING “PRIDE AND PREJUDICE” HAMDA O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” ASARLARIDA AYOLLAR NUTQINING PRAGMATIK VA LINGVOMADANIY MODELI: QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Jane Austenning “Pride and Prejudice” hamda O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarlarida ayollar nutqining pragmatik va lingvomadaniy modeli qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot nutq aktlari, xushmuomalalik strategiyalari, implikatura va bilvosita muloqotning ayol identifikatsiyasini shakllantirishdagi o‘rnini yoritadi. Tahlil natijalari ingliz va o‘zbek badiiy diskursida ayollar nutqi umumiy pragmatik tamoyillarga asoslangan bo‘lsa-da, uning kommunikativ xususiyatlari turli lingvomadaniy qadriyatlar bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Austen asarlarida individual mustaqillik va shaxsiy tanlov ustuvor bo‘lsa, Hoshimov ijodida onalik, oilaviy birdamlik va ma’naviy qadriyatlar yetakchi o‘rin egallaydi. Tadqiqot natijalari pragmatika, gender lingvistikasi va lingvomadaniyatshunoslik bo‘yicha ilmiy izlanishlarni boyitadi.*

Kalit so‘zlar: *pragmatika, lingvomadaniyat, ayollar nutqi, nutq aktlari, xushmuomalalik strategiyasi, implikatura, Jeyn Osten, O‘tkir Hoshimov, badiiy diskurs.*

ПРАГМАТИЧЕСКАЯ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ЖЕНСКОЙ РЕЧИ В РОМАНЕ ДЖЕЙН ОСТИН «ГОРДОСТЬ И ПРЕДУБЕЖДЕНИЕ» И ПРОИЗВЕДЕНИИ УТКИРА ХАШИМОВА «ДЕЛА МИРА» (DUNYONING ISHLARI): СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В статье представлен сравнительный анализ прагматической и лингвокультурной модели женской речи в произведениях Джейн Остин “Pride and Prejudice” и Откира Хошимова “Dunyoning ishlari”. Исследование посвящено анализу речевых актов, стратегий вежливости, импликатур и косвенной коммуникации как средств формирования женской идентичности. Результаты показывают, что при общности прагматических механизмов английский и узбекский художественный дискурс отражают различные лингвокультурные ценности. В произведении Джейн Остин доминируют идеи личной независимости и индивидуального выбора, тогда как в произведении Откира Хошимова ведущими являются материнство, семейное единство и духовно-нравственные ценности. Полученные результаты могут быть использованы в исследованиях по прагматике, гендерной лингвистике и лингвокультурологии.*

Ключевые слова: *прагматика, женская речь, лингвокультурология, речевые акты, стратегии вежливости, импликатура, Джейн Остин, Откир Хошимов.*

A PRAGMATIC AND LINGUOCULTURAL MODEL OF WOMEN’S SPEECH IN JANE AUSTEN’S “PRIDE AND PREJUDICE” AND UTKIR HOSHIMOV’S “DUNYONING ISHLARI”: A COMPARATIVE ANALYSIS

Annotation. *This article presents a comparative analysis of the pragmatic and linguocultural model of women’s speech in Jane Austen’s “Pride and Prejudice” and Utkir Hoshimov’s “Dunyoning ishlari”. The study examines speech acts, politeness strategies, conversational implicatures, and indirect communication as pragmatic mechanisms constructing female identity in English and Uzbek literary discourse. The findings demonstrate that although both authors employ similar pragmatic devices, their communicative functions reflect different cultural values. Austen’s female characters emphasize individual autonomy and social equality, whereas Hoshimov’s female characters foreground motherhood, family solidarity, and moral responsibility. The study contributes to literary pragmatics, gender linguistics, and linguocultural studies by highlighting the interaction between language, culture, and female identity.*

Keywords: *Literary pragmatics, Women’s speech, Linguocultural studies, Speech acts, Politeness, Conversational implicature, Jane Austen, Utkir Hoshimov, Literary discourse.*

Kirish. So‘nggi yillarda pragmatika, lingvomadaniyatshunoslik va gender lingvistikasi tilshunoslikning eng faol rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylandi.[1] Ushbu fanlar til birliklarining nafaqat grammatik yoki semantik xususiyatlarini, balki ularning muloqot jarayonidagi kommunikativ vazifalari hamda madaniy mazmunini o‘rganishga xizmat qiladi.[2] Ayniqsa, badiiy matn pragmatik hodisalarni tahlil qilish uchun muhim manba hisoblanadi, chunki personajlar nutqi orqali muallif nafaqat individual xarakterlarni, balki muayyan jamiyatning ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini ham ifodalaydi.[3]

Ayollar nutqining pragmatik xususiyatlarini o‘rganish gender lingvistikasi va adabiy pragmatikaning kesishgan nuqtasida shakllangan dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biridir.[4] Zamonaviy tadqiqotlar ayollar va erkaklar nutqi o‘rtasidagi farqlarni biologik omillar bilan emas, balki ijtimoiy-madaniy muhit, kommunikativ vaziyat va diskursiv amaliyotlar bilan izohlaydi.[5] Shu sababli badiiy asarlarda ayollar nutqining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish til, madaniyat va gender munosabatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Jeyn Osten va O‘tkir Hoshimov ingliz hamda o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari bo‘lib, ularning asarlarida ayol obrazlari dialoglar orqali yuksak badiiy mahorat bilan ochib beriladi. *“Pride and Prejudice”* romanida Elizabeth Bennet, Jane Bennet va boshqa ayol qahramonlar ijtimoiy mavqe, nikoh, shaxsiy tanlov va axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq murakkab kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etadi. *“Dunyoning ishlari”* qissasida esa ona obrazi orqali mehr-oqibat, oilaviy birdamlik, insonparvarlik va milliy tarbiya kabi qadriyatlar dialoglar vositasida ifodalanadi. Har ikki asarda ayollar nutqi personaj xarakterini ochuvchi vositagina emas, balki muayyan lingvomadaniy modelni shakllantiruvchi pragmatik mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi.[6]

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Jane Austen ijodi, asosan, stilistika, feministik adabiyotshunoslik va narratologiya nuqtayi nazaridan keng tadqiq etilgan. O‘tkir Hoshimov asarlari esa ko‘proq badiiy mahorat, milliy qadriyatlar va insonparvarlik g‘oyalari doirasida o‘rganilgan. Biroq mazkur ikki adib asarlarida ayollar nutqining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini yagona qiyosiy model asosida tahlil qiluvchi tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Aynan ushbu ilmiy bo‘shliq mazkur maqolaning konseptual asosini tashkil etadi.

Adabiyotlar sharhi. Pragmatika til birliklarining kommunikativ vaziyatdagi qo‘llanishi va ma’nosini o‘rganuvchi tilshunoslik yo‘nalishi bo‘lib, bugungi kunda zamonaviy lingvistikaning eng muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Pragmatik tadqiqotlarning shakllanishi J.L.Austinning nutq aktlari nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lib, u tilni nafaqat axborot uzatish vositasi, balki muayyan ijtimoiy harakatni amalga oshiruvchi mexanizm sifatida talqin qiladi.[7] Keyinchalik, J.Searle (1969) nutq aktlarini reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ turlarga ajratib, ularning kommunikativ funksiyalarini tizimlashtirdi.[8] H.P.Grice (1975) esa Kooperatsiya prinsipi va implikatura nazariyasini ishlab chiqib, muloqotda aytilgan va nazarda tutilgan ma’no o‘rtasidagi munosabatni izohladi.[9] Brown va Levinson (1987) tomonidan taklif etilgan xushmuomalalik nazariyasi esa shaxsning ijtimoiy obro‘si (*face*) va uni saqlashga qaratilgan kommunikativ strategiyalarni tushuntirib berdi.[10] Mazkur nazariyalar badiiy dialoglarni prag-matik jihatdan tahlil qilishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Pragmatika so‘nggi yillarda lingvomadaniyatshunoslik va diskurs tahlili bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Levinson (1983), Thomas (1995), Mey (2001) va Chapman (2011) pragmatik hodisalarning

---

[1] Levinson S.C. *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983, p. 1–5; Thomas J. *Meaning in Interaction*. Longman, 1995, p. 56; Mey J.L. *Pragmatics*. Blackwell, 2001, p. 32; Chapman S. *Pragmatics*. Palgrave Macmillan, 2011, p. 18.

[2] Thomas J. *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. London, Longman, 1995, p. 2–8; madaniy qadriyatlarini ham ifodalaydi.

[3] Short M. *Exploring the Language of Poems, Plays and Prose*. London, Longman, 1996, p. 15.

[4] Holmes J. *An Introduction to Sociolinguistics*. 4th ed. London, Routledge, 2013, p. 286.

[5] Lakoff R. *Language and Woman's Place*. New York, Harper & Row, 1975, p. 45.

[6] Austen J. *Pride and Prejudice*. London, Penguin Classics, 2003; Hoshimov O‘. *Dunyoning ishlari*. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2019.

[7] Austin J.L. *How to Do Things with Words*. Oxford, Oxford University Press, 1962, p. 94.

[8] Searle J.R. *Speech Acts*. Cambridge: Cambridge University Press, 1969, p. 24.

[9] Grice H.P. "Logic and Conversation." In *Syntax and Semantics*. Vol. 3. Academic Press, 1975, p. 45.

[10] Brown P., Levinson S.C. *Politeness*. Cambridge University Press, 1987, p. 61.

kontekst, madaniy muhit va kommunikativ maqsad bilan bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydilar.[1] Zamonaviy tadqiqotlarda pragmatik strategiyalar universal hodisa sifatida emas, balki muayyan madaniyatning kommunikativ me’yorlari bilan shakllanuvchi tizim sifatida talqin qilinmoqda. Aynan shu yondashuv ingliz va o‘zbek badiiy diskursidagi ayollar nutqini qiyosiy o‘rganish uchun nazariy asos yaratadi.

Gender lingvistikasi ayollar va erkaklar nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Ushbu yo‘nalishning shakllanishida R.Lakoffning *“Language and Woman’s Place”* (1975) asari muhim o‘rin tutadi.[2] Lakoff ayollar nutqida muloyimlik, ehtiyotkorlik va hissiy ifodalarning ko‘proq uchrashini ta’kidlagan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlar ushbu xususiyatlarni biologik emas, balki ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qila boshladi. Holmes (2013) ayollar nutqining asosiy kommunikativ vazifalari hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash, muloqotdagi ijtimoiy uyg‘unlikni saqlash va suhbatdosh bilan yaqinlikni mustahkamlashdan iboratligini ko‘rsatadi.[3] Zamonaviy gender lingvistikasi esa ayol identifikatsiyasi muloqot jarayonida doimiy ravishda shakllanishini va pragmatik strategiyalar aynan shu jarayonning muhim tarkibiy qismi ekanligini e’tirof etadi.

Badiiy matn pragmatik tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi, chunki personajlar nutqi orqali muallif kommunikativ xulq-atvorning turli modellarini yaratadi.[4] Short (1996), Toolan (2009), Bray (2018) va boshqa tadqiqotchilar adabiy dialoglarni pragmatik tahlil qilish personajlarning yashirin maqsadlari, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qadriyatlarini aniqlash imkonini berishini qayd etadilar.[5] Jane Austen ijodi yuzasidan olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar uning dialoglarida kinoya, implikatura, xushmuomalalik strategiyalari va ijtimoiy identifikatsiyaning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi (Suryanovika & Julhijah, 2018; Suhandoko, 2024).[6] Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyati faqat ingliz adabiyoti doirasida olib borilgan bo‘lib, qiyosiy pragmatik tahlil masalasi yetarlicha yoritilmagan.

O‘zbek tilshunosligida pragmalingvistika va lingvomadaniyat masalalari Sh.Safarov (2008), N. Mahmudov (2013), A.Nurmonov (2012), Sh.Rahmatullayev (2006) kabi olimlarning ilmiy ishlari orqali rivojlantirilgan.[7] Ushbu tadqiqotlarda pragmatik ma’no, nutq madaniyati, milliy mentalitet va tilning madaniy funksiyalari keng yoritilgan. Xususan, Raximova (2022) zamonaviy ingliz adabiyotida onalik metaforalarining ayol identifikatsiyasini shakllantirishdagi o‘rnini Anne Enright hikoyalari misolida tahlil qiladi.[8] Ushbu yondashuv badiiy matnda ona obrazining lingvomadaniy talqinini yoritishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘tkir Hoshimov ijodi bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlarda esa yozuvchining badiiy mahorati, insonparvarlik g‘oyalari va milliy qadriyatlarni aks ettirish usullari tahlil qilingan.. Shunga qara-may, *“Dunyoning ishlari”* qissasidagi ayollar nutqining pragmatik va lingvomadaniy modeli hamda uning ingliz badiiy diskursi bilan qiyosiy tahlili alohida tadqiqot obyekti sifatida deyarli o‘rganilmagan.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili pragmatika, gender lingvistikasi va adabiy pragmatika bo‘yicha mustahkam nazariy asos mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq Jane Austenning *“Pride and Prejudice”* hamda O‘tkir Hoshimovning “*Dunyoning ishlari”* asarlarida ayollar nutqining pragmatik va lingvomadaniy modelini qiyosiy jihatdan o‘rganuvchi kompleks tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, ingliz va o‘zbek badiiy diskursida ayollar nutqining kommunikativ strategiyalarini yagona qiyosiy-pragmatik model asosida tahlil qiladi.

So‘nggi yillarda adabiy pragmatika va gender lingvistikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar badiiy matnni til, madaniyat va ijtimoiy identifikatsiyaning o‘zaro ta’siri nuqtayi nazaridan tahlil qilishga alohida e’tibor qaratmoqda. Xususan, Suhandoko (2024) Jane Austen asarlarining korpus stilistik tahlili orqali mu-

---

[1] Levinson S.C. *Pragmatics*. Cambridge University Press, 1983, p. 27; Thomas J. *Meaning in Interaction*. Longman, 1995, p. 56; Mey J.L. *Pragmatics*. Blackwell, 2001, p. 32; Chapman S. *Pragmatics*. Palgrave, 2011, p. 18.

[2] Lakoff R. *Language and Woman's Place*. 1975, p. 12.

[3] Holmes J. *An Introduction to Sociolinguistics*. P. 291.

[4] Short M. *Exploring the Language of Poems, Plays and Prose, p*. 61; Rakhimova U.S., Khallieva G.I. *The Depiction of Age in Enright's Short Stories*. *Journal of Positive School Psychology*, 2022.

[5] Toolan M. *Narrative*. Routledge, 2009, p. 74; Bray J. *The Language of Jane Austen*. Palgrave, 2018, p. 84; Rakhimova U.S., Khallieva G.I. *The Depiction of Age in Enright’s Short Stories*. *Journal of Positive School Psychology*, 2022.

[6] Suryanovika C., Julhijah N. Directive Speech Acts... *Lingua Cultura*, 2018.

[7] Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008; Mahmudov N. *Til va madaniyat*. Toshkent, “Akademnashr”, 2013; Nurmonov A. *Tanlangan asarlar*. Toshkent, “Akademnashr”, 2012; Rahmatullayev Sh. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. Toshkent, “Universitet”, 2006.

[8] Rakhimova U.S. The Role of Metaphors in the Description of Motherhood in Anne Enright's Short Stories // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*. 2022, vol. 12, № 4, p. 208–213.

allifning takrorlanuvchi til birliklari ayollarning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy kutishlarni ifodalashda muhim stilistik vosita ekanligini ko‘rsatadi.[1] Shuningdek, Jane Austenning *Emma* romaniga bag‘ishlangan zamonaviy gender-lingvistik tadqiqot ayol obrazlarini yaratishda leksik tanlov va stilistik vositalarning gender identifikatsiyasini shakllantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Pragmatika sohasidagi yangi tadqiqotlar esa klassik Austin–Searle modelini yanada rivojlantirib, nutq aktlari va implikaturani ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liq holda talqin etmoqda. Xususan, Babazade (2025) hamda Noor (2025) pragmatik ma’no hosil bo‘lishida kontekst, madaniy tajriba va kommunikativ maqsadning hal qiluvchi rol o‘ynashini qayd etadilar.[2] Ushbu zamonaviy yondashuvlar mazkur maqolada qo‘llanilgan qiyosiy-pragmatik tahlil metodologiyasini mustahkamlaydi hamda ingliz va o‘zbek badiiy diskursida ayollar nutqining lingvomadaniy modelini izohlash uchun nazariy asos yaratadi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili pragmatika, gender lingvistikasi va adabiy pragmatika bo‘yicha mustahkam nazariy asos mavjudligini ko‘rsatadi. **Biroq** Jeyn Ostenning *“Pride and Prejudice”* hamda O‘tkir Hoshimovning *“Dunyoning ishlari”* asarlarida ayollar nutqining pragmatik va lingvomadaniy modelini qiyosiy jihatdan o‘rganuvchi kompleks tadqiqotlar yetarli emas. Mavjud ishlarda mazkur ikki adib ijodi, odatda, alohida o‘rganilgan bo‘lib, ularning ayol qahramonlari nutqini yagona pragmatik va lingvomadaniy model asosida qiyosiy tahlil qilish masalasi deyarli yoritilmagan. Mazkur tadqiqotning o‘ziga xosligi shundaki, unda pragmatika, gender lingvistikasi va lingvomadaniyatshunoslik yondashuvlari integratsiyalangan holda Jeyn Osten hamda O‘tkir Hoshimov asarlaridagi ayollar nutqining lingvomadaniy modeli ilk bor yagona qiyosiy tahlil doirasida yoritiladi.

Natijalar va muhokama. Ayollar nutqida nutq aktlarining pragmatik xususiyatlari. Nutq aktlari ayol qahramonlarning kommunikativ maqsadini va ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi asosiy pragmatik vo-sitalardan biridir. *Pride and Prejudice* romanida Elizabeth Bennet Mr. Darcyning turmush qurish taklifiga javoban shunday deydi: "I have never desired your good opinion".[3]

Mazkur dialog Elizabethning rad etish va baholash nutq aktlarini bir vaqtda amalga oshirayotganini ko‘rsatadi. Austin (1962) va Searle (1969) nazariyasiga ko‘ra, bu ekspressiv va direktiv nutq aktlarining uyg‘unlashgan ko‘rinishi bo‘lib, qahramonning mustaqil pozitsiyasini ifodalaydi.

“Dunyoning ishlari” qissasida esa ona obrazi farzandiga: "Yetimlarga rahm qilish kerak”,[4] deya murojaat qiladi. Ushbu jumla grammatik jihatdan tavsiya bo‘lsa-da, pragmatik jihatdan tarbiyaviy direktiv vazifasini bajaradi. Demak, Osten asarlarida nutq aktlari individual tanlovni ifodalasa, Hoshimov asarlarida ular axloqiy qadriyatlarni shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. **Ayollar nutqida xushmuomalalik strategiyalarining pragmatik ifodasi.** Har ikki asarda xushmuomalalik strategiyalari muloqotdagi ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Lady Catherine bilan suhbatda Elizabeth Bennet shunday deydi:

"I am only resolved to act in that manner which will constitute my own happiness”.[5] Mazkur javob salbiy xushmuomalalik strategiyasining namunasi bo‘lib, suhbatdoshga hurmat saqlangan holda shaxsiy tanlov himoya qilinadi.[6] Hoshimov qissasida esa ona farzandiga mehr bilan murojaat qiladi:

"Uyqu qatta, bolam? O‘tiribman".[7] Bu dialog tanbeh emas, balki g‘amxo‘rlik va yaqinlikni ifodalovchi ijobiy xushmuomalalik strategiyasidir. Natijada ingliz diskursida xushmuomalalik shaxsiy erkinlikni, o‘zbek diskursida esa oilaviy birdamlikni qo‘llab-quvvatlaydi. **Bilvosita muloqot va implikaturaning prag-matik talqini.** Bilvosita muloqot ayollar nutqining muhim pragmatik xususiyatlaridan biridir. Elizabeth Bennetning quyidagi fikri bunga misol bo‘ladi:

"You could not have made me the offer of your hand in any possible way that would have tempted me to accept it”.[8] Mazkur jumlada rad etish bilan bir qatorda yashirin tanqid ham mavjud. Grice nazari-

---

[1] Suhandoko. *Existence, Expectation and Interference...* ADIA Proceedings, 2024.

[2] Babazade Y. *Speech Acts and Hidden Meaning*. 2025; Noor A. *Contemporary Approaches to Speech Acts and Implicatures*. 2025.

[3] Austen, J. (2003). *Pride and Prejudice*. Penguin Classics. (Original work published 1813), p. 237.

[4] Hoshimov O‘. (2019). *Dunyoning ishlari*. “Yangi asr avlodi”, p. 6.

[5] Austen J. (2003). *Pride and Prejudice*. Penguin Classics, p. 441.

[6] Brown P., Levinson S.C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge, Cambridge University Press, 1987, p. 61–68.

[7] Hoshimov, O‘. (2019). *Dunyoning ishlari*. ‘Yangi asr avlodi”, p. 6.

[8] Austen J. (2003). *Pride and Prejudice*. Penguin Classics, p. 241.

yasiga ko‘ra, bunday implikatura muloqotning pragmatik mazmunini kuchaytiradi.[1] *“Dunyoning ishlari”* qissasida esa ona quyidagi jumla orqali o‘z hissiyotini bilvosita ifodalaydi:

"Bilasan-ku, jon bolam, kamuyqu bo‘lib qolganman”.[2] Mazkur gapning yashirin ma’nosi onaning tashvishi va mehrini ifodalashdan iborat. Demak, ingliz badiiy diskursida implikatura tanqidiy mazmunni, o‘zbek badiiy diskursida esa hissiy yaqinlikni ifodalash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ayollar nutqining lingvomadaniy modeli: ingliz va o‘zbek badiiy diskursi qiyosi. Qiyosiy tahlil natijalari ayollar nutqining pragmatik strategiyalari har ikki asarda umumiy kommunikativ tamoyillarga asoslanganligini ko‘rsatadi. *“Pride and Prejudice”* romanida ayollar nutqi individual mustaqillik va shaxsiy tanlovni ifodalasa, *“Dunyoning ishlari”* qissasida onalik, mehr-oqibat va oilaviy birdamlik asosiy lingvomadaniy qadriyatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Pragmatik strategiyalarning bunday farqlanishi ularning madaniy muhit bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, Jeyn Osten va O‘tkir Hoshimov ayol obrazlarini faol kommunikator sifatida tasvirlagan bo‘lsalar-da, ularning nutqi turli lingvomadaniy modellarga asoslangan holda shakllangan.

Xulosa. Mazkur tadqiqot Jeyn Ostenning *“Pride and Prejudice”* hamda O‘tkir Hoshimovning *“Dun-yoning ishlari”* asarlarida ayollar nutqining pragmatik va lingvomadaniy modelini qiyosiy jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlandi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, har ikkala asarda ham ayol qahramonlar nutqi per-sonaj xarakterini ochish bilan birga, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va madaniy qadriyatlarni ifo-dalashning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida nutq aktlari, xushmuomalalik strategiyalari, bilvosita muloqot va implikatura ayollar nutqining asosiy pragmatik mexanizmlari ekanligi aniqlandi. *“Pride and Prejudice”* romanida ushbu strategiyalar ko‘proq shaxsiy mustaqillik, individual tanlov va ijtimoiy tenglikni ifodalashga xizmat qilsa, *“Dunyoning ishlari”* qissasida ular mehr-oqibat, oilaviy birdamlik va ma’naviy tarbiya kabi milliy qadriyat-larni aks ettiradi. Bu esa pragmatik strategiyalarning kommunikativ funksiyasi madaniy muhit va ijtimoiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Jeyn Osten va O‘tkir Hoshimov asarlaridagi ayollar nutqining pragmatik hamda lingvomadaniy modelini yagona qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilganidadir. Pragmatika, gender lingvistikasi va lingvomadaniyatshunoslik nazariyalarini integratsiyalash orqali ingliz va o‘zbek badiiy diskursida ayollar nutqining umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi hamda ularning kommunikativ strategiyalari madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq holda izohlandi.

Mazkur tadqiqot natijalari pragmatika, adabiy diskurs tahlili, gender lingvistikasi va lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishlaridagi ilmiy izlanishlarni boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, ulardan oliy ta’lim muassasalarida pragmatika, diskurs tahlili va qiyosiy adabiyotshunoslik fanlarini o‘qitishda hamda ingliz va o‘zbek badiiy diskursini qiyosiy o‘rganishga oid keyingi tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Rakhimova U.S. (2022). The role of metaphors in the description of motherhood in Anne Enright’s short stories. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12*(4), p. 208–213.

(2). Austin J.L. (1962). *How to do things with words*. Oxford University Press.

(3). Austen J. (2003). *Pride and Prejudice*. Penguin Classics (Original work published 1813).

(4). Bray J. (2018). *The language of Jane Austen*. Palgrave Macmillan.

(5). Brown P., Levinson S.C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.

(6). Chapman S. (2011). *Pragmatics*. Palgrave Macmillan.

(7). Grice H.P. (1975). Logic and conversation. In P.Cole & J.L.Morgan (Eds.), *Syntax and semantics* (Vol. 3, p. 41–58), Academic Press.

(8). Holmes J. (2013). *An introduction to sociolinguistics* (4th ed.). Routledge.

(9). Hoshimov O‘. (2019). *Dunyoning ishlari*. “Yangi asr avlodi”.

(10). Hojiyev A. (2002). *O‘zbek tili leksikologiyasi va frazeologiyasi*. “O‘qituvchi”.

(11). Lakoff R. (1975). *Language and woman’s place*. Harper & Row.

(12). Leech G N. (1983). *Principles of pragmatics*. Longman.

(13). Levinson S.C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge University Press.

(14). Mahmudov N. (2013). *Til va madaniyat*. Akademnashr.

(15). Mey J.L. (2001). *Pragmatics: An introduction* (2nd ed.). Blackwell Publishing.

[1] Grice H.P. "Logic and Conversation." In: Cole P., Morgan J.L. (Eds.). *Syntax and Semantics*. Vol. 3. New York: Academic Press, 1975, p. 45–46.

[2] Hoshimov O‘. (2019). *Dunyoning ishlari*. “Yangi asr avlodi”, p. 9.

(16). Nurmonov A. (2012). *Tanlangan asarlar*. “Akademnashr”.
(17). Rahmatullayev Sh. (2006). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. “Universitet”.
(18). Rakhimova U.S., Khallieva G.I. (2022). The depiction of age in Enright’s short stories. *Journal of Positive School Psychology*, p. 7198–7202.
(19). Raximova U.S., Masharipova N.I. (2024). Ayol xarakterini ifodalovchi paremalarning lingvokulturologik tasnifi. *Eurasian Journal of Academic Research, 4*(11–2), p. 54–59.
(20). Safarov Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
(21). Searle J.R. (1969). *Speech acts: An essay in the philosophy of language*. Cambridge University Press.
(22). Short M. (1996). *Exploring the language of poems, plays and prose*. Longman.
(23). Suhandoko. (2024). Existence, expectation, and interference: A corpus stylistics study of word clusters in Jane Austen’s works. In *Proceedings of the Annual International Conference of the Association of Lecturers in Adab Sciences (ADIA 2024).*
(24). Suryanovika C., Julhijah N. (2018). Directive speech acts and hedges presented by female main characters of Jane Austen’s novels. *Lingua Cultura, 12*(4), p. 345–350.
(25). Thomas J. (1995). *Meaning in interaction: An introduction to pragmatics*. Longman.
(26). Toolan M. (2009). *Narrative: A critical linguistic introduction* (2nd ed.). Routledge.

Mamajonova Shoiraxon Murodjon qizi (Andijon davlat Chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi, “Ijtimoiy-gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi; E-mail:shoiraxonmamajonova7@gmail.com)

LEKSIK ZAXIRANI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI METODIK TASHKILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalar asosida ta’limni tashkil etish va uning shaxsga moslashuvchanligini ta’minlash masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Telekommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, ular orqali talabalarning xalqaro hamkorlik, axborot almashinuvi va mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, kompyuterli telekomunikatsiyalarning didaktik funksiyalari va ularning pedagogik vazifalarni hal etishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Raqamli ta’lim muhitida adaptiv va individuallashtirilgan yondashuvlarni qo‘llash orqali talabalarning kognitiv xususiyatlari, bilim darajasi va o‘qish sur’atiga mos ta’lim modellarini shakllantirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy platformalar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt texnologiyalarining afzalliklari hamda ular bilan bog‘liq muammolar tahlil qilingan. Shu bilan birga, kelgusida sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish, virtual va qo‘shimcha reallik hamda mobil texnologiyalar asosida ta’limni yanada takomillashtirish istiqbollari belgilangan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, adaptiv ta’lim, individuallashtirilgan o‘qitish, telekommunikatsiya texnologiyalari, ta’limda hamkorlik, mustaqil ta’lim, didaktik funksiyalar, sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish, virtual reallik, qo‘shimcha reallik, mobil ta’lim, ingliz tilini o‘qitish, elektron ta’lim muhiti, ta’lim samaradorligi.*

МЕТОДИЧЕСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛЕКСИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ

Аннотация. *В данной статье с научной точки зрения анализируются вопросы организации образования на основе цифровых технологий в условиях глобализации и обеспечения его адаптивности к индивидуальным особенностям личности. Рассматривается роль телекоммуникационных технологий в образовательном процессе, а также возможности развития международного сотрудничества студентов, обмена информацией и самостоятельной учебной деятельности посредством их использования. Кроме того, обосновываются дидактические функции компьютерных телекоммуникаций и их значение в решении педагогических задач. Рассматриваются вопросы формирования в цифровой образовательной среде моделей обучения, соответствующих когнитивным особенностям студентов, уровню их знаний и темпу обучения, посредством применения адаптивного и индивидуализированного подходов. Анализируются преимущества современных платформ, мобильных приложений и технологий искусственного интеллекта в обучении английскому языку, а также проблемы, связанные с их использованием. Наряду с этим определяются перспективы дальнейшего совершенствования образовательного процесса на основе искусственного интеллекта, машинного обучения, виртуальной и дополненной реальности, а также мобильных технологий.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, адаптивное обучение, индивидуализированное обучение, телекоммуникационные технологии, сотрудничество в образовании, самостоятельное*

обучение, дидактические функции, искусственный интеллект, машинное обучение, виртуальная реальность, дополненная реальность, мобильное обучение, обучение английскому языку, электронная образовательная среда, эффективность образования.

METHODOLOGICAL ORGANIZATION OF THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING LEXICAL RESOURCES

Annotation. *This article provides a scientific analysis of organizing education based on digital technologies in the context of globalization and ensuring its adaptability to individual learners. It examines the role of telecommunication technologies in the educational process, highlighting their potential to foster international collaboration, information exchange, and independent learning among students. In addition, the didactic functions of computer-based telecommunications and their significance in solving pedagogical tasks are substantiated. The study also explores the formation of adaptive and individualized learning models in a digital learning environment, taking into account students' cognitive characteristics, knowledge levels, and learning pace. Furthermore, the advantages of modern platforms, mobile applications, and artificial intelligence technologies in teaching English, as well as the challenges associated with their implementation, are analyzed. The paper also outlines future prospects for enhancing education through artificial intelligence, machine learning, virtual and augmented reality, and mobile technologies.*

Keywords: *digital technologies, adaptive learning, individualized instruction, telecommunication technologies, collaborative learning, independent learning, didactic functions, artificial intelligence, machine learning, virtual reality, augmented reality, mobile learning, English language teaching, e-learning environment, educational effectiveness.*

Kirish. Bugungi globallashgan va integratsiyalangan jamiyatda talabalar alohida o‘qish bilan cheklanib qolishlari mumkin emas. An’anaviy, nisbatan yopiq ijtimoiy muhit – o‘qituvchilar, do‘stlar, oila – ularning ta’lim faoliyati uchun yetarli bo‘lmaydi. Shu bois telekomunikatsiya texnologiyalari talabalar uchun keng dunyoga ochiq oyinalarni taqdim etadi. Talabalar tarmoqlar orqali boy axborot resurslariga kirish imkoniga ega bo‘lib, turli mamlakatlardagi hamkasblar bilan qiziqqan loyihalarini amalga oshirishda hamkorlik qila oladilar. Shuningdek, telekonferensiyalar orqali ular dunyo miqyosidagi muammolarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday hamkorlik va qo‘shma faoliyat talabalarning individual va guruhlardagi mustaqil bilim olish faoliyatini kuchli rag‘batlantiradi. Hamkorlikdagi ish talabalarni muammoni turli nuqtai nazardan tahlil qilishga, qo‘shimcha ma’lumot qidirishga va o‘z natijalarini baholashga undaydi. Bu jarayonda o‘qituvchi faqat lavozimi tufayli emas, balki ma’lumotning avtoritet manbai va ekspert sifatida qaraladigan rahbar, muvofiqlashtiruvchi va maslahatchiga aylanadi. Sinfda oraliq natijalarni muhokama qilish, diskussiyalar, miya to‘plami (brainstorming), taqdimotlar va referatlar yangi mazmunda amalga oshiriladi. Bu jarayonda material faqat o‘quv qo‘llanmalari va rasmiy manbalardan iborat bo‘lmay, shuningdek, boshqa hududlardagi loyiha hamkorlarining fikrlari, ular tomonidan to‘plangan ma’lumotlar va faktlarning talqinini ham o‘z ichiga oladi. Telekommunikatsiyalar (elektron pochta, telekonferensiyalar) talabalarga dunyodagi voqealarga nisbatan mustaqil qarashni shakllantirish, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va ba’zi muammolarni faqat qo‘shma harakatlar orqali yechish mumkinligini tushunish imkonini beradi. Shu jihatdan, bu jarayonlar global fikrlashning asosiy elementlari sifatida baholanadi va zamonaviy ta’limda muhim ahamiyat kasb etadi.

Material va metodlar. Ta’limining rivojlanish tendensiyalari nuqtai nazaridan kompyuterli telekomunikatsiyalarni tahlil qilganda, ularning didaktik funksiyalarini aniqlash va ushbu vositalar orqali qanday o‘ziga xos pedagogik vazifalarni hal qilish mumkinligini ko‘rsatish mumkin. Biz didaktik funksiyalar deb ta’lim jarayonida ma’lum maqsadlar uchun qo‘llaniladigan o‘quv vositalari xususiyatlarining tashqi namoyonini tushunamiz. Bu ularning ta’lim jarayonidagi vazifasi, ahamiyati va o‘rnidir. Shu munosabat bilan, telekomunikatsiyalar yuqorida tilga olingan pedagogik muammolarni hal qilishda qanday imkoniyatlar bera oladi va ularning didaktik funksiyalari nima? Albatta, agar faqat ikki kompyuterni masofadagi bir-biriga ulashni ko‘zda tutsak va bu texnik jihatdan oson bo‘lsa ham, bu hali pedagogik muammoni hal qilish demak emas. Shunday tajribalar AQSHda ham bo‘lgan, ammo ular katta samara bermagan. Raqamli texnologiyalar asosida olib borilayotgan ta’lim jarayonida shaxsga moslashuvchanlik talabaning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib, ta’lim mazmuni, uslubi va ritmini individuallashtirish imkonini beradi. Moslashuvchan ta’lim modellari talabaning oldingi bilimlari, tajribasi va o‘rganish sur’atini hisobga olib, har bir talabaga alohida qo‘llab-quvvatlash vositalari va interaktiv resurslar taqdim qilish orqali bilim olish jarayonini samaralilashtiradi. Bu jarayonda vizual, audio va interaktiv materiallardan foydalanish talabaning o‘zini qiziqtirgan mavzularni mustaqil o‘rganishini rag‘batlantiradi hamda ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Shu bilan birga, shaxsga moslashuvchan raqamli ta’lim texnologiyalari talabaning mustaqil

fikrlash, muammolarni hal qilish va yaratuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ular guruhda hamda individual faoliyatda samarali ishlash imkonini beradi, hamkorlikdagi ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi va talabalarni turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish, qo‘shimcha ma’lumot qidirish hamda o‘z natijalarini baholashga undaydi. Kompyuterli telekomunikatsiya texnologiyalari orqali talabalar turli maktablar va ilmiy markazlar, shuningdek, turli mamlakatlardan hamkasblari bilan qo‘shma tadqiqot loyihalarini amalga oshirishi mumkin. Bu jarayonlarda proyekt metodikasi asosida ijodiy, tadqiqot va amaliyotga yo‘naltirilgan mustaqil faoliyatni rivojlantirish mumkin. Telekonferensiyalar, elektron pochta va multimedia texnologiyalari orqali ma’lumot va g‘oyalarni tezkor almashish talabalarning dunyoqarashini kengaytirib, ularning madaniy va gumanitar rivojlanishiga ham hissa qo‘shadi. Ingliz tilini o‘qitish jaray-niga raqamli texnologiyalarni joriy etish qator muhim afzalliklarni ta’minlaydi. Avvalo, texnologiyalar ta’limni onlayn shaklda tashkil etish imkonini berib, uni dunyoning turli hududlarida joylashgan talabalar uchun ham ochiq va qulay qiladi. Masofaviy ta’limni amalga oshirishda Zoom, Google Classroom va Moodle kabi onlayn platformalar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, dars o‘tish, topshiriqlarni taqdim etish hamda bilimni baholash uchun samarali vositalarni taqdim etmoqda. Ikkinchidan, ingliz tilini o‘rganishga mo‘ljallangan Duolingo, Memrise va Babbel kabi mobil ilovalar o‘quvchilarga o‘qish sur’ati va murakkablik darajasini mustaqil ravishda tanlash imkoniyatini yaratadi. Bu esa ta’lim jarayonining individuallashuviga xizmat qiladi. Ushbu ilovalarda o‘yin elementlari hamda rag‘batlantiruvchi tizimlar mavjud bo‘lib, ular foydalanuvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va yangi natijalarga erishishga undaydi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari ham til o‘qitishda muhim o‘rin egallaydi. Grammarly va Write&Improve kabi dasturlar talabalarning yozma nutq ko‘nikmalarini takomillashtirishga yordam berib, grammatik xatolarni avtomatik ravishda aniqlaydi va uslubiy jihatdan takliflar beradi. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi virtual yordamchilar, masalan, Alexa yoki Siri – norasmiy muhitda ingliz tilida muloqot qilishni mashq qilish imkoniyatini ham yaratadi.

Natijalar.

Leksik zaxirani shakllantirish va kengaytirishning texnologik modeli

№	Komponentlar	Mazmuni	Pedagogik natija
1	Maqsadli komponent	Talabalarning kasbiy yo‘naltirilgan leksik zaxirasi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish	Leksik va nutqiy kompetensiya shakllanadi
2	Mazmunli komponent	Sohaviy terminologiya, autentik matnlar, kollokatsiyalar, leksik bloklar va nutqiy konstruksiyalar	Leksik material tizimlashadi va boyiydi
3	Shaxsga moslashuvchan komponent	Individual bilim darajasiga mos leksik material, adaptiv ta’lim trayektoriyasi, bosqichma-bosqich o‘zlashtirish	Leksik zaxira individual ravishda samarali shakllanadi
4	Metodik komponent	Kontekstual, kommunikativ, kognitiv, interaktiv va muammoli yondashuvlar	Leksik birliklar ongli va faol o‘zlashtiriladi
5	Texnologik komponent	Elektron platformalar, multimedia, adaptiv testlar, interaktiv trenajyorlar, mobil ilovalar	Raqamli muhitda leksik zahirani kengaytirish ta’minlanadi
6	Faoliyatli komponent	Rolli o‘yinlar, keyslar, leksik mashqlar, loyiha ishlari, virtual muloqot	Nutqiy faollik va amaliy ko‘nikmalar rivojlanadi
7	Nazorat-baholash komponenti	Adaptiv testlar, portfolio, amaliy nutqiy topshiriqlar	Leksik kompetensiya darajasi aniqlanadi va nazorat qilinadi
8	Natijaviy komponent	Leksik zaxiraning kengayishi, terminologik fikrlash, kasbiy muloqot qobiliyati	Mutaxassislikka yo‘naltirilgan kommunikativ kompetensiya shakllanadi

Muhokama. Ingliz tilini o‘qitish jarayoniga texnologiyalarni tatbiq etish qator afzalliklarga ega bo‘lishiga qaramasdan, bu jarayon ma’lum qiyinchiliklar bilan ham bog‘liq. Eng asosiy muammolardan biri – o‘qituvchilar va talabalarning texnik tayyorgarlik darajasi hisoblanadi. Onlayn platformalar va mobil ilovalardan samarali foydalanish uchun axborot-kompyuter texnologiyalari bilan ishlashga oid muayyan ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi. Shu bois o‘qituvchilar raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha o‘z bilim va malakalarini muntazam ravishda takomillashtirib borishlari hamda o‘quv dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirishlari zarur. Bundan tashqari, texnologiyalardan foydalanish imkoniyati ham muhim omil hisoblanadi. Barcha talabalar ham zamonaviy qurilmalar yoki barqaror internet tarmog‘idan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Bu holat esa ta’lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, onlayn ta’lim sharoitida bilimni baholashning yangi usullarini ishlab chiqish

zarurati ham yuzaga keladi, chunki an’anaviy baholash yondashuvlari har doim ham masofaviy ta’lim muhitida kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Kelgusida sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish texnologiyalaridan ta’lim jarayonini individuallashtirish hamda har bir talabaning bilim darajasi va ehtiyojlariga moslasha oladigan adaptiv o‘qitish tizimlarini yaratishda yanada keng foydalanilishi kutilmoqda. Bunday tizimlar o‘quvchilarning o‘qish sur’ati va bilim darajasiga qarab avtomatik tarzda moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, virtual va qo‘shimcha reallik texnologiyalari ta’lim sohasida keng qo‘llanilib, o‘quvchilar uchun til muhitiga yaqinlashtirilgan immersiv ta’lim makonlarini yaratishga xizmat qiladi. Bunday muhitda talabalar real hayotga yaqin vaziyatlarda til ko‘nikmalarini amaliy jihatdan mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, mobil texnologiyalarning ahamiyati ham ortib boradi. Ular o‘quvchilarga istalgan joyda va istalgan vaqtda bilim olish imkoniyatini yaratib, ta’lim jarayonining yanada moslashuvchan va qulay bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga maqsadli va tizimli integratsiya qilish talabalarning leksik zaxirasini shakllantirish hamda rivojlantirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot davomida shaxsga moslashuvchan ta’lim muhiti konsepsiyasiga asoslangan holda leksik kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy-metodik modeli ishlab chiqildi. Mazkur model ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlari, kognitiv rivojlanish darajasi, tilni o‘zlashtirish sur’ati, qiziqishlari hamda kelajakdagi kasbiy faoliyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi bilan an’anaviy yondashuvlardan farq qiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, leksik zaxirani shakllantirish jarayoni barcha talabalar uchun bir xil mazmundagi o‘quv materiallari asosida emas, balki sun’iy intellekt elementlari, adaptiv algoritmlar va raqamli ta’lim platformalari yordamida individual o‘quv trayektoriyalarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv har bir talabaning bilim darajasi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini muntazam monitoring qilish, mavjud bo‘shliqlarni aniqlash hamda ularga, mos ravishda, o‘quv materiallarini avtomatik tanlash imkoniyatini yaratadi. Natijada o‘quv jarayoni yanada moslashuvchan, samarali va talabaning ehtiyojlariga yo‘naltirilgan shaklga ega bo‘ladi. Ishlab chiqilgan metodik tizimda leksik birliklarni tanlash, ularni mavzular bo‘yicha tizimlashtirish, kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash, muntazam takrorlash va mustahkamlash jarayonlari yagona raqamli muhitda amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Bunda yangi so‘zlarni faqat yodlash emas, balki ularning semantik, pragmatik va uslubiy xususiyatlarini anglash, turli nutqiy vaziyatlarda maqsadga muvofiq qo‘llash hamda faol lug‘at tarkibiga kiritish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shu sababli talabalarda leksik birliklarni ongli ravishda o‘zlashtirish, ularni nutq jarayonida erkin qo‘llash hamda yangi kommunikativ vaziyatlarga moslashtirish ko‘nikmalari izchil rivojlantirildi. Tadqiqot davomida adaptiv testlar, interaktiv mashqlar, gamifikatsiya elementlari, elektron lug‘atlar, multimedia resurslari, audio va videomateriallar hamda vizual axborot vositalaridan kompleks foydalanish metodikasi ishlab chiqildi. Mazkur vositalarning uyg‘un qo‘llanilishi talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb etish, ularning motivatsiyasini oshirish, mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish hamda o‘rganilgan leksik birliklarning uzoq muddatli xotirada saqlanishini ta’minlashga xizmat qildi. Ayniqsa, multimedia texnologiyalari orqali so‘zlarning kontekstual qo‘llanishini namoyish etish ularning ma’nosini chuqurroq anglash va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, shaxsga moslashuvchan raqamli ta’lim muhiti talabalarning individual o‘quv faoliyatini samarali boshqarish, o‘zlashtirish natijalarini muntazam monito-ring qilish va tahlil etish hamda o‘z vaqtida pedagogik korreksiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bu esa ta’lim jarayonining uzluksizligi, izchilligi va samaradorligini ta’minlab, talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Eksperimental tajriba-sinov ishlari natijalari ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqladi. Tajriba guruhlarida tahsil olgan talabalar nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan leksik birliklarni o‘zlashtirish, ularni nutqda faol qo‘llash, matnni tushunish va kasbiy muloqot jarayonida ulardan foydalanish bo‘yicha yuqori natijalarga erishdilar. Statistik tahlillar tajriba va nazorat guruhlari natijalari o‘rtasidagi farqning ishonchliligini ko‘rsatib, taklif etilgan metodik tizimning ilmiy va amaliy asoslanganligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar oliy ta’lim muassasalarida xorijiy til o‘qitish metodikasini takomillashtirish, leksik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan elektron ta’lim resurslarini yaratish hamda raqamli ta’lim platformalarini samarali joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv nafaqat talabalarning lug‘at boyligini kengaytirishga, balki ularning kommunikativ, kasbiy va axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Umuman olganda, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan shaxsga moslashuvchan raqamli ta’lim modeli leksik zahirani shakllantirishning zamonaviy, ilmiy asoslangan va innovatsion mexanizmi sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu model ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quv faoliyatini optimallashtirish, o‘zlashtirish sifatini oshirish hamda bo‘-

lajak mutaxassislarning xorijiy tilda samarali kasbiy muloqot olib borish kompetensiyasini rivojlantirish uchun mustahkam metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois mazkur tadqiqot natijalari kelgusida raqamli pedagogika, adaptiv ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellektga asoslangan o‘quv tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun ham nazariy va amaliy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учеб. пособие для студ. пед. вузов и системы повыш. квалиф. пед. кадров. Е.С.Полат, М.Ю.Бухаркина, М.В.Моисеева, А.Е. Петров. Под ред. Е.С.Полат. М., издательский центр «Академия», 1999, 224 с.

(2). Ларсон Р. Преподавание английского языка в эпоху цифровых технологий. М., “Просвещение”, 2020, с. 87–129.

(3). Melis E., Andrès E., Büdenbender J., Frishauf A., Goguadse G., Libbrecht P., Pollet M., Ullrich C. (2001). ActiveMath: A web-based learning environment. International Journal of Artificial Intelligence in Education, 12(4), p. 385–407.

(4). Нургелдиева М., Садиева А., Преподавание английского языка в цифровую эпоху: интеграция технологий в обучение языку. Международный научный журнал “Символ науки”, 9-1-1/2024, с. 80–82.

(5). Солдаткин В.И. Электронная педагогика: основания и проблемы. “Байкальский психологический и педагогический журнал”, 2003, № 1, с. 61–70.

(6). Нургелдиева М., Садиева А. Преподавание английского языка в цифровую эпоху: интеграция технологий в обучение языку. Международный научный журнал “Символ науки”, ISSN:2410-700x, 9-1-1/ 2024, с. 80–82.

Nursulton Zamon o‘g‘li Shayxislamov (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti Turizm fakulteti dekani o‘rinbosari, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEK TILIDA AFFIKSLARNING SEMANTIK YAQINLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi affikslarning semantik yaqinligi struktur-semantik va funksional yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi bir xil yoki yaqin derivatsion hamda grammatik ma’nolarni ifodalovchi affikslarning semantik va funksional xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida affikslarning qo‘llanish doirasi, uslubiy differensiatsiyasi va so‘z yasashdagi mahsuldorligi ilmiy misollar asosida yoritiladi. Tahlillar affikslar o‘rtasidagi semantik yaqinlik mutlaq emasligini, ularning qo‘llanishi leksik, uslubiy va pragmatik omillar bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Olingan natijalar o‘zbek tili morfologiyasi va derivatsion lingvistikasida affikslarning semantik munosabatlarini yoritishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *affiks, sinonimiya, affiks sinonimiyasi, derivatsiya, struktur-semantika, funksional grammatika, so‘z yasalishi, morfologiya, uslubiy differensiatsiya, mahsuldor affiks, semantik maydon, funksional tahlil.*

Нурсултон Замон угли Шайхисламов (заместитель декана факультета туризма Чирчикского государственного педагогического университета, доктор философии по педагогическим наукам)

СЕМАНТИЧЕСКАЯ БЛИЗОСТЬ АФФИКСОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье семантическая близость аффиксов узбекского языка рассматривается с позиций структурно-семантического и функционального подходов. Цель исследования заключается в выявлении семантических и функциональных особенностей аффиксов, выражающих одинаковые или близкие словообразовательные и грамматические значения. В работе анализируется сфера их употребления, стилистическая дифференциация и продуктивность в словообразовании на основе языковых примеров. Результаты исследования показывают, что семантическая близость аффиксов не является абсолютной и определяется лексическими, стилистическими и прагматическими факторами. Полученные выводы способствуют дальнейшему изучению семантических отношений аффиксов в морфологии и дериватологии узбекского языка.*

Ключевые слова: *аффикс, семантическая близость, деривация, структурная семантика, функциональная грамматика, словообразование, морфология, стилистическая дифференциация, продуктивный аффикс, семантическое поле, функциональный анализ.*

Nursulton Zamon ugli Shaykhislamov (Deputy Dean of the Faculty of Tourism, Chirchiq State Pedagogical University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences)

SEMANTIC SIMILARITY OF AFFIXES IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation. *This article analyzes the semantic similarity of affixes in the Uzbek language from structural-semantic and functional perspectives. The study aims to identify the semantic and functional*

characteristics of affixes expressing identical or similar derivational and grammatical meanings. The research examines their scope of use, stylistic differentiation, and productivity in word formation through linguistic examples. The findings show that semantic similarity among affixes is not absolute; rather, their use is determined by lexical, stylistic, and pragmatic factors. The results contribute to the study of semantic relations among affixes in Uzbek morphology and derivational linguistics.

Keywords: *affix, semantic similarity, derivation, structural semantics, functional grammar, word formation, morphology, stylistic differentiation, productive affix, semantic field, functional analysis.*

Kirish. O‘zbek tilining agglutinativ tuzilishi affikslarning morfologik va derivatsion tizimda muhim o‘rin egallashini ta’minlaydi. Affikslar yangi so‘z yasash, grammatik ma’nolarni ifodalash hamda tilning nominativ imkoniyatlarini kengaytirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim affikslar ma’no yaqinligi asosida o‘zaro sinonimik munosabat hosil qilib, bir xil yoki yaqin semantik vazifalarni turli uslubiy va funksional vositalar orqali ifodalash imkonini yaratadi. Mazkur hodisa o‘zbek tili derivatsion tizimining muhim xususiyatlaridan biri sanaladi [1;3-b.].

Affiks sinonimiyasi bir xil yoki yaqin ma’noni ifodalovchi affikslarning semantik, uslubiy va funksional jihatdan o‘zaro munosabatini anglatadi. Bunday affikslar mutlaq ma’nodosh bo‘lmay, ularning qo‘llanishi so‘zning leksik ma’nosi, nutq uslubi, kommunikativ vaziyat va adabiy til me’yorlari bilan belgilanadi. Masalan, *-li* va *-dor* (mazmunli – mazmundor), *-siz* va *be-* (foydasiz – befoyda) affikslari ayrim ma’no maydonlarida yaqinlik hosil qilsa-da, ularning qo‘llanish doirasi va semantik nozikliklari bir xil emas [2;5-b.].

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida affikslarning morfologik va derivatsion xususiyatlari keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, ularning sinonimik munosabatlari, semantik differensiatsiyasi va funksional chegaralari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Bu esa affiks sinonimiyasini struktur-semantik va funksional nuqtayi nazardan o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilidagi sinonim affikslarning struktur-semantik xususiyatlarini, ularning funksional imkoniyatlari hamda qo‘llanish mezonlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari o‘zbek tili morfologiyasi va derivatsion tizimida affiks sinonimiyasining o‘rni hamda ahamiyatini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi [4;6-b.].

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligida affikslarning morfologik tabiati, derivatsion imkoniyatlari va semantik xususiyatlari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning sinonimik munosabatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Mavjud ilmiy ishlarda bu masala asosan so‘z yasalishi va grammatik ma’no bilan bog‘liq holda tahlil qilingan [1;3-b.].

A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev va A.Nurmonovning tadqiqotlarida affikslarning grammatik vazifalari, mahsuldorligi hamda derivatsion tizimdagi o‘rni izohlangan. Mazkur ishlarda ayrim affikslarning ma’no yaqinligi qayd etilgan bo‘lsa-da, ularning sinonimik xususiyatlari, semantik chegaralari va funk-sional tafovutlari maxsus tadqiq etilmagan [1;2;3]. N.Mahmudov va Sh.Safarov esa til birliklarining uslubiy hamda pragmatik xususiyatlarini yoritib, affikslarning nutqiy vaziyatga bog‘liq holda tanlanishini asoslab berganlar [4;5].

Xorijiy tilshunoslikda G.Boij, R.Liyeber va J.Baybe derivatsion morfologiya doirasida affikslarning semantik va funksional xususiyatlarini tadqiq etganlar. Ularga ko‘ra, ma’no jihatdan yaqin affikslar mutlaq sinonim bo‘lmay, qo‘llanish muhiti, mahsuldorligi va uslubiy xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi [8;9;11].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda o‘zbek tilidagi sinonim affikslarning struktur-semantik va funksional xususiyatlarini aniqlash maqsadida tavsifiy, struktur-semantik, komponent tahlil hamda funksional tahlil metodlaridan foydalanildi. Affikslarning o‘zaro sinonimik munosabatlari ularning semantik yaqinligi, derivatsion imkoniyatlari, qo‘llanish muhiti va uslubiy xususiyatlari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, sinonim affikslarning nutqdagi funksional farqlarini aniqlashda qiyosiy kuzatish usulidan ham foydalanildi.

Tadqiqot materiali sifatida zamonaviy o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llanayotgan affiksli birliklar tanlab olindi. Tahlil jarayonida sinonim affikslarning ma’no hajmi, qo‘llanish doirasi va funksional faolligi o‘zaro taqqoslanib, ularning umumiy hamda farqli jihatlari ilmiy asosda baholandi. Olingan natijalar affiks sinonimiyasining morfologik tizimdagi o‘rnini hamda zamonaviy o‘zbek tilidagi funksional xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi [2;6-b.].

Tahlil va natijalar. O‘zbek tilida affiks sinonimiyasi bir xil yoki o‘zaro yaqin derivatsion ma’noni ifodalovchi affikslarning semantik va funksional munosabatlari asosida yuzaga keladi. Bunday affikslar barcha nutqiy vaziyatlarda bir-birini to‘liq almashtira olmaydi. Ularning qo‘llanishi so‘zning leksik ma’-

nosi, uslubiy xususiyati va til me'yorlari bilan belgilanadi. Shu bois affiks sinonimiyasini mutlaq emas, balki nisbiy sinonimiya sifatida baholash maqsadga muvofiqdir [3;6-b.].

O'zbek tilida *-li* va *-dor* affikslari predmet yoki shaxsning muayyan belgi va xususiyatga egaligini ifodalashda ma'no jihatdan yaqinlashadi. Masalan, *mazmunli nutq* va *mazmundor nutq*, *ma'noli asar* va *ma'nodor asar* bir xil semantik maydonga mansub bo'lsa-da, ularning uslubiy qiymati bir xil emas. *-li* affiksi umumiste'mol va neytral uslubda faol qo'llansa, *-dor* affiksi ko'proq badiiy hamda publitsistik nutqda ifodaviylikni kuchaytiradi. Shuning uchun mazmundor maqola birikmasi ilmiy va publitsistik uslubda tabiiyroq eshitilsa, mazmunli maqola kengroq qo'llanish doirasiga ega. Demak, mazkur affikslar semantik yaqinlikka ega bo'lsa-da, ularning funksional imkoniyatlari farqlanadi [1;5-b.].

Sinonimik munosabat *-lik* va *-chilik* affikslari o'rtasida ham kuzatiladi. Har ikkala affiks abstrakt tushunchalarni hosil qilishda ishtirok etadi, biroq ularning derivatsion faolligi bir xil emas. *-lik* affiksi umumiy grammatiklashgan vosita sifatida keng qo'llanadi (do'stlik, yoshlik, insoniylik), *-chilik* esa ko'proq faoliyat, kasb, ijtimoiy hodisa yoki muayyan munosabatni ifodalashga moyildir (dehqonchilik, hunarmandchilik, tadbirkorchilik). Ayrim hollarda ular bir xil o'zak bilan qo'llanishi mumkin, biroq hosila so'zlarning semantik hajmi va qo'llanish chastotasi o'zaro farqlanadi. Bu esa sinonim affikslarning derivatsion imkoniyatlari teng emasligini ko'rsatadi [2;4-b.].

Yana bir muhim sinonimik qator *-siz* affiksi va *be-* old qo'shimchasi orqali hosil bo'ladi. Ular inkor yoki mavjud emaslik ma'nosini bildiradi: *foydasiz – befoyda*, *ma'nisiz – bema'ni*. Biroq bu birliklar barcha hollarda o'zaro almashina olmaydi. Masalan, *uysiz* so'zining o'rnida *beuy*, *suvsiz* o'rnida *besuv* shakllari adabiy til me'yoriga mos kelmaydi. Aksincha, *befarq, beodob, beminnat* kabi birliklarda *-siz* affiksi qo'llanmaydi. Demak, sinonimik munosabat mavjud bo'lsa-da, u affikslarning birikuv imkoniyatlari va tarixiy shakllanishi bilan chegaralanadi.

Shu o'rinda sinonimik munosabat hosil qiluvchi affikslardan yana biri *-chi* va *-uvchi (-vchi)* affikslaridir. Har ikkala affiks ham shaxsning kasbi, faoliyati yoki muayyan ish-harakat bilan shug'ullani-shini ifodalashda ishtirok etadi. Biroq ularning qo'llanishi bir xil emas. *-chi* affiksi ko'proq kasb, mash-g'ulot yoki muayyan faoliyat egasini bildiruvchi otlarni hosil qiladi (temirchi, zargar, quruvchi emas, balki temirchi, kulolchi emas – kulol kabi shakllarda ayrim tarixiy cheklanishlar mavjud). *-uvchi* affiksi esa asosan fe'l negiziga qo'shilib, harakatni bajaruvchi shaxsni ifodalaydi: o'qituvchi, kuzatuvchi, tinglovchi, yozuvchi. Demak, bu affikslar faqat ayrim semantik maydonlarda yaqinlashadi, biroq ularning derivatsion modeli va qo'llanish shartlari farqlanadi [3;5-b.].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sinonim affikslarning qo'llanishida mahsuldorlik muhim mezonlardan biridir. Masalan, *-lik* affiksi zamonaviy o'zbek tilida yangi mavhum otlarni hosil qilishda eng faol vositalardan biri bo'lib qolmoqda. Aksincha, ayrim affikslar tarixiy taraqqiyot jarayonida o'z mahsuldorligini qisman yo'qotgan yoki qo'llanish doirasi toraygan. Natijada ma'no jihatdan yaqin affikslar orasida biri faol, ikkinchisi esa nisbatan cheklangan vosita sifatida qo'llanadi. Bu holat affiks sinonimiyasining dinamik xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [2;6-b.].

Shuningdek, sinonim affikslarning tanlanishida til me'yori va an'ana muhim rol o'ynaydi. Nazariy jihatdan ma'no yaqinligi mavjud bo'lgan barcha affikslarni o'zaro almashtirish mumkin emas. Chunki har bir affiksning tarixiy shakllanishi, birikuv imkoniyati va semantik moslashuvi ma'lum qoliplarga ega. Shuning uchun sinonim affikslarni baholashda faqat umumiy ma'noga emas, balki ularning leksik moslashuvi, uslubiy vazifasi va qo'llanish chastotasi ham hisobga olinishi lozim. Aynan shu omillar affiks sinonimiyasining o'ziga xos lingvistik tabiatini belgilaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari o'zbek tilida affiks sinonimiyasi morfologik tizimning muhim hodisalaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Sinonim affikslar umumiy semantik maydonga mansub bo'lsa-da, ularning qo'llanishi grammatik vazifa, leksik moslashuv, uslubiy xususiyat va kommunikativ ehtiyojlarga ko'ra farqlanadi. Shu bois affiks sinonimiyasini mutlaq emas, balki nisbiy va funksional hodisa sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Tahlillar *-li* va *-dor*, *-lik* va *-chilik*, *-siz* va *be-* kabi affikslar ayrim ma'no maydonlarida sinonimik munosabat hosil qilishini, biroq ularning birikuv imkoniyati, semantik hajmi va qo'llanish doirasi bir xil emasligini ko'rsatdi. Bu esa affikslar o'rtasidagi sinonimik munosabatlarning tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari hamda adabiy til me'yorlari bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, affiks sinonimiyasi tilning uslubiy imkoniyatlarini kengaytirib, bir xil mazmunni turli derivatsion vositalar orqali ifodalash imkonini yaratadi. Sinonim affikslarning tanlanishi nutqning maqsadi, uslubi va kommunikativ vaziyatiga bog'liq bo'lib, bu holat ularning funksional differensiatsiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek tili derivatsion tizimida affiks sinonimiyasining struktur-semantik va funksional xususiyatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Kelgusida sinonim affikslarni korpus lingvistikasi materiallari asosida o‘rganish, ularning qo‘llanish chastotasi va uslubiy taqsimotini statistik tahlil qilish ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada boyitishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ҳожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиши. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1989, 168-бет.
(2). Нурмонов А., Маҳмудов Н., Собиров А., Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, “Илм зиё”, 2013, 576-бет.
(3). Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Тошкент, “Университет”, 2006, 47-бет.
(4). Маҳмудов Н. Тил. Тошкент, “Mumtoz so‘z”, 2013, 192-бет.
(5). Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008, 300-бет.
(6). Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек тили. Морфемика ва сўз ясалиши. Тошкент, “Fan”, 2000, 224-бет.
(7). Бўронов Ж. Ўзбек ва бошқа туркий тиллар қиёсий грамматикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1973, 284-бет.
(8). Booij G. The Grammar of Words: An Introduction to Morphology. 3rd ed. 9. Oxford: Oxford University Press, 2012, 320 p.
(9). Lieber R. Introducing Morphology. 2nd ed. Cambridge, Cambridge University Press, 2016, 388 p.
(10). Katamba F. Morphology. London, Palgrave Macmillan, 1993, 360 p.
(11). Bybee J. Language, Usage and Cognition. Cambridge, Cambridge University Press, 2010, 278 p.
(12). Matthews P.H. Morphology. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 1991, 251 p.
(13). Aronoff M., Fudeman K. What is Morphology? 2nd ed. Oxford, Wiley-Blackwell, 2011, 240 p.
(14). Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. 6th ed. Oxford, Blackwell Publishing, 2008,529 p.

Raximova Umida Soliyevna (Urganch RANCH Texnologiya universiteti dotsenti, PhD;
e-mail: umida1976@list.ru)

XX–XXI ASR ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ONA OBRAZINI O‘RGANISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

Annotatsiya. *Maqolada XX–XXI asr zamonaviy adabiyotshunosligida ona obrazini o‘rganishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Ona obrazi ijtimoiy, madaniy, psixologik va falsafiy mazmunga ega bo‘lgan murakkab badiiy kategoriya sifatida tadqiq etiladi. Tadqiqotda zamonaviy ingliz va amerika adabiyotida ona obrazining tipologik xususiyatlari, poetik funksiyalari, gender va identifikatsiya muammolari yoritilgan. Toni Morrison, Doroti Ellison, Doroti Uest, Sharlotta Perkins Gilman va Edit Uorton asarlari misolida ona obrazining tragik, ramziy, psixologik va ijtimoiy jihatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ona obrazi, onalik konsepsiyasi, poetika, gender, badiiy tipologiya, zamonaviy adabiyot, ingliz-amerika adabiyoti.*

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ОБРАЗА МАТЕРИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ XX–XXI ВЕКОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются актуальные проблемы изучения образа матери в современном литературоведении XX–XXI веков. Образ матери исследуется как сложная художественная категория, обладающая социальным, культурным, психологическим и философским содержанием. В исследовании раскрываются типологические особенности, поэтические функции образа матери, а также проблемы гендерной идентичности в современной английской и американской литературе. На примере произведений Тони Моррисон, Дороти Эллисон, Дороти Уэст, Шарлотты Перкинс Гилман и Эдит Уортон анализируются трагические, символические, психологические и социальные аспекты образа матери.*

Ключевые слова: *образ матери, концепция материнства, поэтика, гендер, художественная типология, современная литература, англо-американская литература.*

ACTUAL PROBLEMS OF THE STUDY OF IMAGE MATTER AND LITERATURE OF XX–XXI CENTURIES

Annotation. *The article examines the актуал issues of studying the image of the mother in modern literary studies of the 20th–21st centuries. The image of the mother is analyzed as a complex artistic category with social, cultural, psychological, and philosophical significance. The study explores the typological features, poetic functions, and gender identity issues related to the representation of the mother figure in contemporary English and American literature. Based on the works of Toni Morrison, Dorothy*

Allison, Dorothy West, Charlotte Perkins Gilman, and Edith Wharton, the article analyzes the tragic, symbolic, psychological, and social aspects of the mother image.

Keywords: *mother image, concept of motherhood, poetics, gender, literary typology, modern literature, English-American literature.*

Kirish. Ona obrazi adabiyotda nafaqat badiiy personaj, balki keng qamrovli ijtimoiy, madaniy va falsafiy mazmunga ega bo‘lgan ko‘p qatlamli kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. U inson hayotining boshlanishi, ma’naviy meros, madaniy davomiylik va ijtimoiy munosabatlarning markaziy timsoli sifatida talqin etiladi. Xorijiy tadqiqotchilar ishlarida ona obrazi turli yondashuvlar asosida o‘rganilgani aniqlandi. Xususan, onalikning ijtimoiy va psixologik mohiyati, ona-bola munosabatlarining shaxs rivojlanishiga ta’siri, ona obrazining gender munosabatlari tizimidagi o‘rni hamda uning patriarxal jamiyatdagi funksiyalari keng yoritilgan. Shu bilan birga, ona obrazi “istak manbayi”, “madaniy xotira tashuvchisi”, “axloqiy tartib saqlovchi” kabi turli konseptual nuqtayi nazarlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotlar natijasida ona obrazining turli tipologik ko‘rinishlari–ideallashtirilgan ona, mavjud bo‘lmagan yoki zaif ona, surrogat ona kabi shakllarda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Bu esa adabiyotda onalik tushunchasining bir yoqlama emas, balki ziddiyatli va dinamik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, XIX–XX asr adabiyotida ona obrazi orqali gender tengsizlik, ayol shaxsiyati muammosi, ijtimoiy cheklovlar va patriarxal nazorat kabi dolzarb masalalar badiiy ifoda topgan.

Shuningdek, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ona obrazi nafaqat tarbiyachi, balki jamiyatdagi mavjud ijtimoiy va madaniy me’yorlarni qayta ishlab chiqaruvchi subyekt sifatida ham namoyon bo‘ladi. Biroq ayrim asarlarda onalik ayolning ichki kuchi, ijtimoiy ta’sir doirasi va shaxsiy erkinlikka intilishining manbayi sifatida ham talqin qilinadi. Bu esa ona obrazining faqat an’anaviy rollar bilan cheklanmasdan, ijtimoiy o‘zgarishlar jarayonida transformatsiyaga uchrashini anglatadi. Jahon adabiyotida ona obrazini o‘rganish orqali inson shaxsiyati, oilaviy munosabatlar, gender siyosat va madaniy qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligi chuqur ochib beriladi. Ona obrazi adabiyotda markaziy badiiy kategoriya sifatida nafaqat individual tajribani, balki butun jamiyatning ma’naviy va madaniy taraqqiyotini aks ettiradi. Shu jihatdan, mazkur bobda ko‘rib chiqilgan xorijiy tadqiqotlar dissertatsiya mavzusining nazariy-metodologik asosini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiya masalalari A.E.Mamatov tomonidan tizimli ravishda o‘rganilgan. Olim o‘zbek frazeologik fondining shakllanishi, semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilib, frazeologik birliklarning milliy tafakkur bilan uzviy bog‘liqligini asoslab bergan [13;73-b.]. Uning tadqiqotlari mazkur maqolaning frazeologik tahlili uchun asosiy nazariy manbalardan biri hisoblanadi. Sh. Rahmatullayevning frazeologik lug‘ati o‘zbek tilidagi turg‘un birikmalarni izohlashda eng muhim manbalardan biri sanaladi. Olim frazeologik birliklarning ma’nosi, qo‘llanishi va uslubiy xususiyatlarini batafsil tavsiflagan [14;112-b.]. Mazkur lug‘atdan maqolada keltirilgan ko‘plab o‘zbek frazeologizmlarining semantik tahlilida foydalanildi. N.Mahmudov til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligini o‘rganar ekan, til birliklari xalqning milliy tafakkuri va qadriyatlarini ifodalovchi vosita ekanligini ta'kidlaydi [15;37-b.]. Bu yondashuv genderga oid frazeologik birliklarning lingvomadaniy mohiyatini ochib berishda muhim metodologik asos bo‘ldi. Q.Musayevning tarjimashunoslikka oid ilmiy ishlari frazeologik birliklarning ekvivalentligi va milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan [16;91-b.]. Ayniqsa, o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning tarjimasida milliy koloritni saqlash masalalari mazkur tadqiqot uchun muhim nazariy asos hisoblanadi.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tilshunoslikda gender va frazeologiya masalalari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida gender assimetriyasining aynan frazeologik, birliklar misolida qiyosiy aspektda tadqiq etilishi hali yetarli darajada yoritilmagan. Mavjud tadqiqotlar asosan, frazeologiyaning umumiy nazariyasi, lingvokulturologik xususiyatlari yoki tarjima muammolariga bag‘ishlangan. Shuning uchun o‘zbek va ingliz tillaridagi genderga oid frazeologik birliklarning qiyosiy-semantik hamda lingvokulturologik tahlili mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida bir necha ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, qiyosiy-tipologik metod yordamida o‘zbek va ingliz tillaridagi genderga oid frazeologik birliklar semantik va struktur jihatdan o‘zaro taqqoslandi hamda ularning umumiy va farqli xususiyatlari aniqlandi.Tavsifiy (deskriptiv) metod orqali frazeologik birliklarning lug‘aviy ma’nosi, uslubiy xususiyatlari va qo‘llanish doirasi tavsiflandi. Ushbu metod genderga oid frazeologizmlarning til tizimidagi o‘rni va ularning semantik yuklamasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tahlil va muhokama. Frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, milliy mentaliteti va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan til birliklari hisoblanadi. Gender lingvistikasi nuqtai nazaridan ular erkak va ayol obrazining jamiyatda qanday konseptuallashtirilganini aks ettiradi. Til nafaqat voqelikni ifodalaydi, balki gender stereotiplarini shakllantirish va ularni saqlab qolishda ham muhim vosita vazifasini bajaradi [3;88-b.], [15;37-b.]. Qiyosiy tahlil natijasida aniqlanishicha, o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda gender assimetriyasi, avvalo, baholash komponentida namoyon bo‘ladi. Ayollarga oid frazeologizmlar, ko‘pincha, salbiy yoki kinoyaviy semantik yuklamaga ega bo‘lsa, erkak obraziga oid birliklarda ijobiy baholash ustunlik qiladi [4;52-b.], [8;117-b.]. Masalan, o‘zbek tilidagi “Sochi uzun, aqli kalta” iborasi ayolning tashqi ko‘rinishini uning aqliy salohiyati bilan bog‘laydi. Ingliz tilidagi “Long hair, short wit” frazeologizmi ham aynan shu mazmunni ifodalaydi. Har ikkala birlik ayolning intellektual imkoniyatlarini past baholovchi gender stereotipining mahsuli hisoblanadi [1;45-b.], [5;94-b.]. Mazkur frazeologizmlar til orqali ayolning ijtimoiy mavqeyini emas, balki tarixan shakllangan stereotipik tasavvurlarni aks ettiradi [9; 102-b.].

O‘zbek tilida “Ayolning aqli etagida”, “Sochi uzun, aqli kalta” kabi iboralar ayol tafakkuriga nisbatan salbiy munosabatni bildirsa, ingliz tilida “A woman’s place is in the home” iborasi ayolning asosiy vazifasi uy-ro‘zg‘or ishlari bilan cheklanishini ifodalaydi. Zamonaviy gender tadqiqotlarida bunday birliklar patriarxal madaniyat mahsuli sifatida baholanadi [3;88-b.], [4;65-b.].

Ayol nutqiga oid frazeologik birliklarda ham salbiy baholash ustunlik qiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “Ezma xotin”, “Kampirning gapi qirq yilga yetadi”, “Gap tashuvchi xotin” kabi iboralar ayolning sergapligi va mish-mish tarqatishga moyilligini ifodalaydi. Ingliz tilida esa “Old wives' tale”, “Gossip like an old

woman”, “Catty woman” kabi birliklar shunga yaqin ma’noga ega. Ushbu frazeologizmlar ayollar nutqiga nisbatan salbiy pragmatik munosabat mavjudligini ko‘rsatadi [2;214-b.], [5;96-b.].

Erkak obraziga oid frazeologik birliklar esa aksariyat hollarda ijobiy semantik maydonga mansub. Jumladan, “Erkak so‘zi”, “Arslonday yigit”, “Tog‘dek yigit”, “Bilagi zo‘r” kabi o‘zbek frazeologizmlari erkakni jasur, kuchli va ishonchli shaxs sifatida tavsiflaydi. Ingliz tilidagi “A man’s word is his bond”, “As brave as a lion”, “Stand like a man”, “Strong as an ox” birliklari ham ayni konseptni ifodalaydi [6; 184], [19;96-b.]. Gender assimetriyasining yana bir ko‘rinishi erkak va ayolning bir xil xatti-harakatiga nisbatan turlicha baho berilishida kuzatiladi. Masalan, ingliz tilidagi “Womanizer” ko‘p ayollar bilan ishqiy munosabatda bo‘luvchi erkakni anglatsa, “Loose woman” iborasi ayolga nisbatan keskin salbiy axloqiy bahoni ifodalaydi. O‘zbek tilida ham “Xotinboz” so‘zi ayrim nutqiy vaziyatlarda yumshoq baholansa, “Yengiloyoq ayol” iborasi keskin salbiy konnotatsiyaga ega. Bu hodisa gender lingvistikasida double standard deb ataladi [3;142-b.], [4;154-b.].

Oiladagi gender rollarini ifodalovchi frazeologizmlar ham assimetriyani yaqqol ko‘rsatadi. O‘zbek tilidagi “Erkak uyning ustuni”, “Oila boshlig‘i, “Ro‘zg‘orning suyanchig‘i” birliklari erkakning yetakchi rolini ifodalasa, ayol “Uy Bekasi”, “O‘choq boshi egasi” sifatida tavsiflanadi. Ingliz tilidagi “Bread winner», “Head of the family”, “Housewife” birliklari ham aynan shu konseptual modelni aks ettiradi [2;175-b.], [15;109-b.]. Shuningdek, tashqi ko‘rinishga oid frazeologik birliklarda ham gender assimetriyasi kuzatiladi. O‘zbek tilidagi “Oydek yuz”, “Pariday go‘zal”, “Gulday qiz” kabi iboralar ayolning go‘zalligini ifodalasa, “Arslonday yigit”, “Tog‘dek yigit” kabi birliklar erkakning kuchi va salobatini tavsiflaydi. Ingliz tilidagi “As pretty as a picture”, “Beauty queen”, “Strong as an ox”, “Tall, dark and handsome” frazeologizmlarida ham xuddi shunday semantik tafovut kuzatiladi [4;181-b.], [13;135-b.].

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda erkak obrazi ko‘proq kuch, jasorat, yetakchilik va ishonchlilik bilan bog‘langan bo‘lsa, ayol obrazi go‘zallik, hissiylik, uy-ro‘zg‘or va axloqiy me’yorlar orqali tavsiflanadi. Bu esa frazeologik tizimda gender assimetriyasining tarixiy-madaniy omillar ta’sirida shakllanganligini tasdiqlaydi.

Xulosa. O‘tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda gender assimetriyasi izchil va tizimli xarakter kasb etadi. Har ikki tilning frazeologik fondida erkak va ayol obrazlari turli semantik mezonlar asosida konseptuallashtirilgan bo‘lib, bu holat jamiyatda tarixan shakllangan gender stereotiplarining til tizimida o‘z aksini topganligini ko‘rsatadi [5;143-b.].

Tahlillar natijasida ayol obrazini ifodalovchi frazeologik birliklarda salbiy baholash, hissiylik, sergaplik, go‘zallik va oilaviy vazifalarga urg‘u berilishi kuzatildi. Erkak obraziga oid birliklarda esa jasorat, kuch-qudrat, ishonchlilik, yetakchilik va mas’uliyat kabi ijobiy semantik belgilar ustunligi aniqlandi. Shuningdek, bir xil ijtimoiy xatti-harakatning erkak va ayolga nisbatan turlicha baholanishi, ya’ni, double standard hodisasi har ikki til frazeologik tizimida mavjudligi isbotlandi [6;201-b.]. Qiyosiy tahlil shuningdek, o‘zbek va ingliz frazeologiyasida umumiy patriarxal qarashlarning mavjudligi bilan bir qatorda, har bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlaridan kelib chiqadigan o‘ziga xos farqlar ham mavjudligini ko‘rsatdi. O‘zbek frazeologiyasida oilaviy munosabatlar va axloqiy qadriyatlar ustuvor bo‘lsa, ingliz tilidagi frazeologik birliklarda shaxsiy mustaqillik va individual xulq-atvor bilan bog‘liq gender baholari ko‘proq uchraydi [7;168-b.].

Mazkur tadqiqot natijalari gender lingvistikasi, qiyosiy frazeologiya, lingvokulturologiya hamda tarjimashunoslik yo‘nalishlarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Xususan, genderga xos frazeologik birliklarning tarjima jarayonidagi ekvivalentlik darajasini, ularning pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [2;214-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Lakoff R. Language and Woman's Place. New York, Harper & Row, 1975, 83 p.

(2). Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. 5th ed. London, Routledge, 2013, 512 p.

(3). Cameron D. Feminism and Linguistic Theory. 2nd ed. London, Macmillan Press Ltd., 1992, 248 p.

(4). Coates J. Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language. 3rd ed. London, Routledge, 2004, 228 p.

(5). Mills S. Language and Sexism. Cambridge, Cambridge University Press, 2008, 192 p.

(6). Кунин А.В. Курс английской фразеологии современного английского языка. Москва, “Высшая школа”, 1984, 336 с.

(7). Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. Избранные труды. Лексикология и лексикография. Москва, “Наука”, 1977, с. 140–161.

(8). Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва, Школа «Языки русской культуры», 1996, 288 с.
(9). Маслова В.А. Лингвокультурология. Москва, “Академия”, 2001, 208 с.
(10). Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке. Москва, “Флинта”, 2005, 416 с.
(11). Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. New York, Harcourt, Brace and Company, 1921, 258 p.
(12). Whorf B.L. Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf. Cambridge, MA: MIT Press, 1956, 278 p.
(13). Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologiyasi masalalari. Toshkent, “Fan”, 1999, 216-bet.
(14). Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992, 378-bet.
(15). Mahmudov N. Til va madaniyat. Toshkent, “Ma'naviyat, 2009, 176-bet.
(16). Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, “Fan”, 2005, 232-bet.
(17). Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent, “Sharq”, 2008, 286-bet.
(18). Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2010, 464-bet.
(19). Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning uslubiy xususiyatlari. Toshkent, “Fan”, 2006, 184-bet.
(20). O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jildlik, Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006.

Xakimova Dildora Ikromovna (Alfraganus university, Filologiya fakulteti, f.f.f.d., dotsent;
e-mail:lucky dilya86@mail.ru; ORCID:0009-0004-6676-5388)

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA EVOLUSTIYASI VA TRANSLINVAL DISKURS

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli kommunikatsiyaning rivojlanishi, translingvizm bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda raqamli muhitda ingliz, o‘zbek va rus tillarining integratsiyasi tahlil qilinadi. Gibrid til birliklari, yoshlar jargoni va translingval diskursning raqamli platformalardagi namoyon bo‘lishi yoritiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt va gibrid kommunikativ modelning zamonaviy kommunikatsiyadagi roli ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot raqamli kommunikatsiya va translingvizmning yoshlar nutqi hamda raqamli diskurs rivojiga ta’sirini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli kommunikatsiya, translingvizm, translingval diskurs, gibrid kommunikatsiya, yoshlar jargoni, kod almashinuvi, til gibridizatsiyasi, sun’iy intellekt, raqamli diskurs.*

Хакимова Дилдора Икромовна (д.ф.ф.н., доцент факультета филологии, Alfraganus University)

ЭВОЛЮЦИЯ ЦИВРОВОЙ КОММУНИКАЦИИ И ТРАНСЛИНГВАЛЬНЫЙ ДИСКУРС

Аннотация. *В статье рассматриваются развитие цифровой коммуникации, ее взаимосвязь с транслингвизмом и интеграция английского, узбекского и русского языков в цифровой среде. Анализируются гибридные языковые единицы, молодежный жаргон и проявление транслингвального дискурса на цифровых платформах. Также рассматривается роль искусственного интеллекта и гибридных коммуникативных моделей. Результаты показывают влияние цифровой коммуникации и транслингвизма на молодежную речь и развитие цифрового дискурса.*

Ключевые слова: *цифровая коммуникация, транслингвизм, транслингвальный дискурс, гибридная коммуникация, молодежный жаргон, переключение кодов, гибридизация языка, искусственный интеллект, цифровой дискурс.*

Khakimova Dildora Ikromovna (Associated professor (PhD) of Philological Faculty, Alfraganus University)

EVOLUTION OF DIGITAL COMMUNICATION AND TRANSLINGUAL DISCOURSE

Annotation. *This article examines the development of digital communication, its relationship with translingualism, and the integration of English, Uzbek, and Russian in the digital environment. It focuses on hybrid language units, youth jargon, and translingual discourse on digital platforms. The role of artificial intelligence and hybrid communicative models in contemporary communication is also discussed. The findings highlight the influence of digital communication and translingualism on youth speech and digital discourse.*

Keywords: *digital communication, translingualism, translingual discourse, hybrid communication, youth jargon, code-switching, language hybridization, artificial intelligence, digital discourse.*

Kirish (Introduction) Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda raqamli kommunikatsiya insonlar, ijtimoiy institutlar va tashkilotlar o‘rtasidagi axborot almashinuvining asosiy shakllaridan biriga aylandi. Raqamli kommunikatsiya deganda raqamli texnologiyalar, internet platformalari hamda elektron qurilmalar

orqali axborotni yaratish, uzatish, qabul qilish va qayta ishlash jarayoni tushuniladi[1]. Bugungi kunda elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, bloglar va multimedia platformalari insonlarning kundalik muloqot faoliyatining ajralmas qismiga aylangan. Raqamli kommunikatsiya nafaqat texnologik hodisa, balki zamonaviy ijtimoiy, madaniy va lingvistik taraqqiyotning muhim omili sifatida ham baholanadi. Tadqiqotchilar ushbu jarayonni an'anaviy bilingvizm modelidan dinamik translingvizm modeliga o'tish bosqichi sifatida baholaydilar. Ayniqsa, ingliz, rus va o'zbek tillarining raqamli muhitdagi o'zaro ta'siri, kod almashinuvi va til resurslarining integratsiyasi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqotda raqamli kommunikatsiya evolutsiyasi va translingval diskurs xususiyatlarini o'rganish uchun majmuali lingvistik va sotsiolingvistik metodlar majmuasidan foydalanildi. Empirik baza sifatida Telegram, TikTok, Instagram hamda geyming platformalaridan to'plangan 500 dan ortiq translingval matnlar va raqamli jargonik birliklar tanlab olindi. Materiallarni tahlil qilishda *Computer-Mediated Communication (CMC)* nazariyasiga tayanib, deskriptiv, diskursiv hamda leksik-semantik tahlil usullari orqali kodlar almashinuvi (*code-switching*) va gibrid so'z yasalishi tadqiq etildi. Shuningdek, chet tillardan o'zlashtirilgan jargonlarning o'zbek tili grammatikasiga moslashuvini aniqlashda morfosintaktik va derivatsion tahlil qo'llandi. Olingan natijalar sotsiolingvistik kuzatuv ma'lumotlari bilan umumlashtirilib, ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'zbekistonlik tadqiqotchilar Sh.S. Qudratxo'jayev va X.M.Do'stmuhammad[2] raqamli kommunikatsiya jarayonlarini o'rganib, uni milliy axborot makonining yangi bosqichi sifatida baholab, uning ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli media integratsiyasi orqali jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi ahamiyatini qayd etadilar. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy ilmiy maktablarda raqamli kommunikatsiyaning texnik-konseptual va evolyutsion bosqichlari (A.V.Sokolov, Y.A.Zulyar, A.N.Grebnev, M.Kastels[3], Y.van Deyk) chuqur ishlab chiqilgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida (S.Mo'minov, M.Ziyayeva, L.Adizova) ushbu jarayonlarning milliy tildagi leksik-semantik, sotsiolingvistik va diskursiv oqibatlari o'rganilmoqda. Raqamli olamda o'zbek tilining amal qilishi va translingval hodisalarni tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbek tilshunoslari Sh.Safarov va N.Mahmudov[4] tilning kognitiv va pragmatik imkoniyatlarini o'rganib, bir nutqiy situatsiyada har xil til birliklarining qo'llanishini muloqotning tabiiy ko'rinishi sifatida asoslab berishgan bo'lsa, O.Garsiya va Li Vey[5] esa translingvizm nazariyasini yaratib, uni ma'no hosil qiluvchi yagona va erkin lisoniy manba sifatida ishlatishini isbotlaganlar. S.Kanagaraja ushbu konsepsiyani yanada rivojlantirib, translingvizmni globallashuv hamda raqamli ortamda madaniyatlararo muloqotni ta'minlaydigan muhim kommunikativ strategiya deb baholagan.

Tahlil va natijalar. Ushbu bo'limda raqamli muloqot vositalari (Telegram, TikTok, Instagram, Facebook) evolyutsiyasi va ularning o'zbek muloqot madaniyatiga ta'siri, ko'ptillilik va til kontaktlari sharoitida shakllanayotgan translingval diskurs (muloqotda bir nechta tillarning dinamik va gibrid ravishda qo'llanilishi) bo'yicha to'plangan empirik materiallar tahlil qilinib, erishilgan ilmiy natijalar asosiy yo'nalish bo'yicha umumlashtirildi.

1. Kommunikatsiya kanallari evolyutsiyasi va formatlar transformatsiyasi. Raqamli kommunikatsiya rivojlanishi muloqot vositalarining tezligi, shakli va uzatilish xarakterini tubdan o'zgartirdi. Tahlillar natijasida muloqot evolutsiyasining 3 bosqichi va ulardagi lisoniy xususiyatlar ajratildi:

---

[1] Castells M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. Oxford, Blackwell Publishing, 2010, 597 p.
Van Dijk J. The Network Society. 3rd ed. London, Sage Publications, 2012, 320 p.

[2] Қудратхўжаев Ш.С. Оммавий коммуникация назарияси. Тошкент, "Ўзбекистон", 2019, 256 бет;
Дўстмуҳаммад Х.М. Замонавий журналистика ва ахборот макони. Тошкент, "Янги аср авлоди", 2021, 224 бет.

[3] Соколов А.В. Общая теория социальной коммуникации. Учебное пособие, Санкт-Петербург, изд-во Михайлова В.А., 2002, с. 185; Зуляр Ю.А. Массовая коммуникация в рекламе и связях с общественностью: учебное пособие. Иркутск, изд-во ИГУ, 2012, с. 112; Гребнев А.Н. Компьютерно-опосредованная коммуникация как форма социальной коммуникации. Известия РГПУ им. А.И.Герцена. 2008, № 76–1, с. 102; Castells M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. Oxford, Blackwell Publishing, 2010, 597 p.; Van Dijk J. The Network Society. 3rd ed. London, Sage Publications, 2012, 320 p.

[4] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Тошкент, "Akademnashr", 2006, 276 бет; Маҳмудов Н. Тил ва мулоқот. Тошкент, "Маънавият", 2013, 224 бет.

[5] García O., Wei L. Translanguaging: Language, Bilingualism and Education. London, Palgrave Macmillan, 2014. 165 p.; Wei L. Translanguaging as a Practical Theory of Language. Applied Linguistics. 2018, vol. 39, № 1, p. 9–30.

• Matnli (Text-based) bosqich (SMS, Forumlar, Email). Asosan, yozma nutq va an'anaviy adabiy grammatikaga tayangan asinxron muloqot.

• Gibrid-multimodal bosqich (Telegram, Instagram, TikTok): Matn, audioxabar, emodzi va videolarning sinxron uyg'unlashuvi.

Natija: Matn faqat harflardan emas, balki vizual belgilar bilan yaxlitlik hosil qilmoqda.

• Intellektual-interaktiv bosqich (Chatbotlar va AI platformalari). Inson va algoritm o'rtasidagi neyron tarmoqlarga asoslangan muloqot.

2. Raqamli ortamda lingvo-pragmatik va uslubiy o'zgarishlar. Raqamli muloqot muhitidagi evolutsion jarayonlar nutqning ixchamlashuvi hamda og'zaki va yozma nutq chegaralarining yo'qolishiga olib keldi.

• Axborot tejamkorligi va akronimlar. Vaqtni tejash va tezkor javob qaytarish ehtiyoji sababli qisqartmalar va tayyor iboralar ommalashdi: AFAIK (As far as I know–Bilishimcha), IMHO (In my humble opinion–Mening kamtarona fikrimcha), OMG (Oh my God – O'zbekcha: Dahshat/Astafeghfirullah o'rnida).

• Emodzi va stikerlarning paralingvistik funksiyasi. Raqamli muloqotda ohang va emotsiyani berish uchun vizual belgilar grammatik va pragmatik yuklamani o'ziga olmoqda: Matn oxirida qo'yilgan "🙏" (iltimos/rahmat), "🤝" (kelishdik/kelishuv) yoki "🤐" (indamay qolish/istehzo) emodzilari butun bir gapning o'rnini bosmoqda.

3. Raqamli kommunikatsiyada til kontaktlari va neologizatsiyalashuv. Raqamli texnologiyalar evolutsiyasi o'zbek tilining leksik tarkibiga global IT va mediaterminlarning shiddat bilan kirib kelishini va ularning lisoniy moslashuvini ta'minladi: Post /Storis – tarmoqqa joylangan xabar yoki vaqtinchalik media: *"Yangi hisobotni kanalga post qilib joyladim."; Lichka (DM)* – Shaxsiy, yopiq muloqot maydoni (Direct Message)*: "Batafsil ma'lumotni lichkaga yuborib qo'ydim."*

Raqamli kommunikatsiya davrida translingval diskursini quyidagicha tahlil qilish o'rinlidir:

1. Translingval gibridlashuv va morfosintaktik moslashuv. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, translingval diskursda tillar (o'zbek, ingliz, rus) shunchaki cheklangan alohida tizimlar sifatida emas, balki bir-biriga sinxron ravishda moslashuvchi yagona muloqot resursi sifatida namoyon bo'ladi.

• O'zbekcha fe'l-ko'makchilar orqali gibridlashuv: Chet tildagi asosiy ma'nodosh birlik o'zbek tilining grammatik karkasiga fe'llashish mexanizmi orqali biriktiriladi: Flex (ingl. maqtanmoq) – *Fleks qilmoq*; Cringe (ingl. uyatli holat) – *Krinj bo'lmoq*; Hate (ingl. nafrat) – *Heyt qilmoq / Heytlamoq:* "*Uning bugungi chiqishidan hamma krinj bo'ldi, keraksiz joyda fleks qilaveradi."*

• Ko'p tilli affiksatsiya (morfeval gibridlar). Bitta so'z tarkibida inglizcha ildiz, ruscha va o'zbekcha qo'shimchalarning aralashuvi: Cringeviy (*Cringe* + ruscha *-eviy* qo'shimchasi –uyatli, noqulay); Banlamoq (*Ban* + o'zbekcha *-la* fe'l yasovchisi –bloklamoq).

2. Kodlar tutashuvi (Code-Mixing) va stilistik moslashuvchanlik. Translingval diskursda so'zlashuvchilar guruhdagi ijtimoiy mavqeyini ko'rsatish va axborotni tezroq uzatish uchun kodlarni o'zaro aralashtiradilar: *Baza (Based)* ing.(*Based*), ma'nosi:inkor etib bo'lmaydigan, to'g'ri va asosli fikr: *Bizning jamiyatda bu baza.*

3. Raqamli ortamda translingvizm va multimodallik. Translingval diskurs faqat matnli birikmalar bilan cheklanib qolmay, raqamli belgi va vizual elementlar bilan yaxlit muloqot tizimini hosil qiladi.

• Emodzi va lingvistik gibridizatsiya. Inglizcha jargonlar o'zbekcha matn va xalqaro emodzilar bilan birga qo'llanilganda matnning emotsional yuklamasi ortadi: "*Bugungi uchrashuv juda toxic o'tdi* ☣️🤦, *boshqa bormayman."*

• Mem-diskurs. Global inglizcha mem-shablonlarga o'zbekcha matnlar va translingval jargonlarni joylashtirish orqali yangi madaniy kontekst yaratilmoqda (*POV, Sigma, Glow up*).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli kommunikatsiya evolutsiyasi va translingval diskurs muloqotni demokratlashtirib, iyerarxik masofani qisqartirdi hamda 1–2 ta gibrid so'z yoki xalqaro raqamli atamalar (sheyr qilmoq, layk bosmoq) orqali murakkab holatlarni tezkor ifodalash (axborot ekonomiyasi) imkonini berdi. Ushbu gibrid nutq yoshlar uchun o'z guruhiga mansublikni ifodalovchi ijtimoiy marker vazifasini o'tasada, doimiy tejamkorlik va uslubiy erkinlik adabiy o'zbek tili me'yorlariga, imlo hamda grammatikaga e'tiborsizlikni kuchaytirmoqda. Natijada bu jarayon avlodlar o'rtasida muloqot uzilishini keltirib chiqarib, yoshlarning rasmiy hamda badiiy-ekspressiv uslubda fikr bayon etish ko'nikmalarini susaytirmoqda.

Xulosa. Empirik kuzatuvlar yoshlar TikTok, Telegram va Instagram platformalarida o'z kommunikativ identikligini shakllantirish uchun translingval vositalardan keng foydalanishini ko'rsatadi. Til interfe-

rensiyasi va grammatik moslashuv natijasida *“post qildi”*, *“storiga qo‘ydim”, “reels tashladim”* kabi konstruksiyalar tezkor va kontekstga mos muloqotni ta’minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu kabi birliklar ham ingliz va o‘zbek tillari integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan va inson bir vaqtning o‘zida bir nechta tildan foydalanishni bugungi kungi muloqot uchun tabiiy holatdir. Ammo bu yunalishda yuzaga kelayotgan muammolardan biri o‘zbek tilining davlat tili sifatida sofligi va etnomadaniy identikligini saqlab qolishga urinish bo‘lsa, boshqa tomondan yoshlar bosh muallif tarzida namoyon bo‘layotgan jargon gibridizatsiyasining obyektiv jarayonidir.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, raqamli kommunikatsiya evolutsiyasi va translingval diskurs bir-birini to‘ldiruvchi hodisalardir. Ular raqamli platformalarda yoshlar tilining funksional rivojlanishi hamda yangi gibrid til birliklarining shakllanishini aks ettiradi. Mazkur tadqiqotda gibrid kommunikativ model raqamli kommunikatsiya va translingval birliklarni tahlil qilishning konseptual asosi sifatida qabul qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abbate J. Inventing the Internet. Cambridge, MA: MIT Press, 1999, 264 p.

(2). Castells M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. Oxford: Blackwell Publishing, 2010, 597 p.

(3). Cooley Ch. H. Social Organization: A Study of the Larger Mind. New York, Charles Scribner's Sons, 1909, 426 p.

(4). García O., Wei L. Translanguaging: Language, Bilingualism and Education. London, Palgrave Macmillan, 2014, 165 p.

(5). Hafner K., Lyon M. Where Wizards Stay Up Late. The Origins of the Internet. New York, Simon & Schuster, 1996, 304 p.

(6). Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. New York, New York University Press, 2006, 308 p.

(7). Markoff J. Entrepreneurs See a Web Guided by Common Sense. The New York Times. 2006, November 12, p. 1–3.

(8). O‘Reilly T. What Is Web 2.0: Design Patterns and Business Models for the Next Generation of Software. O‘Reilly Media. 2005, p. 17–37.

(9). Schmandt-Besserat D. How Writing Came About. Austin: University of Texas Press, 1996, 240 p.

(10). Van Dijk J. The Network Society. 3rd ed. London, Sage Publications, 2012, 320 p.

(11). Wei L. Translanguaging as a Practical Theory of Language. Applied Linguistics. 2018 vol. 39, № 1, p. 9–30.

(12). Дўстмуҳаммад Х.М. Замонавий журналистика ва ахборот макони. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2021, 224 бет.

(13). Маҳмудов Н. Тил ва мулоқот. Тошкент, “Маънавият”, 2013, 224 бет.

(14). Қудратхўжаев Ш.С. Оммавий коммуникация назарияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019, 256 бет.

(15). Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Тошкент, “Akademnashr”, 2006, 276 бет.

Qulto‘rayeva Sarvinoz Bahodir qizi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti; qulturayevasarvinas@gmail.com)

TOPONIMLARDA XALQNING ETNIK TARIXI VA ETNOMADANIY XOTIRASI

Annotatsiya. *Toponimik tizimda xalqning tarixiy-etnik jarayonlari va ma’naviy dunyoqarashi o‘zaro sintezlashgan holda yaxlit bir tizimni tashkil etadi. Makon nomlarining lisoniy xususiyatlarini tahlil qilish orqali etnosning shakllanish bosqichlarini, diniy-mifologik tasavvurlarini hamda xo‘jalik yuritish madaniyatini aniq aniqlash mumkin. Ushbu maqolada shu haqida fikrlar yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *toponimik tizim, tarixiy-etnik jarayonlar, makon nomlari, etnos shakllanishi, diniy-mifologik tasavvurlar;*

ЭТНИЧЕСКАЯ ИСТОРИЯ И ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ ПАМЯТЬ НАРОДА В ТОПОНИМАХ

Аннотация. *Топонимическая система представляет собой целостную систему, в которой историко-этнические процессы и духовное мировоззрение народа синтезированы и взаимосвязаны. Посредством анализа лингвистических особенностей названий географических объектов можно точно определить этапы формирования этноса, его религиозно-мифологические представления, а также особенности хозяйственной культуры. В данной статье рассматриваются эти вопросы.*

Ключевые слова: *топонимическая система, историко-этнические процессы, названия географических объектов, формирование этноса, религиозно-мифологические представления*.

THE ETHNIC HISTORY AND ETHNOCULTURAL MEMORY OF THE PEOPLE IN TOPONYMS

Annotation. *In the toponymic system, the historical and ethnic processes of a people and their spiritual worldview are synthesized with one another, forming an integrated system. By analyzing the linguistic features of place names, it is possible to identify the stages of ethnos formation, religious and mythological beliefs, as well as the culture of economic activity. This article discusses these aspects in detail.*

Keywords: *toponymic system, historical and ethnic processes, place names, ethnos formation, religious and mythological beliefs.*

Kirish. Toponimlarda xalqning etnik tarixi, birinchi navbatda, uning dinamik va turg‘un qatlamlarida namoyon bo‘ladi. Etnos shakllanish va hududiy o‘zlashtirish bosqichlarida o‘z tarkibidagi urug‘, qabila va tarmoqlarning nomlarini geografik obyektlarga muhrlab qoldiradi. Bu jarayon toponimik xotira tizimida faqatgina o‘tmish faktini qayd etishni emas, balki millatning shakllanish xaritasi va etnomadaniy identifykatsiyasini lisoniy ongda qayta tiklab turuvchi tirik manba vazifasini bajarishni ko‘zda tutadi.

Muayyan hududda asrlar davomida yashab kelgan xalqning etnogenezi, qabilaviy tarkibi, migratsion harakatlari va boshqa etnoslar bilan bo‘lgan lisoniy-madaniy aloqalarini o‘zida turg‘un saqlagan o‘ziga xos onomastik arxivlardan biri sifatida toponimik xotirani ko‘rsatish mumkin. U makonni nomlash jarayonida etnik jamoaning tarixiy kechmishi va subetnik bo‘linishlarini lisoniy qoliplarga ko‘chirish hamda ushbu kodlarni avlodlararo intellektual ko‘prik sifatida saqlash mexanizmi hisoblanadi. Toponimik xotiraning tarixiy-falsafiy genezisi antik tafakkurda nom va mohiyat munosabati muammosi bilan bog‘liq bo‘lib, Aflotunning ism (nom)ning “tabiiy” yoki “kelishilgan”ligi haqida bahs yuritiladi [1]. Bu yondashuv shuni anglatadiki, nomlash harakati tasodifiy belgilar yig‘indisi emas, balki dunyoni tartiblash va bilishning muhim usulidir. Shu ma’noda, joy nomlari ham makonni ijtimoiy ongda saqlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qadimgi yunon va rim manbalarida etnonim va toponimlarning bir-biriga o‘tishi juda keng ko‘lamda uchraydi. Manbalarda qayd etilishicha, jumladan, Strabon “Geografiya” asarida o‘nlab qabila nomlari bilan joy nomlarini birgalikda qayd etadi [2]. Antik merosning keyingi bosqichi Arastuning “Poetika” va “Ritorika”sida nomlashning tasniflovchi vazifalari bilan boyitiladi.

O‘rta asr turkiy yozma an’anasida M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari toponim va etnonim aloqalarini tahlil qilish uchun beqiyos manba hisoblanadi. Olim qabila nomlarini til faktlari bilan bog‘lab, joy nomlari va etnik birliklarning tarqalishini lingvistik dalil orqali ko‘rsatadi. Bu esa etnomadaniy xotiraning “til xaritasi”ni yuzaga chiqaradi. Jumladan, M.Koshg‘ariy turkiy qabilalar yashash hududlari, yaylov-qishlov yo‘llari, daryo va tog‘ nomlari bilan birga tilning dialekt farqlari keltiriladi.

XVII–XIX asrlarda yuzaga kelgan tarixiy-filologik yondashuv hamda millat konsepsiyasining yuksalishi toponimlarni xalqning etnik tarixi va etnomadaniy xotirasini muhrlagan eng ishonchli lisoniy “hujjat” sifatida ilmiy muomalaga olib kirdi. Ayniqsa, XIX asr Yevropa onomastikasida yuzlab regional lug‘atlarning tuzilishi va ularda minglab joy nomlari etimologiyasining tadqiq etilishi sohaning mustaqil fan sifatida institutlashganidan dalolat beradi.

Bu davrda rivojlangan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik doirasida toponimlarning xalq etnik o‘tmishi va madaniy qatlamlarini tiklashdagi o‘rni fonetik moslik, morfologik qayta ishlash va semantik motivatsiya mezonlari orqali fundamental asoslandi. Qiyosiy-tarixiy metod yordamida yaratilgan etimologik lug‘atlar toponimik xotirani tizimli tahlil qilish imkonini yaratdi. Xususan, M.Vasmer [3] sharqiy slavyan va unga tutash hududlardagi areal toponimik qatlamlarni aniq statistik ko‘rsatkichlar bilan tahlil qilib, til egalarining etnik migratsiyasi hamda qadimiy etnomadaniy aloqalarini xaritlashtirish mumkinligini amalda isbotladi.

M.Xolbvaxsning “Jamoaviy xotira” [4] konsepsiyasi toponimlarda etnomadaniy xotirani tushuntirishda tayanch nuqtalardan biridir. Unga ko‘ra, ko‘chish, suv taqchilligi, urush yoki ma’muriy qayta taqsimot kabi hodisalar natijasida eski nomlar yangi joyga ko‘chib o‘tishi yoki aksincha, yangi nomlar eski joyga yopishishi mumkin. Bu hodisa “toponimik migratsiya” sifatida izohlanadi.

Pierre Nora [5] toponimni ramziy markaz sifatida tahlil qiladi. Olim modernizatsiya va urbanizatsiya jarayonida *jonli xotira* zaiflashganda, jamiyat xotirani belgilarga, marosimlarga va nomlarga “tashqi” tarzda joylaydi. Qayd etish joizki, toponimlar ana shunday tashqi xotira konteyneridir. Masalan, tarixiy shaxs, voqea yoki qabila nomi bilan atalgan ko‘cha, qishloq, tepa nomlari vaqt o‘tishi bilan xotira mazmunini yo‘qotishi mumkin, biroq nomning mavjudligi o‘zi xotirani qayta faollashtirish imkonini saqlab qoladi.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy ilmiy yondashuvlarda toponimlarni etnomadaniy xotira sifatida o‘rganish “tanqidiy toponimiya” va “lingvistik landshaft” paradigmalarida kengaymoqda. Tanqidiy toponimiya joy nomlarini hokimiyat, ideologiya va xotira siyosati bilan bog‘liq diskurs sifa-

tida ko‘radi. Lingvistik landshaft esa yozuvlar, belgilar va xaritalardagi til ko‘rinishlarini ijtimoiy identitet indikatoriga aylantiradi. Bugungi kunda turli institutlarning nomlashda standartlashtirish, transliteratsiya, brending va turistik markirovka jarayonlari toponimning etnik xotira qatlamiga ta’sir ko‘rsatadi. Misol sifatida, ayrim hududlarda tarixiy nomning tiklanishi etnik-madaniy merosni kuchaytirsa, boshqa holatda “yangi” nomlar iqtisodiy investitsiya yoki ideologik ramz sifatida tanlanadi. Natijada eski nomlar og‘zaki muhitda yashirin yashashda davom etadi.

Tahlil va natijalar. Tilshunoslikda makon nomlari nafaqat geografik koordinata, balki millatning tarixiy va madaniy kodlarini o‘zida muhrlagan lisoniy belgilar tizimi sifatida baholanadi. Chunki etnos o‘zi yashagan hududdagi obyektlarni nomlar ekan, unga o‘z dunyoqarashi, o‘zligi va mifopoetik tafakkuridan kelib chiqib yondashadi. Natijada toponimlar to‘plami muayyan xalqning etnomadaniy xotira omboriga aylanadi. V.Nikolaysen Shotlandiya joy nomlarini tadqiq etar ekan, toponimlarni jamiyatning o‘tmishdagi intellektual va ijtimoiy faoliyatining lisoniy xaritasi sifatida baholab: “Toponimlar – xalqning o‘z o‘tmishini til yordamida qayta tiklash va makonni o‘zlashtirish borasidagi eng barqaror xotira vositasidir”[6], – deya izohlaydi. V.Nikolaysenning fikriga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, toponimlar etnosning o‘zlikni anglash ehtiyojidan kelib chiqadi. Joy nomlari til tizimida jamiyatning tarixiy-madaniy evolyutsiyasiga hamohang ravishda qayta ma’no kasb etuvchi lisoniy fenomen hisoblanadi. Etnos o‘zining ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy taraqqiyoti davomida o‘zi yashayotgan makon nomlarini doimiy ravishda o‘zining yangi qadriyatlar tizimi prizmasidan o‘tkazib, qayta anglaydi va lisoniy faoliyatida faollashtiradi. Toponimik xotiraning bunday tabiati joy nomlarining mental makonda qayta shakllanish mexanizmini belgilaydi. M.V. Golomidova toponimik nominatsiyaning kognitiv va dinamik tabiatini asoslab, joy nomlari inson tomonidan makonni o‘zlashtirish va uni madaniy-ijtimoiy jihatdan kodlashtirish jarayonida nafaqat yorliq vazifasini bajaradi, balki subyektning kognitiv faoliyati natijasida doimiy ravishda yangi semantik va interpretatsion ma’nolar bilan boyib boruvchi mental tuzilmadir sifatida baholaydi [7]. Demak, har bir tarixiy davrda til egalari toponimlarni o‘zlarining dolzarb etnomadaniy ehtiyojlaridan kelib chiqib, ongli ravishda qayta kodlaydilar.

Ma’lum bir hududda aholining uzoq vaqt davomida yashashi va xo‘jalik yuritishi natijasida o‘ziga xos joy nomlari tizimi shakllanadi. Geografik nomlar, qayd etib o‘tilganidek, o‘zi paydo bo‘lgan davrning ijtimoiy hayoti, til xususiyatlari va tarixiy voqealari haqida aniq ma’lumot beruvchi jonli manba hisoblanadi. Shu bois ham onomastika ilmida etnosning o‘tmishi va madaniyatini o‘rganishda toponimlarga birlamchi tarixiy hujjat sifatida qaraladi. Bu borada professor S.Qorayevning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: “Joy nomlari chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jamiyat tarixida bo‘lib o‘tgan xilma-xil voqea-hodisalar joy nomlarida muhrlanib qolgan” [8]. Olim tomonidan ilgari surilgan bu qarashlar joy nomlarining mohiyatini to‘g‘ri anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki toponimlar xalqning asrlar davomida bosib o‘tgan hayot yo‘li, tarixiy xotirasi va ma’naviy dunyosining tildagi ifodasidir. S. Qorayev ko‘rsatib o‘tgan to‘rtta muhim jihatni quyidagicha izohlash mumkin:

• **Toponimlarda etnomadaniy xotira va etnik tarix namoyon bo‘lishining asosiy omillari.**

• **Ilmiy ahamiyat.** Joy nomlari yozma manbalarda saqlanmagan qadimgi urug‘-qabilalar va til xususiyatlarini aniqlovchi birlamchi manbadir.

• **Siyosiy ahamiyat.** Toponimlar etnosning muayyan geografik makonda asrlar davomida yashab kelayotganini va u yerga bo‘lgan tarixiy huquqini lisoniy jihatdan isbotlaydi.

• **Amaliy ahamiyat.** Geografik nomlar xalqning atrof-muhit, suv va yer bilan bog‘liq kundalik xo‘jalik hamda iqtisodiy munosabatlarini aks ettiradi.

• **Tarbiyaviy ahamiyat.** Joy nomlaridagi afsona va tarixiy voqealar avlodlarda ajdodlar merosiga nisbatan faxr va hurmat tuyg‘usini shakllantiradi.

Sho‘rchi tumani toponimiyasi misolida olinadigan bo‘lsak, hududdagi mahalla va qishloq nomlari olim aytgan tarixiy va ilmiy ahamiyatni yaqqol ko‘rsatib beradi. Masalan, tumandagi *Baxshitepa* qishlog‘i nomining lisoniy tadriji qadimgi sanskrit tilidagi diniy tushunchalardan tortib, keyingi davrlardagi kotiblik, ma’muriy amaldorlik hamda hozirgi tilimizdagi badihago‘ylik va shamanlik kabi xilma-xil ma’naviy-madaniy qatlamlarni o‘zida jamlagan. Shuningdek, forscha asosga ega bo‘lgan *Obishir* nomi suvining tarkibi va sifatiga ko‘ra *sut suv* yoki *sutli buloq* ma’nosini anglatib, mahalliy aholining tabiat obyektlariga bergan amaliy va baholovchi xususiyatini ifodalaydi. Tumandagi *Oqtumshuq* toponimi esa hududning o‘ziga xos geografik tuzilishini, ya’ni, yirik va baland do‘nglikning qirrali tomonini anglatib, xalqning makonni nomlashdagi aniq mantiqiy va tabiiy mezonlarini ko‘rsatadi. Bundan ko‘rinadiki, joy nomlarining ilmiy va amaliy tomoni til tarixini, xalqning qadimgi urug‘-qabilaviy tarkibini va ko‘chib yurish yo‘nalishlarini aniqlashda yordam bersa, ularning tarbiyaviy jihati ajdodlardan qolgan moddiy va ma’naviy merosni asrab-avay-

lashga, yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Binobarin, jamiyat hayotidagi har bir muhim burilish va tarixiy voqea joy nomlari asosida o‘rganilsa, xalq etnik tarixining bizgacha yetib kelmagan ko‘plab sahifalarini aniq lisoniy dalillar yordamida qayta tiklash imkoniyati tug‘iladi.

Xalqning etnomadaniy xotirasida chuqur iz qoldirgan avliyolar, qadamjolar hamda mifologik tushunchalar joy nomlarida muhrlanadi. Xususan, tadqiqotmiz obyekti hisoblangan Sho‘rchi tumani toponimik manzarasida uchraydigan *Sovjironbobo* ziyoratgohi turg‘un xalq e’tiqodi va avliyolarga bo‘lgan hurmatning lisoniy in’ikosidir. Tumanidagi *Moylixona* qishlog‘i nomining tarkibiy asosini tashkil etuvchi *moyli/boyli* komponenti etnik jihatdan quyi Qashqadaryo mang‘itlari va Qashqadaryoning o‘rta oqimi (Qamashi) saroylari tarkibidagi boyli urug‘i nomi bilan bevosita bog‘lanadi. Nominatsion tamoyilga ko‘ra, mazkur etnotoponim aynan boyli urug‘i vakillari muqim yashaydigan, ijtimoiy va madaniy jihatdan shakllantirilgan ovulni, ularning etnik makonini anglatuvchi lisoniy birlik sifatida namoyon bo‘ladi [9]. Bunday etnotoponimik qatlamlarning shakllanish qonuniyatlari umumfilologik planda antik va mifopoetik qatlamlarga borib taqaluvchi *Tamshush* singari toponimlar bilan uzviy aloqadorlikka ega. Zero, Moylixona singari etnotoponimlar jamiyatning keyingi ijtimoiy-tarixiy, urug‘-qabilaviy bo‘linish bosqichlari hamda hududiy o‘zlashtirish jarayonlarini muhrlagan bo‘lsa, Tamshush tipidagi toponimlar xalqning qadimgi ma’naviy olami, diniy tasavvurlari va muqaddaslik haqidagi mifologek qarashlari natijasida yuzaga kelgan onomastik birliklardir. Toponimik tizimdagi bunday dixotomiya, ya’ni, bir tomondan ibtidoiy mifologik tafakkur mevasi bo‘lgan qadimgi onomastik birliklar, ikkinchi tomondan esa aniq tarixiy-etnik jarayonlarni aks ettiruvchi urug‘-aymoq nomlari o‘zaro sintezlashgan holda, muayyan makonning yaxlit etnik manzarasini, xalqning ibtidoiy e’tiqodidan tortib keyingi ijtimoiy transformatsiyalarigacha bo‘lgan rivojlanish tarixini til faktlari vositasida namoyish etadi.

Xalq ma’lum bir joyni uning relyefi, iqlimi yoki tabiati asosida nomlar ekan, o‘z tilining ichki metaforik imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Obyektning geografik shaklini an’anaviy dunyoqarash prizmasida ma’lum bir belgilarga o‘xshatish, masalan, relyef tuzilishini vizual jonlantirish asosida yuzaga kelgan *Oqtumshuq* oykonomi yoki fauna olami orqali makonni simvollashtiruvchi *Laylakxona* mikrotomonimi Sho‘rchi tumani aholisi tafakkurning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, obyektning tabiiy xususiyatiga emotsional-akustik baho berish natijasida shakllangan, tabiat hodisalarini lisoniy ongga ko‘chirgan *Shaldiroq* singari gidrotoponimik xarakterdagi nomlar ham etnosning atrof-muhitni lisoniy obrazlar vositasida his etish qobiliyatini to‘liq namoyon etadi. Ko‘rinadiki, hududiy onomastik birliklar avloddan avlodga o‘tish xususiyatiga ega bo‘lib, o‘tmish dunyoqarash va hududiy til tabiatini saqlovchi turg‘un lingvomadaniy tizim vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, “Geografik nomlar ma’lum tarixiy davrlarda paydo bo‘lgan. Ular tarixiy voqealarning xronologik dalilidir” [10]. Har bir tarixiy bosqich o‘zining nominatsion qonuniyatlari, xo‘jalik yuritish usullari va til xususiyatlari bilan toponimik tizimda yangi qatlamlarni yuzaga keltiradi. Bu jarayonda eskirgan yoki iste’moldan chiqqan nomlar ham butunlay yo‘qolib ketmay, balki tarixiy toponimik asos sifatida saqlanib qoladi. Hududdagi qadimiy qal’alar, tepaliklar yoki sug‘orish tizimlari bilan bog‘liq joy nomlari xalqning asrlar davomida ijtimoiy va moddiy faoliyati qay darajada rivojlanganini ko‘rsatuvchi jonli guvohdir. Mazkur geografik nomlarning xronologik ketma-ketligini lingvistik va tarixiy jihatdan tahlil qilish orqali ma’lum bir davrda vohada qaysi etnik guruhlar yetakchilik qilganini, ularning migratsiya yo‘nalishlarini hamda madaniy transformatsiyasini aniqlash mumkin. Shu bois toponimlarning paydo bo‘lish davrini to‘g‘ri belgilash, nafaqat til tarixini, balki har bir hududning umumiy etnik va ijtimoiy yilnomasini qayta tiklashda birlamchi xronologik dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Plato’s. Cratylus. USA: Printed in the United Kingdom at the University Press, Cambridge, 2003, 194 p.

(2). Strabonis. Geographica. Volumen tertium. Lipsiae, 1904, 485 p.

(3). Vasmer M. Russisches etymologisches Wörterbuch. In 3 Bänden. Heidelberg: Carl Winter Universitätsverlag, 1953, 1088 s.

(4). Halbwachs M. La mémoire collective. Préface de Jean Duvignaud; Introduction de J. Michel Alexandre. – 2e éd. revue et augmentée. Paris: Presses Universitaires de France, 1968, 204 p.

(5). P.Les Lieux de mémoire. T. 1, La République. Paris: Gallimard, 1984, 674 p.

(6). Nicolaisen W. Scottish Place – Names, Their Study and Significance. London, Batsford Ltd, 1976, 210 p.

(7). Голомидова М.В. Искусственная номинация в русской ономастике. Урал. гос. пед. ун-т. Екатеринбург, 1998, с. 140–176.

(8). Кораев С. Узбекистон вилоятлари топонимлари. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005, 4-бет.

(9). Турсунов С. Сурхондарё вилояти топонимлари. Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008, 57-бет.

(10). Аюбов А.Р. Топонимы как ценное наследие культуры. Номаи донишгоњ учёные записки. Scientific notes, № 4(57), 2018, с. 53.

Jumaniyazova Dildora Xudoyorovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi; dildora030894 @ gmail.com)

QO‘ZI DAVLATNING NAZMDA TROPLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Annotatsiya. *Maqolada Qo‘zi Davlatning “Ko‘ngil chiroyi” to‘plamidagi g‘azallar misolida shoirning nazmda troplar – metafora, metonimiya va sinekdoxadan foydalanish mahorati lingvopoetik va semantik-funksional jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, muallifning individual uslubiga xos bo‘lgan ma’no ko‘chishlarining badiiy-estetik ta’sirchanligi hamda emotsional-konnotativ vazifalari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *troplar, metafora, metonimiya, sinekdoxa, lingvopoetika, g‘azal, individual uslub, ma’no ko‘chishi, estetik vazifa.*

МАСТЕРСТВО КОЗИ ДАВЛАТА В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ТРОПОВ В ПОЭЗИИ

Аннотация. *В статье с лингвопоэтической и семантико-функциональной точек зрения проанализировано мастерство использования тропов – метафоры, метонимии и синекдохи в поэзии Кози Давлата на примере его сборника «Конгил чиройи». Также раскрыты художественно-эстетическая выразительность и эмоционально-коннотативные функции переносных значений, характерные для индивидуального стиля автора.*

Ключевые слова: *тропы, метафора, метонимия, синекдоха, лингвопоэтика, газель, индивидуальный стиль, перенос значения, эстетическая функция.*

KOZI DAVLAT’S MASTERY OF USING TROPES IN POETRY

Annotation. *The article analyzes the skill of using tropes – metaphor, metonymy, and synecdoche – in Qozi Davlat's poetry from a linguapoetic and semantic-functional perspective, based on his poetry collection "Kongil chiroyi". The artistic-aesthetic impact and emotional-connotative functions of figurative expressions specific to the author's individual style are highlighted.*

Keywords: *tropes, metaphor, metonymy, synecdoche, linguapoetics, ghazal, individual style, figurative meaning, aesthetic function.*

Kirish. Badiiy matnning estetik qimmatini, ifodalilik va ekspressivligini oshirishda mazmuniy ko‘chimlar – troplar tizimi yetakchi o‘rin tutadi. Troplar semantik tabiatiga ko‘ra, miqdoriy (*giperbola, meyozis*) hamda sifatiy (*metafora, metonimiya, sinekdoxa, ironiya*) ko‘chishga asoslangan turlarga ajratiladi [15; 29–30-b.]. Qadimgi grek, hind va rim ritorikasida asoslangan ushbu tasviriy vositalar, dastlab, morfologik hodisa (figuralar esa sintaktik hodisa) sifatida farqlangan bo‘lsa [2;178-b.], keyinchalik rus va Yevropa tilshunosligida (A.A.Potebnya, A.N.Veselovskiy, J.Maruzo, S.Ulman, L.A.Bulaxovskiy) hosila ma’no hosil bo‘lish mezonlari asosida turlicha tasniflangan [4;5;8;12;14]. O‘zbek tilshunosligida R.Qo‘ng‘irov troplarni paradigmatik, uslubiy figuralarni esa sintagmatik hodisalar sifatida tizimlashtirgan [6;81-b.].

Badiiy nutqda eng faol qo‘llanuvchi trop turi *metafora* (mumtoz poetikada *istiora*) yashirin o‘xshatish va aloqadorlikka tayanadi [3;11-b.]. Aristoteldan boshlangan ushbu tadqiq yo‘nalishi uzoq davom etgan sof ritorik va stilistik chegara qolipidan chiqib [1;3-b.], bugungi kunda lingvistik va xususiy-muallif metaforalari hamda ularning mazmuniy ko‘rinishlari (*oddiy, personifikatsiya, sinesteziya*) kesimida o‘rganilmoqda [9;10-b.]. Shuningdek, aloqadorlikka asoslanuvchi *metonimiya* (mumtoz poetikada *majoz*) va uning alohida yoki tutash shakli bo‘lmish *sinekdoxa* ko‘chimlari badiiy tasvir imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim omillardir [7;13-b.].

Ko‘rinadiki, badiiy ko‘chimlarning umumiy nazariy va evolyutsion asoslari jahon hamda o‘zbek tilshunosligida atroflicha yoritilgan bo‘lsa ham, ularning muayyan ijodkor individual uslubidagi pragmatik va estetik imkoniyatlarini, xususan, Qo‘zi Davlat – Davlatyor nazmiy merosidagi semantik-funksional tabiatini maxsus tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bizning ushbu maqolamizdan ko‘zlangan maqsad shoir she’riyatida qo‘llangan mazmuniy ko‘chimlar – troplar tizimini, muallifning metafora, metonimiya va sinekdoxadan foydalanish mahoratini hamda ularning matn poetik tahlilidagi estetik va konnotativ vazifalarini ilmiy asoslashdan iboratdir.

Metodologiya. Ushbu maqolada Qo‘zi Davlatning 1999-yil Toshkentda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida chop qilingan “Ko‘ngil chiroyi” (shartli qisqartmada – KCh) to‘plamiga kiritilgan g‘azal va muxammaslari empirik material sifatida tanlab olingan. Maqolaning metodologik aso-

sini o‘zbek hamda jahon tilshunosligida shakllangan lingvopoetik, semantik va stilistik tahlil tamoyillari (R.Qo‘ng‘irov, M.Mirtojiyev, N.Mahmudov) tashkil etadi. Badiiy matnlar tarkibidagi mazmuniy ko‘chimlarni – troplarni aniqlash va baholashda lingvistik tavsif, tarkibiy-semantik hamda komponentlar tahlili usullaridan samarali foydalanilgan.

Maqolada ko‘chim turlari (metafora, metonimiya, sinekdoxa) nutqiy vositalarning paradigmatik va sintagmatik xususiyatlari berilgan nazariy tasniflar kesimida bosqichma-bosqich tahlilga tortilgan. Nazariy qarashlarni amaliy faktik materiallar bilan chog‘ishtirishda lingvostilistik qiyoslash hamda matnning emotsional-konnotativ vazifasini ochib beruvchi konteksual-funksional tahlil metodlari qo‘llangan. Bu esa shoir nazmida qo‘llangan obrazli ifodalarning semantik tarkibi va individual-mualliflik mahoratini obyektiv baholash imkonini beradi.

Turkiy tillar leksik tarkibining shakllanishi va taraqqiyotida boshqa tillar bilan bo‘lgan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy munosabatlar muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, arab va fors-tojik tillari bilan uzoq davom etgan til va madaniy aloqalar natijasida ushbu tillarga mansub ko‘plab leksik birliklar turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili lug‘at tarkibiga faol kirib kelgan. Shu jihatdan, arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tili leksikasining salmoqli qatlamini tashkil etib, uning lug‘aviy boyishida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur o‘zlashmalar nafaqat umumiste’mol leksikasida, balki fan, ta’lim, madaniyat, ijtimoiy-siyosiy hayot va turli terminologik tizimlarda ham keng qo‘llanib, o‘zbek tilining leksik-semantik taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, o‘zbek tilida G‘. Abdurahmonov, A.Qayumov, B.Eshonqulov kabi tadqiqotchilar ilmiy ishlarida arab va fors tillarining semantik qatlamdagi o‘rni o‘rganilgan. Qoraqalpoq tilshunosligida esa N.A.Baskakov, E.Berdimuratov, O. Bekbaulov kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida qoraqalpoq tiliga arab va fors tilidan kirgan so‘zlar tahlil qilingan. Q.Paxratdinov va A.Otemisov hammuallifligida nashr etilgan “Qaraqalpaq tilindegi shıǵısı arabsha sózler”, “Qaraqalpaq tilindegi shıǵısı parsısha sózler” kabi ilmiy asarlarida arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlar keltirilgan. Qoraqalpoq tilida ekologik terminlarning tarixiy kelib chiqishi ilmiy asosda to‘liq o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qoraqalpoq tilidagi arab va fors tillaridan o‘zlashgan ekologik terminlarning shakllanishi, lug‘aviy tarkibi, semantik xususiyatlari va qo‘llanish doirasini aniqlash maqsadida tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, etimologik hamda komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbalarini o‘zbek tilining izohli va terminologik lug‘atlari, ekologiyaga oid ilmiy adabiyotlar, shuningdek, arab va fors tillariga oid lug‘aviy manbalarda qayd etilgan birliklar tashkil etdi. Tavsifiy metod yordamida arab va fors tillaridan o‘zlashgan ekologik terminlarning hozirgi o‘zbek tilidagi shakli va qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilindi. Qiyosiy-tarixiy metod asosida terminlarning o‘zbek tiliga o‘zlashish jarayoni hamda ularning manba tillardagi shakl va ma’nolari bilan munosabati aniqlandi. Etimologik tahlil orqali ekologik terminlarning kelib chiqish manbasi belgilandi. Shuningdek, komponent tahlil vositasida ayrim terminlarning tarkibiy qismlari va ularning semantik xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida o‘zlashgan terminlar mavzu va ma’no jihatidan guruhlashtirilib, ularning ekologiyaning turli yo‘nalishlariga mansubligi aniqlashtirildi. Olingan natijalar asosida arab va fors tillaridan o‘zlashgan birliklarning o‘zbek ekologik terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni ilmiy jihatdan yoritildi.

Tahlil va natijalar. Ekologik terminlarning tarixiy kelib chiqishi haqida so‘z yuritilganda, ularning etimologiyasiga alohida e’tibor qaratiladi. Lekin arab, fors tillaridan kirib kelgan so‘zlar davrlar o‘tishi bilan o‘z so‘zlik qatlamiga o‘tib, tub so‘zlar kabi qo‘llaniladi. Qoraqalpoq tilining lug‘at tarkibida tub so‘zlarimiz bilan bir qatorda arab, fors tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Arab tilidan o‘zlashgan ekologik terminlarga quyidagilar kiradi: *hawa, nur, tábiyat, násil, samal, boz (jer)* kabi birqator terminlar kiradi.

Hawa – bu atama arabcha “havoun” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, *“atmosfera, hawa, samal, klimat,hawa rayı”* kabi ma’nolarni anglatadi [1;559-b.]. Shuningdek, havo so‘zi qoraqalpoq tilida 4 xil ma’noda qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin: 1) rangsiz, ta’msiz, ko‘zga ko‘rinmaydigan, butun yer sharini qoplab turgan azot va kislorod kabi gazlar aralashmasidan iborat modda; 2) yer ustidagi havo bilan to‘lgan bo‘shliq; 3) osmon; 4) atmosferaning holati, ob-havo, iqlim.

Hawanıń ıǵallıǵı – havodagi suv bug‘ining miqdori. U maxsus psixrometr deb nomlanuvchi asbob bilan o‘lchanadi. Havodagi suv bug‘ining miqdori, ya’ni havoning namligi, havo haroratiga va namlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Tábiyat – inson ongi doirasidan tashqarida, olamning evolyutsion rivojlanishi natijasida paydo bo‘lgan, bizni o‘rab turgan dunyo. Bu atama arab tilidagi “tabiyatun” *“tábiyat, tábiyiy zatlar”* so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, “*dúnyadaǵı barlıq nárselerdiń hámmesi”* degan ma’noni anglatadi.

Násil – tirik organizmlarning o‘z belgilarini avlodga o‘tkazish xususiyati. *Násil* so‘zi arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, *“bir awladqa tiyisli”* degan ma’noni bildiradi. Nasl so‘ziga so‘z yasovchi affikslar qo‘shilishi orqali yangi ma’nodagi *násillik* so‘zi paydo bo‘lgan va bu ham atama sifatida qo‘llaniladi.

Samal – arab tilidagi “shimolun, shamalun” so‘zidan olingan bo‘lib, *“arqa tárep, arqadan esken samal”* degan ma’noni bildiradi. Havoning bir tomondan ikkinchi tomonga urilishi, harakatlanishi, ya’ni yel [2;34-b.].

Kebir termini arab tilidan olingan bo‘lib, qoraqalpoq tilida *“beti duzlı shor jer”* degan ma’noga ega. Kebir yerlarning tuproq qatlami sho‘r bo‘lganligi sababli, bunday yerlarda ekin unmaydi [3;36-b.].

Boz atamasi arab tilidan olingan bo‘lib, “islenbegen, egiske tayarlanbaǵan” degan ma’noni bildirgan. Turkiy tillarda bu so‘z “egin egilmey qalǵan jer” ma’nosida qo‘llaniladi [1;79-b.].

Qoraqalpoq tilida *“shól”* so‘zining sinonimi sifatida qo‘llanadigan *sahra* so‘zi ham arab tilidan olingan. Tabiat hodisalaridan birini anglatuvchi “sel” atamasi arabchada “saylun”, fors tilida esa “seyl” shaklida qo‘llanilgan. Arab tilida *“suw aǵımı”* ma’nosini bildiruvchi bu atama o‘zbek tilida “kuchli yomg‘ir va uning oqibatida yuzaga keladigan shiddatli suv oqimi” ma’nosini anglatadi [4;383-b.]. “Qoraqalpoq tilining izohli lug‘ati”da bu so‘zga quyidagicha izoh berilgan: “Sel – jawın, jańbır, jawın suwınan payda bolatuǵın aǵın suw” [5;197-b.]. Shuningdek, dehqonchilik ishlariga oid *zúráát* so‘zining kelib chiqishi ham arab tiliga borib taqaladi. Bu so‘z arab tilida “ziraatun” shakliga ega bo‘lib, *“egin, diyqanshılıq”* degan ma’nolarni anglatadi [1;148-b.].

Saratan atamasi ham kelib chiqishi jihatidan arab tilidan o‘zlashgan. Saraton o‘n ikki burjdan to‘rtinchisining nomidir. Hijriy yil hisobi bo‘yicha to‘rtinchi oy shunday ataladi va bu oy yozning eng issiq kunlariga to‘g‘ri keladi [1;377-b.].

Jabayı haywanlar – tabiatda insonning aralashuvisiz, ishtirokisiz hayot kechiruvchi hayvonlardir. Yovvoyi hayvonlar tabiatning ko‘rki, tabiatning bizga bergan in’omi, ajralmas bir qismidir. Bu termindagi “yovvoyi” komponenti qadimgi turkiy tildagi “sahro” ma’nosini anglatuvchi “yava” so‘zidan kelib chiqib, “o‘z-o‘zicha yashovchi”, “qo‘lga o‘rgatilmagan, odam qo‘li bilan yaratilmagan” degan ma’nolarni bildiradi [4;235-b.]. Shuningdek, bu qo‘shma terminning ikkinchi komponenti “hayvon” so‘zi bo‘lib, u arabcha “hayvonun” so‘zidan kelib chiqqan va “odamzotdan boshqa jonli jonzotlar, yirtqich, jabrdiyda” degan ma’nolarni anglatadi.

Tábiyiy tańlaw – organizmlar evolutsiyasining asosiy harakatlantiruvchi omilidir. Tabiiy tanlanish haqidagi ta’limotni Ch.Darvin yaratgan. Bu ta’limotga ko‘ra, u yashash uchun kurash natijasi bo‘lib, bunda organizmlarning har bir turiga mansub individlarning eng yaxshi moslashganlari yashab qoladi. Bu termin tarkibidagi *“*tábiyiy*”* so‘zi arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, “haqiqiy, yasama emas, qonuniy, tabiatning o‘zida mavjud” degan ma’nolarni bildiradi. Tańlaw so‘zi esa turkiy so‘z bo‘lib, “qandaydir bir narsa orasidan xohlaganini tanlash” degan ma’noda qo‘llanadi. Demak, bu termin arab va turkiy so‘zlarning birikuvidan yasalgan [6;311-b.].

Qoraqalpoq tilining lug‘at tarkibida arab tilidan kirgan so‘zlar bilan bir qatorda, fors tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar ham uchraydi. Bu guruhga kiruvchi so‘zlar ham tub so‘zlar singari samarali qo‘llanilaveradi.

Fors tilidan kirgan ekologik terminlarga *izeykesh, neft, partaw, páshek, puta, saz, sora, shor* kabi so‘zlar kiradi. *Nál* – ko‘kargandan so‘ng yerga ko‘chirib o‘tqazish uchun issiqxonalarda o‘stirilgan o‘simlik. Bu so‘z fors tilidan kirgan bo‘lib, *“jaǵadan otırǵızılǵan terek, náwshe”* degan ma’noni bildiradi. Shuningdek, tilimizda *partaw* termini ham tez-tez qo‘llaniladi. Partaw fors tilida “partav” – *egin egilmegen jer* degan ma’noni anglatadi [7;26-b.] va *partaw jer* birikmasi shaklida ishlatiladi.

Shu bois qo‘shma turdagi ekologik terminlarning tarixiy kelib chiqishiga e’tibor qaratganimizda, qo‘shma so‘z tarkibidagi qismlar boshqa tillardan kirgan so‘zlar bo‘lib, tub so‘zlar bilan birikib, ekologi-

yaga oid terminologik ma’noni yuzaga keltirishini ko‘ramiz. Masalan: *shor* termini fors tilidan olingan bo‘lib, *“duzlı, duzı kóp”* degan ma’noni bildiradi [7;38-b.]. Bu termin, asosan, tuproq yoki suv tarkibida tuz miqdorining ortib ketganligini bildirish maqsadida qo‘llaniladi: *shor suw, shor topıraq.*

Shorlanıw – tuproqda o‘simliklarning shakllangan hayotiga putur yetkazadigan, umuman, hayot uchun ham zararli tuzlarning ko‘p miqdorda to‘planishi [8;54-b.].

Shuningdek, o‘simlik nomlaridan *sora* nomi ham fors tilidan kirgan. Bu so‘z fors tilida shuvra *shuvra “shor jer, izey jer”* degan ma’noni anglatadi [7;31-b.]. Hozirgi qoraqalpoq tilida “japıraqlarınıń ústi jıltıraq, astı kúl reń jabayı shóp” degan ma’noni bildiradi.

Qorǵanısh reń – hayvonlarning rangi, rangining o‘zlari yashaydigan muhitning rangiga mos kelishi. Buning natijasida ular dushmanlariga ko‘rinmay omon qoladi. Bu qo‘shma termindagi mudofaa so‘zi qadimgi turkiy tildan kirib kelgan. Rang so‘zi esa tojik tilidan kirib kelib, *“boyaw”* degan ma’noni bildiradi.

Záhárli ósimlikler – turli organlardagi hayvonlarni zaharlab, hatto o‘ldirib yuborishi mumkin bo‘lgan zahari bor modda o‘simliklar. Shunday zaharli o‘simliklar bu orqali o‘zlarini himoya qiladi. Bu qo‘shma termindagi zahar so‘zi tojik tilidan kirib kelib, *“júdá ashshı”* degan ma’noni bildiradi. O‘simlik so‘zi ham qadimgi turkiy tildan kirib kelib, *“egin, ot-shóp, terek”* degan ma’nolarni bildiradi.

Izeykesh atamasi fors tilidan olingan bo‘lib, *zek “duz, duzlı”+kach “qarıq, tap”* izey suv oqadigan yoki saqlanadigan joy, drenaj [7;16-b.].

Puta nomi "buta" so‘zidan olingan bo‘lib, “túbinen shaqalap ósetuǵın mayda kelte terek” [7;29-b.] degan ma’noni anglatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qoraqalpoq ekologik terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishida arab va fors tillaridan o‘zlashgan leksik birliklar muhim o‘rin egallaydi. Ushbu o‘zlashmalar tarixiy-madaniy va ilmiy aloqalar natijasida tilimiz lug‘at tarkibiga kirib, ekologiyaga oid turli tushunchalarni ifodalashda faol qo‘llanib kelmoqda.

Tahlillar jarayonida arab va fors tillaridan o‘zlashgan ekologik terminlarning semantik hamda struktur xususiyatlari aniqlanib, ularning ayrimlari o‘zbek tilining ichki qonuniyatlari asosida ma’no jihatdan ixtisoslashgani kuzatildi. Mazkur birliklar o‘zbek ekologik terminologiyasining boyishi va takomillashuvida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ularni etimologik va semantik jihatdan tadqiq etish ekologik terminlarni tartibga solish va unifikatsiyalash uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Тошкент, «Университет», 2003, 559-бет.

(2). Пахратдинов Қ., Өтемисов А. Қарақалпақ тилиндеги шығысы арабша сөзлер. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2015

(3). Курбанов М.Д. Қарақалпақ тилиндеги географиялық терминлердиң лексика-грамматикалық өзгешеликлери. Фил. канд. дис., Нөкис, 2011.

(4). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Тошкент, «Университет», 2009,

(5). Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1992,

(6). Salimov X.V. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish bo‘yicha atama va tushunchalarning izohli lug‘ati. Toshkent, 2009.

(7). Пахратдинов Қ., Өтемисов А. Қарақалпақ тилиндеги шығысы парсыша сөзлер. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2017.

(8). Қосанов О., Қосанов С. Экология терминдерінің түсіндірме сөздігі. Алматы, “Шартарап”, 2000.

Xolmuradova Jamila Irmetovna (Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsenti, f.f.n.;
(jamilaxalmuratova66@gmail.com)

XORAZM DOSTONLARI TILIDA NUTQIY TA’SIRCHANLIKNING LINGVOPRAGMATIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm dostonlari tilidagi nutqiy vositalarning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda murojaat, duo, qarg‘ish, buyruq, nasihat, dialog va monologlar, maqol-matal hamda idiomalarning kommunikativ va ta’sirchanlik funksiyalari yoritiladi. Shuningdek, nutqiy birliklarning tinglovchiga ruhiy, ijtimoiy va tarbiyaviy ta’siri hamda xalqning nutqiy madaniyati va kommunikativ tajribasini ifodalashdagi o‘rni ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm dostonlari, lingvopragmatika, nutqiy vositalar, nutqiy ta’sir, kommunikativ qiymat, dialog, monolog, maqol-matal, idioma, murojaat, duo, qarg‘ish.*

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РЕЧЕВОЙ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ В ЯЗЫКЕ ХОРЕЗМСКИХ ДАСТАНОВ

Аннотация. *В статье анализируются лингвопрагматические особенности речевых средств в языке хорезмских дастанов. Рассматриваются коммуникативные и экспрессивные функции обращений, молитв, проклятий, приказов, наставлений, диалогов и монологов, пословиц, поговорок и фразеологических единиц. Кроме того, раскрывается психологическое, социальное и воспитательное воздействие речевых единиц на слушателя, а также их роль в отражении речевой куль-туры и коммуникативного опыта народа.*

Ключевые слова: *хорезмские дастаны, лингвопрагматика, речевые средства, речевое воздействие, коммуникативная ценность, диалог, монолог, пословицы и поговорки, фразеологизмы, обращение, молитва, проклятие.*

LINGUAPRAGMATIC FOUNDATIONS OF SPEECH EXPRESSIVENESS IN THE LANGUAGE OF KHOREZM DASTANS

Annotation. *The article analyzes the linguapragmatic features of speech means in the language of Khorezm epics. It examines the communicative and expressive functions of addresses, prayers, curses, commands, advice, dialogues and monologues, proverbs, sayings, and phraseological units. The article also highlights the psychological, social, and educational impact of speech units on the listener, as well as their role in reflecting the speech culture and communicative experience of the people.*

Keywords: *Khorezm epics, linguapragmatics, speech means, speech impact, communicative value, dialogue, monologue, proverbs and sayings, phraseological units, address, prayer, curse.*

Kirish (Введение/Introduction). Xorazm dostonlari xalqning badiiy tafakkuri mahsuli sifatida nutqiy vositalarining eng yuksak shakllarini mujassamlashtiradi. Qahramonlarning so‘zlari, murojaatlari, duolari, qarg‘ishlari, buyruqlari va nasihatlari faqat sujetni rivojlantirish uchun emas, balki tinglovchiga ta’sir o‘tkazish, his-tuyg‘ularni uyg‘otish va maqsadga erishish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun dostonlarni lingvopragmatik tahlil qilishda nutqiy vositalarning ta’sirchanlik funksiyasini alohida o‘rganish zarur. Dostonlarda qo‘llanadigan nutqiy vositalar tinglovchining ruhiyatiga bevosita ta’sir qiladi: ular g‘azabni kuchaytiradi, sadoqatni mustahkamlaydi, sevgi hissini kuchaytiradi yoki dushmanga nafrat uyg‘otadi. Shu bois dostonlar xalqning nafaqat estetik zavqini, balki psixologik tarbiyasini ham shakllantirgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (Литература и методология/Materials and Methods). Roman Yakobson tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar badiiy matn lingvistikasi rivojida muhim o‘rin tutadi. Uning “Tilshunoslik va poetika” asarida tilning poetik funksiyasi asoslab beriladi. Tilning amaliy qo‘llanishi va kommunikativ vazifalarini tahlil qilish J.L.Austin va Jon Serl nomlari bilan bog‘liq. Austinning “So‘zlar yordamida ishlarni qanday bajarish” asarida nutq aktlari nazariyasi asoslab berilgan bo‘lsa, Serl “Nutq aktlari” tadqiqotida illokutiv va perlokutiv aktlar tasnifini ishlab chiqdi. Til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda Klifford Ghirtzning “Madaniyatlar talqini” asari muhim manba hisoblanadi. Dell Hymes tomonidan ishlab chiqilgan etnografik yondashuv esa nutq faoliyatini ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Teun van Dijk diskurs tahlili orqali matn va kontekst o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib bergan. Anna Verzbicka esa madaniyatga xos kalit so‘zlar orqali xalq dunyoqarashini tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqdi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash va tanlama usullaridan foydalanildi.

Muhokama (Обсуждение/Discussion). Xorazm dostonlarida qahramonlarning nutqiy vaziyatlari – *iltimos, duo, qarg‘ish, buyruq, murojaat* kabi birliklar kommunikativ niyatni ifodalovchi asosiy vositalardir. Dialoglar qahramonlarning o‘zaro munosabatini va ijtimoiy qarama-qarshiliklarni ko‘rsatsa, monologlar ularning ichki dunyosini ochadi. Idioma va paremalar esa nutqiy vaziyatlarni umumlashtirib, xalqning ijtimoiy ongini va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi. Shunday qilib, dostonlarni lingvopragmatik jihatdan o‘rganish xalqning nutqiy madaniyati, muloqot tajribasi va ijtimoiy ongini anglashda muhim ilmiy vazifadir.

Nutqiy ta’sirning kuchi, avvalo, qo‘llangan so‘z va ifodalar tanlanishiga bog‘liq [1;45-b.]. Dostonlarda badiiy ta’sirchanlikni yuzaga keltiruvchi til vositalari qahramonlarning his-tuyg‘ularini, g‘oyaviy maqsadini va voqealarning emotsional mazmunini kuchli ifodalashga xizmat qiladi. Bunday vositalar orasida emotsional-ekspressiv leksika, paremiologik va frazeologik birliklar, takrorlar hamda qasam va duo shakllari alohida o‘rin tutadi.

Avvalo, emotsional bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan *jonim, el-yurt, or-nomus, vatan* kabi so‘zlar tinglovchi yoki o‘quvchining hissiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, matnning ta’sir kuchini oshiradi.

Shuningdek, maqol, matal va idiomalar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi va donishmandligini o‘zida mujassam etgani sababli nutqning obrazliligi va ta’sirchanligini kuchaytiradi. Masalan, *“Er yigit so‘zida turar”, “Musofirchilikda yo zar yarar, yo zo‘r yarar”* kabi paremalar qahramonlar fikrini lo‘nda va mazmunli ifodalashga xizmat qiladi.

Takror va parallel konstruksiyalar ham doston tilining muhim uslubiy vositalaridan hisoblanadi. Muayyan so‘z yoki iboraning qayta-qayta qo‘llanishi tinglovchi e’tiborini asosiy g‘oyaga qaratadi va nutqning hissiy ta’sirini kuchaytiradi. Masalan, *Otlansin yigitlar, otlansin!* kabi takroriy birliklar shijoat va jo‘shqinlikni ifodalashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qasam va duo shaklidagi nutqiy birliklar qahramonning qat’iyati, e’tiqodi va maqsadga sodiqligini ko‘rsatadi. *Jonimdan o‘tsam ham, orimdan o‘tmayman* kabi ifodalar qahramon xarakterining mustahkamligini namoyon etib, tinglovchida ruhiy ko‘tarinkilik va hayrat uyg‘otadi.

Dostonlar og‘zaki ijod namunasi sifatida, avvalo, bevosita tinglovchi auditoriyasiga yo‘naltirilgan badiiy-nutqiy tizim hisoblanadi. Shu bois ularda qo‘llanadigan til vositalari nafaqat voqealarni bayon qilish, balki tinglovchiga hissiy va ruhiy jihatdan ta’sir ko‘rsatish vazifasini ham bajaradi. Nutqiy birliklarning bunday qo‘llanishi dostonlarning kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini belgilaydi.

Xususan, ruhiy ko‘tarinkilik va ruhlantirish funksiyasi qahramonlarning jasorat, vatanparvarlik va qat’iyatini ifodalovchi nutqlarida namoyon bo‘ladi. Jang oldidan aytilgan *Elim uchun jonim fido!* kabi murojaatlar tinglovchini mardlik va qahramonlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ogohlantirish va tarbiyaviy funksiya esa nasihat, hikmat va paremiologik birliklar orqali amalga oshadi. Bunday birliklar xalqning axloqiy mezonlarini ifodalab, jamiyat a’zolarini to‘g‘ri yo‘lga undaydi. Masalan, *Orsiz yashagan – odam emas* kabi maqollar orqali insoniy fazilatlarning ahamiyati ta’kidlanadi [2;12-b.].

Dostonlardagi hamdardlik uyg‘otish vazifasi qahramonlarning iztirobli monologlari va kechinmalarini ifodalovchi nutqiy shakllar orqali yuzaga keladi. Bunday ifodalar tinglovchida qahramon taqdiriga nisbatan achinish, hamdardlik va yaqinlik tuyg‘ularini paydo qiladi.

Nafrat va salbiy munosabat shakllantirish funksiyasi qarg‘ish, la’nat kabi nutqiy birliklarda namoyon bo‘ladi. Ushbu vositalar orqali dushman yoki salbiy obrazlarga nisbatan xalqning bahosi va munosabati ifodalanadi. *Nomusing kuysin, elingdan ayrilgin* kabi qarg‘ishlar ana shunday salbiy hissiy ta’sirni kuchaytiruvchi vosita hisoblanadi.

Shunday qilib, doston tilida nutqiy vositalar tinglovchi qalbiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va uning ruhiy holatini boshqaradi. Dostonlarda nutqiy ta’sir, ko‘pincha, dialog va monologlarda yuzaga chiqadi. Dialoglarda ikki tomonning qarama-qarshi nutqi dramatik ta’sir uyg‘otadi. Masalan, qahramon va yov o‘rtasidagi bahsda biri adolatni, ikkinchisi zo‘ravonlikni ifodalaydi. Bu jarayon tinglovchini qaysi tomonni qo‘llab-quvvatlash kerakligini ko‘rsatib beradi. Monologlarda qahramon o‘z ruhiy iztirobini, umidini yoki qat’iyatini ifoda qiladi. Bu tinglovchiga bevosita emotsional ta’sir qiladi. Masalan, *Elim uchun o‘lsam arzimaydi* degan monolog tinglovchida vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otadi.

Idiomalarda bu yanada kuchli ko‘rinadi. *Ko‘nglimdan qon oqadi* – g‘am va iztirob. *O‘zingni er bilsang, birovni sher bil, Qaytgan xotin, toygan to‘qol, Qochgan yovda qoruv yo‘q* [3;32–33-b.].

Dostonlar tilida maqol va matallar nutqiy ta’sirni kuchaytiruvchi asosiy vositadir. Ular qisqa, lo‘nda va xalqona bo‘lgani uchun tinglovchiga tez yetib boradi. Qahramonlar o‘z nutqi orqali nafaqat his-tuyg‘ularni ifodalaydi, balki muayyan maqsadga erishishga ham intiladi. Jang oldidan nutqda askarlarni jangga tayyorlash va ruhlantirish kiritiladi. Sevgi izhori sevgilining sadoqatini mustahkamlashga xizmat qilsa, ota-ona nasihati farzandni axloqiy qadriyatlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Xonning farmoni jamiyatni boshqarish va tartibni ta’minlashga va nutqiy vositalar maqsadga erishishda asosiy qurol sifatida xizmat qiladi.

Natijalar (Результаты/Results). Dostonlar tilida nutqiy vositalarning ta’sirchanlik xususiyatlarini tadqiq etish til birliklarining nafaqat mazmuniy, balki pragmatik, ijtimoiy va madaniy imkoniyatlarini ochib berish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Mazkur masala bir necha ilmiy yo‘nalishlar asosida izohlanadi:

Nutqiy vositalarni o‘rganish orqali so‘z va iboralarning tinglovchiga qanday ta’sir ko‘rsatishi, muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshirishdagi o‘rni hamda nutq jarayonidagi vazifasi aniqlanishi lingvopragmatik jihat hisoblanadi.

Sotsiologik yondashuv asosida, qahramonlar nutqining ularning jamiyatdagi mavqeyi, ijtimoiy roli va o‘zaro munosabatlariga mosligi tahlil qilinadi. Bu orqali dostonlardagi ijtimoiy munosabatlarning til vositasida ifodalanish xususiyatlari ochib beriladi [4;79-b.].

Adabiy-badiiy jihatdan yondashish esa, nutqiy ta’sirchanlik vositalarini tahlil qilish dostonlarning obraz yaratish imkoniyatlarini, badiiy kuchi va estetik ta’sirini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Xorazm dostonlarida nutqiy vositalar faqat badiiy bezak emas, balki ta’sirchanlik kuchga ega kommunikativ vositadir. Ular tinglovchining his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi, uni ruhlantiradi, ogohlantiradi, hamdardlik yoki nafrat uyg‘otadi. Dialog va monologlar orqali qahramonlarning ruhiy holati va maqsadlari ochiladi, idioma va paremalar esa ta’sirchanlikni kuchaytiradi [5;12-b.]. Shunday qilib, dostonlarda nutqiy vositalarning ta’sirchanlik funksiyasini o‘rganish xalqning nutqiy madaniyatini, ijtimoiy ongini va kommunikativ tajribasini chuqur anglash uchun muhim ilmiy vazifadir. Xalq dostonlari asrlar davomida o‘zbek og‘zaki ijodining yirik janri sifatida shakllangan bo‘lib, ular nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki xalqning ijtimoiy ongini, ma’naviy qadriyatlarini, kommunikativ tajribasini ham saqlaydi. Shu nuqtayi nazardan, doston tilini faqat poetik tahlil doirasida o‘rganish yetarli emas. Chunki unda mavjud bo‘lgan nutqiy birliklar – murojaat, duo, qarg‘ish, buyruq, maqol, matal va idiomalar tinglovchi bilan bevosita aloqaga kirishib, kommunikativ qimmat kasb etadi.

Xulosa (Заключение/Conclusion). Xalq dostonlari asrlar davomida o‘zbek og‘zaki ijodining yirik janri sifatida shakllangan bo‘lib, ular nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki xalqning ijtimoiy ongini, ma’naviy qadriyatlarini, kommunikativ tajribasini ham saqlaydi. Shu nuqtayi nazardan, doston tilini faqat poetik tahlil doirasida o‘rganish yetarli emas. Chunki unda mavjud bo‘lgan nutqiy birliklar – murojaat, duo, qarg‘ish, buyruq, maqol, matal va idiomalar tinglovchi bilan bevosita aloqaga kirishib, kommunikativ qimmat kasb etadi. Pragmatik tahlil doston tilini qahramonlarning ruhiy holati, niyati va ijtimoiy maqomi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib, undagi har bir nutqiy birlikning tinglovchi yoki voqea rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatganini o‘rganadi.

Pragmatik tahlilda doston tilining nafaqat poetik, balki kommunikativ qimmatini ham ochib beradi. Qahramonlarning nutqiy vaziyatlari, dialog va monologlari, maqol-matal va idiomalari faqat estetik go‘zallik uchun emas, balki tinglovchiga ta’sir o‘tkazish, uni ruhlantirish, ogohlantirish va ma’lum maqsadga yetaklash uchun xizmat qiladi. Shunday qilib, dostonlar pragmatik jihatdan ikki tomonlama qimmatga ega – poetik qiymat – obrazlilik, badiiylik va estetik zavqni anglatsa, kommunikativ qiymat – ijtimoiy ongni shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va tinglovchiga bevosita ta’sir qilishga xizmat qiladi [6;92-b.].

Demak, dostonlarni pragmatik tahlil qilish xalqning tarixiy muloqot tajribasi va nutqiy madaniyatini ilmiy asosda yoritish uchun muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. ДДА, Т., 2000, 44-бет.

(2). Кунтуғмиш достони. Халқ оғзаки ижоди. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1975, 250-бет.

(3). Баженова И.С. Эмоции, прагматика, текст. М., издательство “Менеджер”, 2003, с. 56.

(4). Yaqubova Y.A. O‘zbek tilida nutqiy ta’sir aktlarining ifodalanishi. Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dis., Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2026, 140-bet.

(5). Safarov Shahriyor. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008.

(6). Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. Toshkent, 2020, 168-bet.

Boltaeva Dilfuzaxon Shuxrat qizi (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti “Ingliz tili nazariy aspektlari 1” kafedrasi katta o‘qituvchisi; e-mail: dilfuzaboltayeva92@gmail.com)

NOVELLANING DAVRIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI: FOLKLORIDAN KLASSIKAGACHA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada novella janrining folklor manbalaridan klassik adabiyotgacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyoti tahlil qilinadi. Xalq og‘zaki ijodi, xususan, afsona, rivoyat, ertak va latifalarning novellaning shakllanishi hamda mustaqil janr sifatida qaror topishidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqotda tarixiy-tipologik, qiyosiy-adabiy va narratologik metodlar qo‘llanildi. Natijada novellaning evolyutsiyasi uch bosqichli model (folklor, yozma-adabiy va klassik rivojlanish bosqichlari) asosida tizimlashtirildi, “eshitilmagan voqea” tamoyili va “novellistik burilish”ning kompozitsion ahamiyati ochib berildi. Tadqiqot janr nazariyasini boyitadi va adabiyot nazariyasi kurslarida qo‘llanishi mumkin. Shuningdek, Y.M.Meletinskiy nazariyasi asosida novella tipologiyasining yangi talqini taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *novella, janr evolyutsiyasi, folklor, xalq og‘zaki ijodi, hikoyachilik an’analari, Uyg‘onish davri, klassik realizm, narratologiya, qisqa nasr, adabiyotshunoslik.*

ПЕРИОДИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ НОВЕЛЛЫ: ОТ ФОЛЬКЛОРА ДО КЛАССИКИ

Аннотация. *В статье рассматривается историческое развитие жанра новеллы от фольклорных истоков до классической литературы. Освещается роль устного народного творчества мифов, сказаний, сказок и анекдотов в формировании новеллы как самостоятельного жанра. Использованы историко-типологический, сравнительно-литературный и нарратологический методы. Эволюция новеллы представлена в виде трёхэтапной модели: фольклорный, письменно-литературный и классический этапы. Раскрыты принцип «неслыханного события» и композиционная роль «новеллистического поворота». Научная значимость работы заключается в развитии теории жанра, практическая в возможности использования результатов в курсах теории литературы. Предложена новая интерпретация типологии новеллы на основе теории Е.М.Мелетинского.*

Ключевые слова: *новелла, эволюция жанра, фольклор, устное народное творчество, повествовательные традиции, эпоха Возрождения, классический реализм, нарратология, короткая проза, литературоведение.*

PERIODIC STAGES OF NOVELLA DEVELOPMENT: FROM FOLKLORE TO CLASSICS

Annotation. *This article examines the historical development of the novella from its folklore origins to its classical literary form. It highlights the role of oral folk traditions, including myths, legends, fairy tales, and anecdotes, in shaping the novella as an independent genre. The study employs historical-typological, comparative-literary, and narratological methods. The evolution of the novella is systematized into a three-stage model: folklore, written-literary, and classical development stages. The study reveals the formation of the "unheard-of event" principle and the compositional significance of the "novella twist." Its scientific value lies in enriching genre theory, while its practical relevance is connected with literary theory courses. A new interpretation of novella typology based on E.M.Meletinsky's theory is proposed.*

Key words: *novella, genre evolution, folklore, oral folk art, narrative traditions, Renaissance, classical realism, narratology, short prose, literary studies.*

Kirish. Novella jahon adabiyotidagi qadimiy epik janrlardan biri bo‘lib, uning shakllanishi xalq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘liqdir. Afsona, rivoyat, ertak va latifalar novellaning syujet ixchamligi, dinamik rivoji va kutilmagan yakun kabi xususiyatlarining shakllanishiga asos bo‘lgan [1]. Janr nomi italyancha “novella” (“yangilik”, “yangi xabar”) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, uning asosiy vazifasi yangi va ilgari eshitilmagan voqeani hikoya qilishdan iborat.

I.V.Gyote novellani “sodir bo‘lgan g‘ayrioddiy voqea haqidagi hikoya” deb ta’riflaydi va janr markazida favqulodda hodisa turishini ta’kidlaydi [2]. A.Shlegel va L.Tike esa “burilish nuqtasi” (Wendepunkt) tushunchasi orqali novellaning dramatik keskinligini izohlaydilar [3].

P.Heysening “lochin nazariyasi”ga ko‘ra, novelladagi barcha voqealar bitta markaziy motiv yoki konflikt atrofida jamlanadi [4]. Bu xususiyat asarning kompozitsion yaxlitligi va badiiy ta’sirchanligini ta’minlaydi.

M.Baxtin adabiy janrlarni tarixiy rivojlanishda o‘zgarib boruvchi hodisa sifatida baholab, ularning ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida shakllanishini ko‘rsatadi [5]. Uning fikricha, novellada turli nuqtai nazarlar va “ovozlar”ning to‘qnashuvi muhim o‘rin tutadi.

V.Shklovskiy novellaning asosiy belgisi sifatida syujetning markazlashganligi va voqealar rivojining keskinligini ko‘rsatadi [6]. Rus formalistlari vakili sifatida u novellani syujet qurilmasining eng ixcham va ta’sirchan shakli deb baholab, “qotirilgan sujet” va “kutilmagan yechim” o‘rtasidagi ziddiyat uning dinamikasini belgilashini ta’kidlaydi. Sujet zichligi novellaning muhim janriy belgilaridan biridir.

Tadqiqotchilar novellaning mustaqil janr sifatida shakllanishini XIV asr Italiya Uyg‘onish davri bilan bog‘laydilar. J.Bokkachchoning “Dekameron” asari folklor an’analarini yozma adabiyot bilan uyg‘unlashtirib, novella taraqqiyotida muhim bosqichni boshlab bergan [7]. Asardagi 100 novella sujet xilma-xilligi va ramka kompozitsiyasi bilan janr rivojida alohida o‘rin tutadi.

So‘nggi tadqiqotlarda novellaning genezisi va evolutsiyasi keng o‘rganilmoqda. T.Hasanzade janrning folklordan klassik realizmgacha bo‘lgan taraqqiyotini tahlil qilgan [8], O.Melnyk va hammualliflar esa uning zamonaviy transformatsiyalarini yoritganlar [9]. A.J.Greimas va T.Todorov novellaning narativ tuzilishini o‘rgangan bo‘lsalar [10;11-b.], H.Himmel, B.fon Vize va E.Lemmert novella nazariyasini rivojlantirib, uni dramaga eng yaqin epik janr sifatida tavsiflaganlar [12; 13; 14].

Shu bois mazkur maqolada novellaning folklordan klassik adabiyotgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi janrning shakllanish jarayoni, ertak va anekdot bilan genetik aloqasi hamda “novellistik burilish”ning poetik ahamiyatini ochib berishdan iborat. Ilmiy yangilik sifatida Y.M.Meletinskiy nazariyasi asosida novella tipologiyasining yangi talqini taklif etiladi.

Adabiyotlarning tahlili. Novella nazariyasi bo‘yicha eng muhim tadqiqotlar nemis adabiyotshunosligiga mansubdir. Gyote novellani “mislsiz voqea” (eine sich ereignete unerhörte Begebenheit) deb ta’riflab, janr markazida g‘ayrioddiy hodisa turishini ta’kidlagan [2]. A.Shlegel va L.Tike ham novellaning asosini ajoyib va hayratlanarli voqea tashkil etishini qayd etadilar. Tike tomonidan ilgari surilgan “burilish nuqtasi” (Wendepunkt) tushunchasi, keyinchalik, novella poetikasining muhim nazariy kategoriyasiga aylangan [3].

P.Heyse “lochin nazariyasi” (Falkentheorie) orqali novellada markaziy ramz yoki motivning ahamiyatini asoslab bergan [4]. Uning fikricha, asardagi barcha voqealar bitta markaziy obraz yoki detal atrofida jamlanadi. Bu nazariya, keyinchalik, F.Lockerman va G.Pongs tomonidan rivojlantirilgan [15;16]. H.Himmel va B.fon Vize esa nemis novellasi taraqqiyoti hamda ramziy burilish nuqtasining badiiy vazifalarini tahlil qilganlar [12;13].

Y.M.Meletinskiy novella janrining kelib chiqishi va evolyutsiyasini folklor, Sharq va G‘arb adabiyoti materiallari asosida keng o‘rgangan [17]. Olim novellaning asosiy folklor manbalari sifatida novellistik ertak va anekdotni ko‘rsatadi. Novellistik ertakda qahramon o‘z maqsadiga sehrli kuchlar emas, balki aql-zakovati va topqirligi orqali erishadi. Anekdot esa paradoksal vaziyat, keskin ziddiyat va kutilmagan yakun bilan ajralib turadi [17]. Meletinskiy ushbu ikki shakl klassik novella poetikasining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaganini ta’kidlaydi.

Rus adabiyotshunosligida A.Reformatskiy, M.Petrovskiy, B.Eyxenbaum, V.Shklovskiy, L. Vigotskiy va V.Vinogradov novella nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar [6; 18; 19; 20]. Ular syujet qurilishi, konflikt rivoji va kutilmagan yechim masalalarini tadqiq qilganlar. Ayniqsa, Shklovskiy “ostraneniye” nazariyasi orqali oddiy voqeaning badiiy ta’sir kuchiga ega syujetga aylanish mexanizmini izohlab bergan [6].

Anglo-amerikan adabiyotshunosligida novella, ko‘pincha, qisqa hikoya janri bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. E.Po “bir nafasda o‘qib tugatish mumkin bo‘lgan hikoya” tamoyilini ilgari surgan [21]. G.James, I Watt, S.O‘Folaain va F.O‘Connor esa novellaning roman va hikoyadan farqlanuvchi xususiyatlarini tahlil qilganlar [22; 23].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati Yevropa novellasiga bag‘ishlangan. Sharq va G‘arb novella modellari o‘rtasidagi tipologik farqlar hamda psixologik novella poetikasi esa nisbatan kam o‘rganilgan. Ushbu maqolada aynan shu masalalar Meletinskiyning nazariy qarashlari [17] va Boltaevaning Amerika psixologik novellasi bo‘yicha tadqiqotlari asosida yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-tipologik, qiyosiy-adabiy, narratologik va struktural metodlardan foydalanildi. Tarixiy-tipologik metod novellaning folklordan klassik adabiyotgacha bo‘lgan taraqqiyot bosqichlarini aniqlashga xizmat qildi [1]. Qiyosiy-adabiy metod Sharq va G‘arb novella an’analarining o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish imkonini berdi [17; 22; 23]. Narratologik metod yordamida syujet markazlashuvi, konflikt rivoji va “novellistik burilish”ning poetik vazifalari o‘rganildi [5; 10; 11]. Struktural metod esa V.Propp va A.J.Greymas nazariyalari asosida novella sujetining tarkibiy tuzilishini tahlil qilishda qo‘llanildi.

2020–2025-yillarda chop etilgan ilmiy manbalar tahlili asosida novellaning folklor, yozma-adabiy va klassik rivojlanish bosqichlari tizimlashtirildi hamda ular o‘rtasidagi tarixiy va poetik bog‘liqlik aniqlandi [8; 9].

Tahlil va natijalar. Meletinskiyning qayd etishicha, sehrli ertakda ritual sinovlar (predvaritelnoye ispitaniye va osnovnoye ispitaniye) o‘rtasidagi qat’iy farq novellistik ertakda yo‘qoladi. Sehrli ertakda qahramon avval sehrli yordamchini topib, keyin asosiy sinovlarni yengadi. Novellistik ertakda esa sehrli yordamchi o‘rnini qahramonning aql-zakovati egallaydi. Natijada ertakning kompozitsion zanjiri parchalanib, “qiyin topshiriqlar” va “yaxshi maslahatlar” mustaqil syujetlarga aylanadi [17;11–13-b.]. Anekdot esa o‘zining paradoksal yakuni (“pointe”) bilan klassik novellaning kompozitsion asosini yaratgan.

Meletinskiy folklor prednovellasining ikki asosiy shakli – novellistik ertak va anekdot – o‘zaro to‘ldiruvchi munosabatda ekanligini ta’kidlaydi. Novellistik ertakda donolik va aql-idrok, anekdotda esa ayyorlik va lo‘ttilik ustunlik qiladi. Bu ikki modelning uyg‘unlashuvi klassik novella poetikasining shakllanishiga zamin yaratgan [17;18–19-b.].

Novella janrining klassik shakli Italiya Uyg‘onish davrida, ayniqsa J.Bokkachchoning “Dekameron” (1353) asarida shakllangan. Asarda qahramon faolligi, “eshitilmagan voqea” atrofida syujetning jamlanishi, kutilmagan “novellistik burilish” hamda gumanistik ruh yaqqol namoyon bo‘ladi [7;17,75–77-b.]. Ramkali kompozitsiya – vabo davrida Florensiyadan chiqib ketgan 10 kishining 100 novella hikoya qilishi – sujetlarni birlashtirish va turli nuqtayi nazarlarni ifodalash imkonini bergan.

Meletinskiy “Dekameron”ning yangiliklari sifatida anekdotning badiiy hikoyaga aylanishi, qahramon individualligining kuchayishi, konfliktning ichkilashuvi va novellaning didaktik “misol” xususiyatidan xalos bo‘lishini ko‘rsatadi [17;75–77-b.]. Keyinchalik Franko Sakketti, Masuccio Salernitano va Matteo Bandello janrning mavzu va badiiy imkoniyatlarini yanada kengaytirganlar.

Meletinskiy Sharq va G‘arb novellalari o‘rtasidagi tipologik farqlarni ham tahlil qiladi. Uning fikricha, Sharq novellasi, ayniqsa, Xitoy novellasi, mifologik manbalar bilan bog‘liq bo‘lib, fantastik elementlarni saqlab qolgan [17;35–37-b.]. Bu asarlarda tulki, pari va arvoh kabi g‘ayritabiiy kuchlar qahramonga yordam beradi. G‘arb novellasida esa faol qahramon, uning aqli, irodasi va tashabbusi markaziy o‘rinni egallaydi [17;133–134-b.].

Romantizm davrida (G.fon Kleyst, E.T.A.Gofman, L.Tike va boshqalar) novella fantastika va ramziylik bilan boyidi [17;163–167-b.]. Xususan, Kleystning “Markiza O.” (1808) novellasida tashqi voqealar va qahramonning ichki ma’naviy tanlovi uyg‘unlashgan holda tasvirlanadi.

Realistik novella (P.Merime, G.Mopassan, A.P.Chexov) g‘ayrioddiy voqeani kundalik hayot doirasida aks ettirdi. Mopassan oddiy hayotning o‘zida “eshitilmagan voqealar” mavjudligini ko‘rsatgan [17; 258-b.]. Chexov esa klassik novellaning chegaralarini kengaytirib, asosiy e’tiborni ostmatn va qahramon ruhiyatiga qaratdi.

XX asr Amerika adabiyotida psixologik novella (J.Steinbek, Sh.Anderson, E.Xeminguey, U. Folkner) inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini tasvirlashga yo‘naldi. Steinbek ijtimoiy muammolarni psixologik tahlil bilan uyg‘unlashtirgan bo‘lsa, Anderson kichik shaharlardagi insonlarning yolg‘izligi va ichki ziddiyatlarini yoritgan.

Psixologik novellaning asosiy xususiyatlari: ichki monolog va ong oqimi, ramziy obrazlar va ko‘p ma’nolilik, dialoglarning semantik yuklanishi, tush va xotiralardan foydalanish, shuningdek, psixoanalitik yondashuvning ta’siridir.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijasida novella evolutsiyasining uch bosqichli modeli – folklor, yozma-adabiy shakllanish va klassik rivojlanish bosqichlari aniqlandi. Novellaning folklor asoslari novellistik ertak va anekdot bilan bog‘liq ekani, “eshitilmagan voqea” va “novellistik burilish” esa uning asosiy poetik belgilarini tashkil etishi ko‘rsatildi.

J.Bokkachchoning “Dekameron” asari novella janrining klassik modelini yaratgan bo‘lsa, Sharq va G‘arb novellalari qahramon faolligi hamda fantastik elementlarga munosabat jihatidan farqlanishi aniqlandi. Romantik va realistik novella janr imkoniyatlarini kengaytirgan, XX asr Amerika psixologik novellasi esa inson ruhiyati tasvirini yangi bosqichga olib chiqqan.

Kelgusida Sharq novellasi poetikasini, zamonaviy o‘zbek novellachiligini jahon adabiyoti kontekstida o‘rganish hamda novella va qisqa hikoya o‘rtasidagi janr chegaralarini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. Москва, “Художественная литература”, 1975, 504 с.

(2). Goethe J.W. Conversations with Eckermann (1827). Leipzig, Brockhaus, 1836, 350 s.

(3). Tieck L. Schriften. Band XI. Berlin, Reimer, 1829, 420 s.

(4). Heyse P. Deutscher Novellenschatz. München, Oldenbourg, 1871, 650 s.

(5). Шкловский В.Б. Теория прозы. Москва, “Советский писатель”, 1983, 384 с.

(6). Boccaccio G. Decameron. Firenze, 1349–1353, 800 p.

(7). Hasanzade T. Novella janrının genezisi ve təkamülü. ADU Elmi əsərlər. Bakı, 2021, № 2, s. 45–52.

(8). Melnyk O., Hnatiuk N., Shuliar V. Novella as a Genre: Historical Roots and Modern Transformations. Journal of Literary Studies. 2023, vol. 12, № 3, p. 45–61.

(9). Greimas A.J. Maupassant: La sémiotique du texte. Paris, Seuil, 1976, 290 p.

(10). Todorov T. The Poetics of Prose. Ithaca, Cornell University Press, 1977, 272 p.

(11). Himmel H. Geschichte der deutschen Novelle. Bern: Francke, 1963, 508 s.

(12). Wiese B. von. Die deutsche Novelle von Goethe bis Kafka. Düsseldorf: Bagel, 1962, 400 s.

(13). Lemmert E. Bauformen des Erzählens. Stuttgart, Metzler, 1955, 280 s.

(14). Lockerman E. Gestalt und Wandlungen der deutschen Novelle. München, Hueber, 1957, 312 s.

(15). Pongs H. Ist die Novelle heute tot? Stuttgart, Kohlhammer, 1961, 98 s.

(16). Мелетинский Е.М. Историческая поэтика новеллы. Москва, “Наука”, 1990, 275 с.

(17). Эйхенбаум Б.М. Литература: Теория. Критика. Полемика. Ленинград, “Прибой”, 1927, 300 с.

(18). Реформатский А.А. Опыт анализа новеллистической композиции. Москва, Никитинские субботники, 1922, 45 с

(19). Петровский М.А. Морфология новеллы. Ars poetica. Москва, 1927, с. 69–100.

(20). Виноградов В.В. О теории новеллы. Борьба за стиль. Ленинград, 1937, с. 5–62.
(21). Выготский Л.С. Психология искусства. Москва, “Искусство”, 1968, 576 с.
(22). Poe E.A. The Philosophy of Composition. Philadelphia: Graham’s Magazine, 1846, 30 p.
(23). James H. The Art of Fiction. Boston, Macmillan, 1884, 68 p.

Murodova Sarvigul Komil qizi (mustaqil tadqiqotchi)

INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA DINIY-ARXETIPIK OBRAZLARNING NAZARIY ASOSLARI VA TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek adabiyotida uchraydigan diniy-arxetipik obrazlarning nazariy asoslari hamda tipologik xususiyatlari qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Maqolada diniy-arxetipik obrazlarning badiiy matndagi semantik, ramziy va estetik funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, diniy-arxetipik obrazlar jahon xalqlari badiiy tafakkurida shakllangan universal modellar bo‘lib, ayni paytda har bir milliy adabiyotning tarixiy, diniy va madaniy tajribasi asosida o‘ziga xos poetik xususiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar*: arxetip, diniy obraz, diniy-arxetipik obraz, qiyosiy adabiyotshunoslik, mifopoetika, Jung, Frye, ingliz adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, tipologiya, ramz.*

Муродова Сарвигуль Комил кизи (Независимый исследователь)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЛИГИОЗНО-АРХЕТИПИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация*. В данной статье с позиций сравнительного литературоведения исследуются теоретические основы и типологические особенности религиозно-архетипических образов в английской и узбекской литературе. Анализируются семантические, символические и эстетические функции религиозно-архетипических образов в художественном тексте. Результаты исследования показывают, что религиозно-архетипические образы представляют собой универсальные модели, сформировавшиеся в художественном мышлении народов мира, и вместе с тем приобретают своеобразные поэтические особенности под влиянием исторического, религиозного и культурного опыта каждой национальной литературы.*

Ключевые слова*: архетип, религиозный образ, религиозно-архетипический образ, сравнительное литературоведение, мифопоэтика, Юнг, Фрай, английская литература, узбекская литература, типология, символ.*

Murodova Sarvigul Komil qizi (Independent researcher)

THEORETICAL FOUNDATIONS AND TYPOLOGICAL FEATURES OF RELIGIOUS-ARCHETYPAL IMAGES IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE

Annotation*. This article examines the theoretical foundations and typological features of religious-archetypal images in English and Uzbek literature from the perspective of comparative literary studies. It analyzes the semantic, symbolic, and aesthetic functions of religious-archetypal images in literary texts. The findings demonstrate that religious-archetypal images constitute universal models shaped within the artistic consciousness of the peoples of the world, while at the same time acquiring distinctive poetic characteristics under the influence of the historical, religious, and cultural experience of each national literature.*

Keywords*: archetype, religious image, religious-archetypal image, comparative literary studies, mythopoetics, Jung, Frye, English literature, Uzbek literature, typology, symbol.*

Kirish (Introduction). XX–XXI asr adabiyotshunosligida arxetip nazariyasi badiiy matnlarni tahlil qilishning samarali metodologik yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. “Arxetip” tushunchasi insoniyatning tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi va jamoaviy ongsizligida shakllangan universal ramziy modellarni ifodalaydi. Mazkur nazariya, dastlab, psixologiya sohasida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, keyinchalik, adabiyotshunoslik, mifopoetika va madaniyatshunoslik tadqiqotlarida keng foydalanila boshlandi.

Diniy-arxetipik obrazlar jahon adabiyotining barcha davrlarida muhim badiiy vazifani bajargan. Payg‘ambar, najotkor, donishmand, qurbon va shayton kabi obrazlar insonning ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlarini, ma’naviy izlanishlarini hamda axloqiy tanlov jarayonini ifodalovchi poetik modellar sifatida shakllangan. Ingliz va o‘zbek adabiyotlari turli tarixiy va diniy-madaniy sharoitlarda rivojlangan bo‘lsa-da, ularda uchraydigan diniy-arxetipik obrazlar o‘zaro tipologik yaqinlikka ega. Ingliz adabiyotida mazkur obrazlar asosan xristian diniy an’analari, Bibliya motivlari va G‘arb mifologik tafakkuri bilan bog‘liq holda shakllangan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida ular Qur’on qissalari, islomiy tafakkur va tasavvuf falsafasi bilan uyg‘unlashgan holda rivojlangan. Diniy-arxetipik obrazlarning qiyosiy-tipologik tadqiqi zamonaviy adabi-

yotshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Cababi ushbu obrazlar, bir tomondan, umuminsoniy ma’-naviy tajribani aks ettirsa, ikkinchi tomondan, har bir xalqning tarixiy xotirasi va milliy poetik tafakkurini namoyon etadi.

Diniy-arxetipik obrazlarning ingliz va o‘zbek adabiyotidagi badiiy talqinini qiyosiy o‘rganish ushbu obrazlarning nafaqat diniy tafakkur mahsuli, balki insoniyatning umumiy ma’naviy tajribasini ifodalovchi universal poetik modellar ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqotda diniy-arxetipik obrazlar qiyosiy adabiyotshunoslik, mifopoetika va arxetip nazariyasi asosida tahlil qilinib, ularning shakllanish manbalari, badiiy funksiyalari hamda milliy adabiyotlarda namoyon bo‘lish xususiyatlari aniqlandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Diniy-arxetipik obrazlarni ilmiy o‘rganishda Karl Gustav Jungning arxetip nazariyasi muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Jung arxetiplarni insoniyatning jamoaviy ongsizligida mavjud bo‘lgan qadimiy-ruhiy modellar sifatida izohlaydi. Uning fikricha, insoniyat tarixining turli davrlarida yaratilgan miflar, diniy timsollar va badiiy obrazlar aynan shu universal psixik strukturalarning namoyon bo‘lish shaklidir [1]. Shu jihatdan, Payg‘ambar, najotkor, donishmand, qurbon va Shayton kabi obrazlar alohida diniy tizimlarga mansub bo‘lsa-da, ularning semantik asosida insonning ezgulik, yovuzlik, najot va ma’naviy kamolot haqidagi umumiy tasavvurlari mujassamlashadi. Jung nazariyasiga asoslangan holda olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, diniy-arxetipik obrazlar tayyor badiiy shakllar emas, balki turli tarixiy va madaniy sharoitlarda yangi mazmun kasb etuvchi universal modellar hisoblanadi. Masalan, Najotkor arxetipi xristian madaniyatida Iso Masih obrazi orqali namoyon bo‘lsa, Sharq adabiyotida u, ko‘pincha, komil inson, avliyo yoki ma’naviy yetuk shaxs timsolida ifodalanadi. Bu holat arxetiplarning milliy adabiy an’analar ta’sirida transformatsiyaga uchrashini ko‘rsatadi.

Diniy-arxetipik obrazlarni adabiy jarayon nuqtayi nazaridan o‘rganishda Northrop Fryening arxetipik tanqid konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, diniy ramzlar vaqt o‘tishi bilan sof diniy mazmun doirasidan chiqib, umumiy madaniy va estetik belgilar tizimiga aylanadi. Shu sababli Bibliya, Qur’on qissalari va boshqa diniy manbalarda shakllangan obrazlar keyingi davr adabiyotida ham faol yashab keladi. Ingliz adabiyotida diniy-arxetipik obrazlarning rivojlanishi, asosan, xristian diniy tafakkuri va Bibliya an’analari bilan bog‘liq. Ayniqsa, John Miltonning “Paradise lost” asari ushbu jarayonning yuksak namunasi hisoblanadi. Asarda Odam Ato va Momo Havo, shayton, ilohiy adolat va najot kabi diniy-arxetipik modellar falsafiy mazmun bilan boyitilgan [2]. Milton diniy syujetdan foydalanib, inson erkinligi, axloqiy tanlov, gunoh va mas’uliyat kabi umuminsoniy masalalarni badiiy tadqiq etadi. Milton yaratgan Satan obrazi an’anaviy diniy talqindagi oddiy yovuzlik timsolidan murakkab psixologik obraz darajasiga ko‘tarilgan. Ushbu obrazda kibr, hokimiyatga intilish, isyon va ma’naviy qulash kabi inson tabiatidagi salbiy jihatlar mujassamlashgan. Bu jihat Jungning “shadow” (soya) arxetipi bilan uyg‘unlashadi, chunki shayton obrazi inson ruhiyatining inkor etilgan va nazorat qilinmagan tomonlarini ifodalovchi ramziy model sifatida namoyon bo‘ladi.

XX asr ingliz adabiyotida diniy-arxetipik obrazlar yangi badiiy shakllarda davom etdi. C.S.Lewisning “The Chronicles of Narnia” asaridagi Aslan obrazi najotkor arxetipining zamonaviy talqinidir. Aslan obrazi kuch, adolat, rahm-shafqat va fidoyilik kabi fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Uning qurbonligi va qayta tirilishi xristian an’analaridagi Masih obraziga yaqin bo‘lsa-da, yozuvchi ushbu obraz orqali umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni ifodalashga intiladi [3].

J R.R.Tolkien ijodida esa diniy-arxetipik obrazlar mifologik va falsafiy tizim bilan uyg‘unlashadi. “The Lord of the Rings” asaridagi Frodo obrazi qurbon arxetipining zamonaviy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. U umumiy manfaat uchun shaxsiy tinchligi, xavfsizligi va farovonligidan voz kechadi. Gandalf obrazi esa Donishmand arxetipining badiiy ifodasi bo‘lib, qahramonlarga yo‘l ko‘rsatuvchi, ularning ma’naviy rivojlanishiga yordam beruvchi kuch sifatida tasvirlanadi [4]. Diniy-arxetipik obrazlarning rivojlanishini tushuntirishda Joseph Campbellning “Qahramon sayohati” konsepsiyasi ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Campbell turli xalqlar mifologiyasi va diniy rivoyatlarida takrorlanuvchi syujet modelini aniqlab, qahramonning chaqiriqni qabul qilishi, sinovlardan o‘tishi, qurbonlik qilishi va yangi tajriba bilan qaytishini universal struktura sifatida izohlaydi [5]. Ushbu nazariya ingliz va o‘zbek adabiyotidagi ko‘plab diniy-arxetipik obrazlarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. O‘zbek adabiyotida diniy-arxetipik obrazlarning shakllanishi islom dini, Qur’on qissalari va tasavvuf falsafasi bilan chambarchas bog‘liq. Sharq adabiy tafakkurida diniy obrazlar, ko‘pincha, insonning ichki poklanishi, ruhiy kamoloti va komillikka erishish jarayonini ifodalovchi ramziy tizim sifatida shakllangan. Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari o‘zbek adabiyotida diniy-arxetipik obrazlarning dastlabki yirik namunalaridan biri hisoblanadi. Asarda payg‘ambarlar obrazi insoniyatga hidoyat beruvchi, sabr va e’tiqod timsoli sifatida talqin qilinadi. Ushbu obrazlar

orqali insonning ma’naviy taraqqiyoti, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash hamda ilohiy haqiqatga intilish masalalari yoritiladi [6]. Alisher Navoiy ijodida esa diniy-arxetipik obrazlar yanada murakkab falsafiy mazmun kasb etadi. Navoiy asarlarida Payg‘ambar, komil inson, pir va oshiq obrazlari tasavvufiy tafakkur bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Shoir ijodidagi komil inson konsepsiyasi insonning axloqiy va ruhiy yuksalish modelini ifodalovchi muhim arxetipik struktura hisoblanadi [7]. Tasavvuf adabiyotida diniy-arxetipik obrazlarning asosiy xususiyati shundaki, ular tashqi voqelikdan ko‘ra insonning ichki ruhiy olamini aks ettirishga yo‘naltirilgan. Pir yoki murshid obrazi Donishmand arxetipining Sharqona ko‘rinishi bo‘lib, u insonni ma’naviy kamolot sari yetaklovchi rahnamo sifatida tasvirlanadi. Oshiq obrazi esa inson ruhining Haqiqat sari intilishini ifodalovchi ramziy model hisoblanadi [8]. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek adabiyotidagi diniy-arxetipik obrazlar o‘rtasidagi asosiy farq ularning diniy-falsafiy talqinida namoyon bo‘ladi. Ingliz adabiyotida ushbu obrazlar ko‘proq individual qahramonning tanlovi, erkinligi va axloqiy mas’uliyati bilan bog‘langan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida ular jamoaviy ma’naviy qadriyatlar, ruhiy poklanish va komillik g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi.

Shu sababli diniy-arxetipik obrazlarni faqat ma’lum bir diniy an’anaga tegishli hodisa sifatida emas, balki insoniyat badiiy tafakkurining universal shakli sifatida baholash mumkin. Ularning har bir milliy adabiyotdagi ko‘rinishi esa xalqning tarixiy xotirasi, diniy dunyoqarashi va madaniy tajribasi bilan belgilanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek adabiyotidagi diniy-arxetipik obrazlarning shakllanishi turli diniy-madaniy asoslarga ega bo‘lsa-da, ularning badiiy funksiyasi va semantik mohiyatida muayyan tipologik umumiylik mavjudligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida diniy-arxetipik obrazlarning asosiy tiplari sifatida Payg‘ambar, Najotkor, Donishmand, Qurbon, Shayton va Muqaddas ona arxetiplari ajratildi. Ushbu obrazlar turli adabiy an’analarda turlicha badiiy shaklga ega bo‘lsada, ularning asosiy vazifasi insonning ma’naviy izlanishi, axloqiy tanlovi va ruhiy kamolot jarayonini ifodalashdan iborat ekanligi belgilandi.

Olib borilgan tahlillar natijasida Payg‘ambar arxetipi ingliz va o‘zbek adabiyotida ma’naviy rahnamolik funksiyasini bajarishi aniqlandi. Ingliz adabiyotida ushbu arxetip asosan Bibliya an’analari va xristian diniy tafakkuri asosida shakllangan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida Qur’on qissalari va islomiy ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq holda rivojlangan. Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida payg‘ambarlar obrazi insoniyatga hidoyat beruvchi, sabr va e’tiqod timsoli sifatida tasvirlanadi. Alisher Navoiy ijodida esa Muhammad (s.a.v.) obrazi komillik, adolat va ma’rifat timsoli sifatida talqin qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Najotkor arxetipi har ikki adabiy an’anada ham yangilanish va poklanish g‘oyalarini ifodalaydi. Ingliz adabiyotida mazkur arxetip xristian diniy modeli asosida shakllangan bo‘lib, C.S Lewisning Aslan obrazi orqali zamonaviy badiiy shaklga ega bo‘lgan. O‘zbek adabiyotida esa najot tushunchasi ko‘proq komil inson va ruhiy yetuklik konsepsiyasi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Donishmand arxetipi bo‘yicha olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, ushbu obraz har ikki adabiyotda ham bilim, tajriba va ma’naviy yo‘l ko‘rsatish vositasi sifatida shakllangan. Ingliz adabiyotida Tolkienning Gandalf obrazi ushbu arxetipning yorqin namunasi bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida mazkur model pir, murshid va ustoz obrazlari orqali ifodalanadi.

Shayton arxetipi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar mazkur obrazning ikki adabiy an’anada ham insonning ichki kurashi va axloqiy tanlovini ifodalovchi universal model ekanligini ko‘rsatdi. John Miltonning “Paradise lost” asaridagi Satan obrazi ingliz adabiyotidagi Shayton arxetipining eng murakkab shakllaridan biri hisoblanadi. Unda kibr, isyon va hokimiyatga intilish kabi insoniy zaifliklar mujassamlashgan. O‘zbek adabiyotida esa shayton obrazi ko‘proq inson nafsi va ma’naviy zaiflik ramzi sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot natijalaridan yana biri shundan iboratki, diniy-arxetipik obrazlarning milliy xususiyatlari ularning mazmuniy asosida emas, balki badiiy ifoda shakllarida namoyon bo‘ladi. Ingliz adabiyotida bu obrazlar ko‘proq xristian teologiyasi, individual qahramon tajribasi va axloqiy tanlov bilan bog‘langan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida ular islomiy tafakkur, tasavvuf falsafasi va komillik g‘oyasi bilan uyg‘unlashadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijasida ingliz va o‘zbek adabiyotida diniy-arxetipik obrazlarning shakllanishi va badiiy taraqqiyoti turli tarixiy-madaniy jarayonlar bilan bog‘liq holda rivojlanganligi aniqlandi. Ushbu obrazlar adabiy matnda faqat diniy qarashlarning ifodasi sifatida emas, balki insoniyatning axloqiy tajribasi, ma’naviy izlanishlari va dunyoni anglash jarayonini aks ettiruvchi murakkab poetik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, diniy-arxetipik obrazlarning yashovchanligi ularning muayyan davr yoki hudud bilan chegaralanib qolmasligi bilan belgilanadi. Ular har bir yangi adabiy muhitda zamon talablari, ijodkor dunyoqarashi va milliy tafakkur xususiyatlari asosida yangi badiiy mazmun kasb etadi. Shu jihatdan, mazkur obrazlar an’anaviy ramz sifatida saqlanib qolishi bilan birga, turli davr adabiyotida yangicha talqin imkoniyatlarini

ham namoyon qiladi. Qiyosiy tahlil asosida diniy-arxetipik obrazlarning badiiy imkoniyatlari keng ekanligi, ular orqali insonning ichki dunyosi, ma'naviy qarashlari va hayotiy qadriyatlari chuqur yoritilishi xulosaga kelindi. Bunday obrazlar adabiy asarlarda voqealarni rivojlantiruvchi vosita bo'lish bilan bir qatorda, asarning g'oyaviy-falsafiy mazmunini shakllantiruvchi muhim unsur vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar adabiyotshunoslik, mifopoetika va madaniyatlararo tadqiqotlar uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligi belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Jung C. G. The Archetypes and the Collective Unconscious. Princeton: Princeton University Press, 1969. – 451 p.
(2). Milton J. Paradise Lost. London, Penguin Classics, 2003, 480 p.
(3). Lewis C.S. The Chronicles of Narnia. London, HarperCollins, 2001, 767 p.
(4). Tolkien J.R.R. The Lord of the Rings. London, HarperCollins, 2007, 1216 p.
(5). Campbell J. The Hero with a Thousand Faces. Princeton: Princeton University Press, 2004, 416 p.
(6). Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Toshkent, "Yozuvchi", 1990, 544-bet.
(7). Navoiy A. Hayrat ul-abror. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989, 256 bet.
(8). Komilov N. Tasavvuf. Toshkent, "Movarounnahr", 2009, 448-bet.

Qodirov Umidbek Shavkat o'g'li (NukusDPI "O'zbek adabiyoti" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi; E-mail: xonqaimi@mail.com; ORCID: https://t.me/c/2594165025/50/137; UDK 821.512.133.09)

SHE'RIY ASARDA SHAKL VA MAZMUN BIRLIGI: NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada she'riy asarda shakl va mazmun birligi masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. D.Quronov, H.Umurov, I.Sulton, A.Ulug'ov, D.Rahmonova, Q. va M.Yo'ldosh kabi adabiyotshunoslarning qarashlari qiyosiy o'rganilib, ularning bir-birini to'ldiruvchi jihatlari ochib beriladi. Nazariy xulosalar Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Usmon Nosir, Abdulla Oripov va Go'zal Begim she'riyatidan olingan misollar asosida amaliy tasdig'ini topadi. Tadqiqot natijasida shakl faqat mazmunni ifodalovchi tashqi vosita emas, balki mazmunni estetik jihatdan tashkil etuvchi faol poetik omil ekanligi asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *she'riy shakl, badiiy mazmun, poetik uslub, adabiyot nazariyasi, ritm, obrazlar tizimi, individual uslub, o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyati.*

ЕДИНСТВО ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЯ В ПОЭТИЧЕСКОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ

Аннотация. *В данной статье рассматривается проблема единства формы и содержания в поэтическом произведении в теоретическом и практическом аспектах. Проведён сравнительный анализ взглядов литературоведов Д.Куронова, Х.Умурова, И.Султана, А.Улугова, Д.Рахмоновой, К. и М.Йулдошева, выявлены их взаимодополняющие стороны. Теоретические выводы подтверждаются на примерах поэзии Алишера Навои, Захириддина Мухаммада Бабура, Усмана Насира, Абдуллы Арипова и Гузаль Бегим. В результате исследования обосновывается, что форма является не просто внешним средством выражения содержания, а активным поэтическим фактором, эстетически организующим содержание.*

Ключевые слова: *поэтическая форма, художественное содержание, поэтический стиль, теория литературы, ритм, система образов, индивидуальный стиль, узбекская классическая и современная поэзия.*

THE UNITY OF FORM AND CONTENT IN A POETIC WORK: THEORETICAL PERSPECTIVE

Annotation. *This article analyzes the unity of form and content in poetic works from theoretical and practical perspectives. The views of literary scholars D.Quronov, H.Umurov, I.Sulton, A.Ulug'ov, D. Rahmonova, and Q. & M.Yo'ldash are comparatively examined, revealing their complementary aspects. Theoretical conclusions are substantiated through examples from the poetry of Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Usmon Nosir, Abdulla Oripov, and Go'zal Begim. The study demonstrates that poetic form is not merely an external means of expressing content, but an active poetic factor that aesthetically organizes content.*

Keywords*: poetic form, artistic content, poetic style, literary theory, rhythm, system of images, individual style, Uzbek classical and modern poetry.*

Kirish. Badiiy adabiyot inson tafakkuri va estetik dunyoqarashining eng mukammal ifoda shakllaridan biridir. Adabiy asarning badiiy qiymatini belgilovchi asosiy omillar sifatida uning shakli, mazmuni hamda uslubi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, she'riyatda shakl va uslub o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular muallifning individual poetik tafakkurini namoyon etadi. Chunki she'riy matnning badiiy ta'sir kuchi, ko'p jihatdan, aynan ritmik tashkil etilish, poetik sintaksis, obrazlilik tizimi hamda til vositalarining estetik funksiyasi orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli adabiyotshunoslik tarixida she'riy shakl va badiiy uslub masalalari deyarli barcha nazariy maktablar tomonidan turlicha talqin etilgan hamda har bir davrning ilmiy-estetik qarashlari asosida yangi mazmun bilan boyitilgan.

Ushbu maqolaning maqsadi she'riy asarda shakl va mazmun birligi masalasini nazariy jihatdan tizimlashtirish hamda bu birlikning o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyati namunalarida qanday namoyon bo'lishini aniqlashdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: shakl va mazmun kategoriyalarining nazariy talqinlarini tizimlashtirish; ushbu kategoriyalarning badiiy ijod jarayonida namoyon bo'lish qonuniyatlarini aniqlash; nazariy xulosalarni mumtoz va zamonaviy she'riyat namunalari asosida amaliy tekshiruvdan o'tkazish.

Metodlar. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Qiyosiy-tipologik tahlil metodi she'riy shakl va mazmun masalasiga oid oltita nazariy manba (D. Quronov, D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva lug'ati, A.Ulug'ov, H.Umurov, I.Sulton, D.Rahmonova, Q.Yo'ldosh va M.Yo'ldosh) o'zaro qiyoslanib, ularning bir-birini to'ldiruvchi jihatlari aniqlandi.

2. Tarixiy-nazariy tahlil metodi shakl va mazmun kategoriyalarining rus formal maktabi, strukturalizm, poststrukturalizm kabi turli ilmiy yo'nalishlardagi talqinlari tarixiy izchillikda ko'rib chiqildi.

3. Matnni yaqindan o'qish (close reading) metodi tanlangan she'riy namunalar (Navoiy, Bobur, Usmon Nosir, Abdulla Oripov, Go'zal Begim) vazn, qofiya, radif, badiiy san'atlar va obrazlar tizimi darajasida tahlil qilindi.

4. Sintez metodi nazariy xulosalar bilan amaliy (matniy) tahlil natijalari birlashtirilib, umumlashtiruvchi xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot manbalari. Nazariy manbalar: D.Quronovning "Adabiyot nazariyasi asoslari" (2018) va hammualliflikdagi "Adabiyotshunoslik lug'ati" (2010); A.Ulug'ovning "Adabiyotshunoslik nazariyasi" (2008); H.Umurovning "Adabiyotshunoslik nazariyasi" (2004); I.Sultonning "Adabiyot nazariyasi" (2005); D.Rahmonovaning monografiyasi (2024); Q. va M.Yo'ldoshning "Badiiy tahlil asoslari" (2016); shuningdek, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2005).

Badiiy (empirik) material: Alisher Navoiyning "Kecha kelgumdur debon..." g'azali, Zahiriddin Muhammad Boburning bayti, Usmon Nosirning "Yurak, sensan mening so'zim" she'ri, Abdulla Oripovning to'rtligi va Go'zal Begimning zamonaviy she'riy namunasi.

Natijalar. 1. Shakl va mazmun kategoriyalarining nazariy talqinlari. D.Quronov ta'kidlashicha, adabiyotshunoslikda "shakl" va "mazmun" tushunchalariga nisbatan bir qator muqobil yondashuvlar mavjud: rus formal maktabi vakillari "mazmun" o'rniga "material" atamasini qo'llashni taklif etsa, Y.M.Lotman bu juftlikni "struktura" va "ideya" kategoriyalari bilan, strukturalistlar "belgi" va "ma'no", poststrukturalistlar esa "tekst" va "mazmun" tushunchalari bilan almashtirishni ma'qul ko'radilar [5;134-b.].

D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva tomonidan tayyorlangan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da ta'kidlanishicha, shakl va mazmun – har qanday voqelikning ikki uzviy tomoni bo'lib, shakl narsaning bevosita idrok etiladigan tashqi ko'rinishi, mazmun esa o'sha shakl orqali anglashiladigan ichki mohiyatdir; bu ikkisi bir-biridan ajralmas holda mavjud bo'ladi [6;58-b.].

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida shakl "mazmunning mavjudlik tarzini, uni tashkil qilgan unsurlar va jarayonlar orasidagi o'zaro bir-biri bilan ichki hamda sirtdagi olam bilan bog'lanish yo'sinini anglatadigan tushuncha" sifatida, mazmun esa "ko'zda tutilgan obyektning aynan shu narsa–hodisa ekanligini tayin etadigan va shaklning mavjudligi, taraqqiyoti va o'zgarishiga sabab bo'ladigan unsur–jarayonlarning yig'indisi" sifatida ta'riflanadi [13;156-b.].

Bu qarashni adabiyotshunos A.Ulug'ovning quyidagi ta'rifi ham to'ldiradi: "Har bir narsa-hodisa o'ziga xos shakl va mazmunga ega. Shakl va mazmun narsa va hodisa mavjudligining namoyon bo'lish tarzidir. Ular bir-biri bilan mustahkam bog'liqdir" [9;48-b.].

H.Umurov fikricha, badiiy asarda mazmun va shakl tabiiy– yasama emas tarzda bir-biriga mos kelgandagina asar yaxlitligi yuzaga keladi. Mazmun g'oyaga, shakl esa badiiylikka bo'ysunsa-da, faqat ular bir-biriga singib ketgandagina haqiqiy badiiy asar vujudga keladi [10;100-b.].

Akademik I.Sulton mazkur masalaga badiiy ta'sirchanlik mezoni asosida yondashadi: mazmunning yetakchi o'rin tutishi shaklning ahamiyati kamligini bildirmaydi, faqat yuqori badiiy shaklda ifodalangan

mazmungina o‘quvchiga ta’sir ko‘rsata oladi; muallif bu birlikni “bir qushning ikki qanoti”ga o‘xshatadi [8;142-b.].

D.Rahmonova ta’kidlashicha, shakl ma’lum darajada barqarorlik xususiyatiga ega bo‘lib, uning o‘zgarishi tayyorgarlik, ijtimoiy talab yoki ijodkor istagi natijasida yuzaga keladi; shaklni zo‘rm-zo‘raki o‘zgartirish quruq shakllilikka olib keladi va o‘zini oqlamaydi [7;7-b.].

Q.Yo‘ldosh va M.Yo‘ldosh fikricha, adabiy asar mazmunini uning mohiyati, shaklini esa shu mohiyatning namoyon bo‘lish tarzi sifatida tushunish mumkin. Mazmun ijodkorning voqelikka bo‘lgan fikriy va hissiy munosabatini ifodalaydi [12;121-b.].

Olib borilgan qiyosiy tahlil natijasida olti olimning qarashlari muammoni olti xil, bir-birini to‘ldiruvchi darajada yoritishi aniqlandi: Quronov – nazariy-tarixiy, Umurov – ijodiy-amaliy, I.Sulton – estetik-ta’sirchanlik, Ulug‘ov – umumfalsafiy, Rahmonova – tarixiy-dinamik, Q.Yo‘ldosh va M.Yo‘ldoshlar esa individual-ijodkor nuqtayi nazaridan.

2. Mumtoz she’riyatda shakl va mazmun uyg‘unligining matniy tahlili. Alisher Navoiyning mashhur g‘azalidan olingan bayt:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi. [3;15-b.]

Tahlil natijasida aniqlandiki, baytda takrorlanayotgan “kelmadi” radifi (fe’l turkumiga mansub sodda radif) mazmunni semantik jihatdan kengaytiradi. Bayt aruz vaznida yozilgan bo‘lib, radifning barqarorligi baytning ritmik monandligini ta’minlaydi, bu esa mazmundagi umidsizlik kayfiyatini ohangdorlik orqali kuchaytiradi.

Zahiriddin Muhammad Boburning bayti:

Xating aro uzoring sabza ichinda lola,
Ul chashma purxumoring loladagi g‘azola. [1;53-b.]

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, birinchi misradagi "uzoring sabza ichinda lola" tashbehi mufassal namunasi bo‘lsa, ikkinchi misradagi "loladagi g‘azola" istiora san’atiga misol bo‘ladi. “Sabza”, “lola”, “g‘azola” obrazlarining o‘zaro uyg‘unligi tashqi bezak emas, balki yor husnining estetik konsepsiyasini yaratadi: “sabza” yoshlik va hayotiylikni, “lola” go‘zallikni, “g‘azola” esa noziklik va nafislikni anglatadi.

3. XX asr o‘zbek she’riyatida individual uslub tahlili natijalari. Usmon Nosir lirikasidan namuna:

Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo‘r etding.
Ko‘zimga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim. [11;3-b.]

Tahlil natijasida she’r barmoq vaznida yozilgani, qofiya sxemasi abba (qamrab oluvchi qofiya) tarzida qurilgani aniqlandi: 1 va 4-misralar (“sozim”/"ishqibozim”) hamda 2 va 3-misralar (“etding”/ ”berkitding”) o‘zaro qofiyalanadi. "Yurak"ka qilingan murojaat (xitob san’ati) personifikatsiya bilan uyg‘unlashib, lirik qahramonning ichki kechinmalarini ochiq ifodalash imkonini beradi.

Abdulla Oripov she’riyatidan namuna:

Goh butoqqa, goh gulga qo‘nar,
Tinim bilmas sayroqi qushcha.
Nechun bahor seni rom etgan,
Qayda eding bahor kelguncha. [4;14-b.]

Birinchi misradagi "goh...goh..." takrori qushning bezovta harakatini ritmik jihatdan kuchaytirsa, oxirgi ikki misradagi ritorik savol lirik qahramonning ichki ikkilanishini sintaktik darajada ifodalaydi. “Sayroqi qush” poetik ramz sifatida inson qalbining izlanish holatini ifodalaydi.

4. Zamonaviy she’riyatda shaklning yangi imkoniyatlari. Go‘zal Begim she’riyatidan namuna:

Qo‘limda baxtning kalitini burasam,
Uchib ketar qanotsiz qushlar. [2;10-b.]

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, “qanotsiz qushlar”ning uchishi mantiqiy jihatdan bir-biriga zid tushunchalarning yonma-yon qo‘yilishidan hosil bo‘lgan paradoks san’atining namunasidir. “Kalit” obrazi erkinlik yoki imkoniyat ramzi sifatida, “qushlar” esa cheklangan orzu-intilishlar ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. Shoira an’anaviy tasvir usullaridan voz kechib, assotsiativ tafakkurga asoslangan poetik shaklni yaratadi.

Muhokama. D.Quronov tomonidan keltirilgan nazariy qarashlar shakl va mazmun masalasining adabiyotshunoslik tarixida turli metodologik yondashuvlar asosida talqin etilganini ko‘rsatadi. Bizningcha, bu qarashlar zamonaviy poetik tahlilda shakl va mazmunni qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruv-

chi kategoriyalar sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, zamonaviy o‘zbek she’riyatini tahlil qilishda formalistik yondashuvning o‘zi yetarli bo‘lmay, poetik shaklning semantik funksiyasini ham hisobga olish talab etiladi.

Formalizm, strukturalizm va poststrukturalizm vakillari ushbu kategoriyalarni turlicha izohlashga intilgan bo‘lsalar-da, ularning barchasini birlashtiruvchi jihat badiiy asarning ichki tuzilishini ilmiy asosda anglashga bo‘lgan intilishidir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, zamonaviy adabiyotshunoslik shakl va mazmunni qarama-qarshi hodisalar sifatida emas, balki badiiy tafakkurning yagona estetik tizimini tashkil etuvchi o‘zaro bog‘liq kategoriyalar sifatida baholaydi.

Uch nazariy yondashuvni solishtirsak, Quronov shakl-mazmunni nazariy kategoriya, lug‘at va ensiklopediya umumfalsafiy-ta’rifiy, Ulug‘ov esa umumfalsafiy qonuniyat sifatida talqin qiladi, bu yondashuvlar bir-birini to‘ldirib, muammoni turli darajada yoritadi. Agar Quronov muammoni nazariy maktablar evoutsiyasi nuqtai nazaridan yoritsa, Umurov uni badiiy ijod qonuniyatlari nuqtayi nazaridan, ya’ni shakl–mazmun uyg‘unligining amaliy namoyon bo‘lishi orqali izohlaydi. Agar Umurov mezon sifatida shakl–mazmunning tabiiy monandligini olsa, I.Sulton bu monandlikning natijasi o‘quvchiga ko‘rsatiladigan estetik ta’sirni mezon qilib qo‘yadi. Agar Quronov, Umurov va Ulug‘ov shakl-mazmun birligini statik kategoriya sifatida tahlil qilgan bo‘lsa, Rahmonova masalaga tarixiy-dinamik nuqtai nazardan yondashadi. Agar yuqoridagi olimlar shakl-mazmun birligini umumnazariy yoki tarixiy tekislikda ko‘rgan bo‘lsa, Q.Yo‘ldosh va M.Yo‘ldoshlar masalani individual ijodkor shaxsi darajasiga tushiradi.

Tahlil qilingan poetik namunalar shuni ko‘rsatadiki, shakl va mazmun uyg‘unligi turli davr va adabiy-estetik yo‘nalishlarga mansub ijodkorlar she’riyatida o‘ziga xos poetik vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ushbu uyg‘unlik aruz tizimi, qofiya, radif hamda ramziy obrazlar vositasida yuzaga chiqsa, Usmon Nosir va Abdulla Oripov lirikasida individual poetik tafakkur, emotsional sintaksis hamda falsafiy mushohada ustuvorlik kasb etadi. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida esa Go‘zal Begim poetikasida assotsiativ tafakkur, paradoksal obrazlar va ramziy ifoda usullari shaklning yangi estetik imkoniyatlarini namoyon etadi.

Mazmun faqat leksik birliklar orqali emas, balki poetik shaklning ritmik va kompozitsion vositalari yordamida ham yuzaga chiqmoqda. Bu holat shaklning mazmunni estetik tashkil etuvchi faol unsur ekanligini tasdiqlaydi. Demak, poetik shakl mazmunning falsafiy qatlamini yuzaga chiqarishda faol estetik vosita vazifasini bajaradi.

Xulosalar. Shu tariqa, tadqiqot natijasida quyidagi aniq xulosalarga kelindi:

1. Poetik shakl har bir tarixiy davrda o‘ziga xos texnik vositalar (aruz – barmoq – assotsiativ tuzilma) orqali yangilanib borgan, biroq uning mazmunni estetik jihatdan tashkil etuvchi faol vazifasi barcha davrlarda saqlanib qolgan.

2. Shakl va mazmunni alohida-alohida emas, balki yagona poetik tizim sifatida tahlil qilish, xususan, vazn, qofiya, radif va badiiy san’atlarni mazmun bilan bog‘liq holda o‘rganish she’riy matnning badiiy mohiyatini ancha chuqurroq anglashga imkon beradi.

3. Individual poetik uslub aynan shakl va mazmunning ijodkorga xos tarzda uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadi, bu esa bir xil mavzuning turli shoirlar ijodida mutlaqo boshqacha badiiy ko‘rinishga ega bo‘lishini izohlaydi.

Kelgusi tadqiqot istiqbollari. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu masalani zamonaviy o‘zbek she’riyatining boshqa vakillari (masalan, erkin she’r namunalari) misolida kengroq o‘rganish, xususan, vazn tizimidan voz kechilgan she’riy shakllarda mazmun-shakl uyg‘unligining qanday ta’minlanishini tahlil qilish istiqbolli yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bobur Z.M. Har kimki vafo qilsa. Toshkent, “Yangi avlod”, 2003, 53-bet.

(2). Go‘zal Begim. Uchayotgan yaproq soyasi. Toshkent, “Yozuvchi”, 2002, 10-bet.

(3). Navoiy A. Orazin yapqoch ko‘zumdin. Toshkent, “Zabarjad Media”, 2023, 15-bet.

(4). Oripov A. Tanlangan asarlar. I jild, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000, 14-bet.

(5). Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, Navoiy universiteti, 2018, 134-bet.

(6). Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent, “Akademnashr”, 2010, 58-bet.

(7). Rahmonova D. Tavallo ijodida poetik shakl, mazmun va obraz yangilanishi tamoyillari. Monografiya, Toshkent, “Bookmany Print”, 2024, 7-bet.

(8). Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2005, 142-bet.

(9). Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008, 48-bet.
(10). Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004, 100-bet.
(11). Usmon Nosir. Yurak, sensan mening so‘zim. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2018, 3-bet.
(12). Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, “Kamalak”, 2016, 121-bet.
(13). O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 9-jild, Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

Xojamuratov Ramil Ibraximovich (Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent)

IBRAYIM YUSUPOVNING «BERDAQQA» SHE’RIDA TARIXIY SHAXS OBRAZINING LINGVOPOETIK MODELLASHUVI VA INGLIZCHA TARJIMADA QAYTA YARATILISHI

Annotatsiya. *Maqolada Ibroyim Yusupovning “Berdaqqa” she’rida tarixiy shaxs obrazini shakllantiruvchi leksik-semantik, metaforik-predikativ, sintaktik va matniy mexanizmlar o‘rganildi. She’rning qoraqalpoqcha asliyati R.Rzayeva amalga oshirgan inglizcha tarjima bilan qiyoslandi. Tahlil natijasida Berdaq obrazi alohida portret belgisi orqali emas, balki qo‘shiq, yirtiq uy, to‘rg‘ay, qaldirg‘och, Prometey va Bayron kabi mikrobrazlarning yagona semantik markazga birlashishi asosida yaratilgani aniqlandi. “Sen qosıqsań” konstruksiyasidagi metaforik identifikatsiya “shoir-qo‘shiq” konseptual modelini hosil qilishi asoslandi. Inglizcha tarjimada metaforik yadro saqlangan bo‘lsa-da, eksplikatsiya, me’yorlashtirish, konkretlashtirish, semantik torayish va harakat dinamikasining neytrallashishi kuzatildi.*

Kalit so‘zlar: *Ibroyim Yusupov, Berdaq, lingvopoetika, poetik obraz, tarixiy shaxs, metaforik predikatsiya, mikrobraz, makroobraz, semantik deviatsiya, inglizcha tarjima.*

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ОБРАЗА ИСТОРИЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В СТИХОТВОРЕНИИ ИБРАИМА ЮСУПОВА «БЕРДАККА» И ЕГО РЕКОНСТРУКЦИЯ В АНГЛИЙСКОМ ПЕРЕВОДЕ.

Аннотация. *В статье исследуются лексико-семантические, метафорико-предикативные, синтаксические и текстовые механизмы формирования образа исторической личности в стихотворении Иброима Юсупова «Бердак». Оригинальная каракалпакская версия стихотворения сравнивается с английским переводом Р.Рзаевой. В результате анализа установлено, что образ Бердака создан не посредством отдельного портретного знака, а на основе интеграции микрообразов, таких как песня, юрта, воробей, ласточка, Прометей и Байрон, в единый семантический центр. Доказано, что метафорическая идентификация в конструкции «Sen qosıqsań» формирует концептуальную модель «поэт – песня». Хотя метафорическое ядро сохранено в английском переводе, наблюдаются экспликация, нормализация, конкретизация, семантическое сужение и нейтрализация динамики движения.*

Ключевые слова: *Ибраим Юсупов, Бердак, лингвопоэтика, поэтический образ, историческая личность, метафорическое предикирование, микрообраз, макрообраз, семантическое отклонение, английский перевод.*

LINGUAPOETIC MODELING OF THE IMAGE OF A HISTORICAL PERSON IN IBRAIYM YUSUPOV’S POEM "BERDAQ" AND RECONSTRUCTION IN ENGLISH TRANSLATION

Annotation. *The article examines the lexical-semantic, metaphorical-predicative, syntactic and textual mechanisms involved in constructing the image of a historical personality in Ibrayim Yusupov’s poem “To Berdakh”. The Karakalpak original is compared with R. Rzayeva’s English translation. The analysis demonstrates that the poetic image of Berdakh is formed not through a single portrait feature but through the semantic integration of such micro-images as song, a dilapidated house, a lark, a swallow, Prometheus and Byron. The construction “Sen qosıqsań” establishes a metaphorical identification and produces the conceptual model poet is song. Although the central metaphor is retained in translation, the English version displays explicitation, normalisation, specification, semantic narrowing and neutralisation of verbal dynamics.*

Keywords: *Ibrayim Yusupov, Berdakh, linguopoetics, poetic image, historical personality, metaphorical predication, micro-image, macro-image, semantic deviation, English translation.*

Kirish. Bugungi kunda jahon filologiyasida badiiy matnni lingvopoetik jihatdan o‘rganish, undagi tarixiy shaxs obrazining til va uslub vositalari orqali shakllanish xususiyatlarini aniqlash hamda bunday obrazlarning tarjima jarayonida qayta yaratilishini tadqiq etish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisobla-

nadi. Ayniqsa, milliy adabiyot namunalari tarkibidagi tarixiy-madaniy mazmun, poetik tasvir vositalari va muallifning individual uslubini boshqa tilga to‘laqonli ko‘chirish masalasi lingvopoetika va tarjimashunoslikning muhim tadqiqot obyektiga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, qoraqalpoq adabiyotining yirik namoyandasi Ibroyim Yusupovning «Berdaqqa» she’rida tarixiy shaxs obrazi qanday lingvopoetik vositalar orqali modellashtirilgani hamda ushbu obrazning ingliz tilidagi tarjimada qayta yaratilish xususiyatlarini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ibroyim Yusupovning «Berdaqqa» she’ri qoraqalpoq xalqining buyuk mutafakkiri va mumtoz shoiri Berdaq siymosini yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirgan asarlardan biridir. She’rda tarixiy shaxs obrazi metafora, epitet, ramziy birliklar, poetik tasvir vositalari hamda milliy-madaniy konseptlar orqali shakllantirilgan bo‘lib, ular muallifning estetik qarashlari va milliy tafakkurini ifodalaydi. Bunday poetik birliklarning ingliz tiliga tarjima qilinish jarayonida ularning semantik mazmuni, badiiy ta’sirchanligi va milliy koloritini saqlab qolish tarjimon oldidagi murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli original matn va uning inglizcha tarjimasini qiyosiy tahlil qilish tarixiy shaxs obrazining qayta yaratilish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi Ibroyim Yusupovning «Berdaqqa» she’rida tarixiy shaxs obrazining lingvopoetik modellashuvini hamda uning inglizcha tarjimada qayta yaratilish xususiyatlarini qiyosiy-filologik tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida lingvopoetik, semantik, stilistik, kontekstual va qiyosiy-tarjimashunoslik metodlari asosida she’rning original va tarjima matnlari tahlil qilinib, tarixiy shaxs obrazini shakllantiruvchi poetik vositalarning funksional xususiyatlari hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan transformatsiyalar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari lingvopoetika, tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik sohalaridagi ilmiy izlanishlarni yangi nazariy qarashlar bilan boyitishga, shuningdek, qoraqalpoq adabiy merosini jahon ilmiy va madaniy makonida keng targ‘ib etishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Badiiy obrazni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishda uni tayyor estetik kategoriya sifatida tavsiflash yetarli emas. Obrazning qaysi nominatsiya, metaforik predikatsiya, grammatik shakl, sintaktik munosabat va matniy aloqa vositasida shakllanganini aniqlash lozim. Lingvopoetik tahlil til birligining faqat lug‘aviy ma’nosini emas, balki muayyan badiiy kontekstdagi estetik faolligi va asar obrazlar tizimida bajaradigan vazifasini ham ochib beradi.

Lingvopoetika lingvostilistika bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, ularning tadqiq maqsadi to‘liq bir xil emas. Lingvostilistika til vositasining uslubiy bo‘yog‘i va ekspressiv imkoniyatini tavsiflaydi. Lingvopoetika esa mazkur vositaning muayyan asar kompozitsiyasi, muallif pozitsiyasi va obrazlar tizimidagi estetik vazifasini belgilaydi. Binobarin, matnda metafora mavjudligini qayd etish tahlilning boshlang‘ich bosqichi bo‘lsa, uning boshqa til birliklari bilan aloqasi va makroobrazni shakllantirishdagi o‘rnini aniqlash asosiy bosqich hisoblanadi.

V.Y.Zadornova badiiy matnga lingvopoetik yondashuvning o‘ziga xosligi haqida fikr bildirib, “badiiy so‘z” haqida shunday deydi: “Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida matndagi til birliklari va ularning estetik vazifalari o‘ta muhim ahamiyatga ega… Tilning boshqa aspektlarini kamaytirmagan holda shuni aytish mumkinki, badiiy ta’sir kuchi, eng avvalo, so‘zda mujassamlashadi… So‘z butkul rangin va nurli bo‘yoqlarda namoyon bo‘ladi, obrazli fikrlashning quroliga aylanadi” [1;115–116 c.). Olim A.A.Lipgart konsepsiyasida ham til birligining matnda mavjudligini qayd etish emas, balki uning nima uchun tanlangani, boshqa elementlar bilan qanday munosabatga kirishgani va asarning umumiy estetik mazmuniga qanday hissa qo‘shishi muhimdir [2] (Lipgart, 1996).

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida badiiy matnni lingvopo e tik tahlil qilish, tarixiy-adabiy tahlil, qiyosiy-tipologik tahlil, qiyosiy tarjimashunoslik tahlili, matnshunoslik tahlili, diskurs tahlili, kontekstual tahlil, obrazlar tizimini kompleks tahlil qilish, shuningdek, dialektik metod, tarixiylik va mantiqiylik birligi, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish, tavsiflash va qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O‘zbek tilshunosi D.Xudoyberganova antropotsentrik paradigmada matnni ijtimoiy muloqot shakli va muayyan bilim egasining lisoniy tafakkurini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida baholaydi [3] (Xudoyberganova, 2013:5). Ushbu o‘rinda badiiy matnda til birliklari odatiy nominativ va kommunikativ vazifa bilan cheklanmay, muallifning estetik maqsadiga muvofiq qo‘shimcha semantik, emotsional-ekspressiv hamda assotsiativ mazmun kasb etadi. Shuning uchun ularni tadqiq etish til tizimining matnda voqelanish qonuniyatlarini, ijodkor individual uslubini va obrazli tafakkurning lisoniy mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, poetik obrazning leksik-semantik, frazeologik, morfologik, sintaktik va fonopoetik vositalar orqali shakllanishini zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida o‘rganish muhimdir. Bunday tahlil obrazni tayyor estetik hodisa sifatida tavsiflashdan ko‘ra, uni

hosil qilgan nominatsiya, metaforik predikatsiya, semantik valentlik, takror, inversiya va tovush uyg‘unligi kabi lisoniy omillarni ochib berishga xizmat qiladi. Natijada badiiy matn til imkoniyatlari ijodiy qayta tashkil etiladigan, milliy dunyoqarash va muallif konsepsiyasi lisoniy shaklga aylanadigan murakkab semiotik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuvda obraz muallifning voqelikni qanday ko‘rishi, baholashi va tilda qayta tashkil etishini namoyon qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Ibroyim Yusupov she’riyatidagi lirik subyektni biografik muallif bilan to‘liq tenglashtirish emas, balki til vositalari orqali shakllantirilgan matniy subyekt sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq. Shuning uchun biz ushbu tadqiqotimizda qoraqalpoq shoiri I.Yusupovning «Berdaqqa» she’rida tarixiy shaxs obrazining lisoniy modellashuvini aniqlash va mazkur obraz komponentlarining inglizcha tarjimada qayta ifodalanish darajasini baholashni maqsad qildik. Tadqiqotda kontekstual, qiyosiy, kognitiv-semantik, valentlik va lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi.

She’rning dastlabki misrasi Berdaq obrazining asosiy metaforik modelini belgilaydi:

Sen qosıqsań jırtıq úyde tuwılǵan,

Ash xalıqtıń ármanına juwılǵan.

Sen qosıqsań» konstruksiyasi Berdaq haqidagi tashqi xabar emas, tarixiy shaxsning shoir ongida «xalq qo‘shig‘i» sifatida qayta konseptuallashuvidir. Badiiy ijod insonning voqelikni hissiy idrok etishi, konseptuallashtirishi va estetik mezonlar asosida qayta modellashtirish shaklidir. San’atda borliq voqea-hodisalarning bevosita nusxasi sifatida emas, balki ijodkorning dunyoqarashi, qadriyatlari va emotsional munosabati bilan uyg‘unlashgan badiiy talqin sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonda badiiy obraz muallifning ijodiy konsepsiyasini konkret-hissiy shaklga ko‘chiruvchi asosiy semantik-estetik vosita vazifasini bajaradi. Obraz vositasida voqelikka xos belgilar saralanadi, qayta ma’nolantiriladi va muayyan g‘oyaviy maqsadga bo‘ysundiriladi. Natijada matndagi til birliklari odatiy nominativ vazifadan tashqari assotsiativ, baholovchi va emotsional-ekspressiv mazmun kasb etib, muallif pozitsiyasini kitobxonga ta’sirchan shaklda yetkazishga xizmat qiladi. Shu bois *Sen qosıqsań* konstruksiyasida inson referentini anglatuvchi *sen* olmoshi predmet ma’noli *qosıq* oti bilan ot-kesim munosabatiga kirishadi. Bu to‘liq metaforik identifykatsiyani yuzaga keltiradi.

Olim A.I.Fedorov badiiy obrazni voqelikdagi muayyan hodisa yoki faktning ijodkor estetik konsepsiyasi asosida qayta shakllantirilgan ifodasi sifatida talqin qiladi. Obrazda borliq mexanik yoki fotografik tarzda takrorlanmaydi; tasvir obyektiga xos xususiyatlar muallifning g‘oyaviy maqsadi va baholovchi munosabatiga muvofiq saralanadi. Ayrim belgilar mazmunan kuchaytiriladi, boshqalari o‘zgartiriladi yoki badiiy umumlashtirish doirasida ikkinchi planga o‘tkaziladi. Natijada obraz predmetning tashqi ko‘rinishini qayd etuvchi vosita emas, balki voqelikni muallif nuqtayi nazaridan konseptuallashtiruvchi semantik-estetik modelga aylanadi. Demak, obrazning badiiy qiymati tasvir obyektiga aynan o‘xshashligi bilan emas, ijodkor pozitsiyasini ifodalaydigan belgilarni estetik jihatdan qayta tashkil etishi bilan belgilanadi [4]. Ushbu fikrni shoir I.Yusupovning «Berdaqqa» she’rida Berdaqning qo‘shiq, to‘rg‘ay, qaldirg‘och va Prometey bilan ifodalanishini yagona portretning turli semiotik proyeksiyalari sifatida talqin qilishga imkon beradi.

J.Lakoff va M.Jonson metafora mohiyatini bir turdagi tajribani boshqa tur orqali tushunish deb izohlaydi [5]. Bu nazariyani shoir I.Yusupovning tahlil qilinayotgan «Berdaqqa» she’rida «shoir – qo‘shiq» va «Iship miyrim kəsasin» modellarini ajratishga asos bo‘ladi. P.Nyumark metaforani so‘zdan butun matngacha yoyilishi mumkin bo‘lgan ko‘chma nominatsiya sifatida ko‘radi [6]. Y.Nayda va Ch.Teyber tarjimada ma’no va uslub jihatidan «eng yaqin tabiiy muqobil»ni qayta yaratishni asosiy talab sifatida belgilaydilar [7]. Bu talab frazeologik kalka bilan tabiiy funksional muqobil o‘rtasini farqlashda muhim. Natijada Berdaq biografik shaxsdan xalqning tarixiy xotirasi va ma’naviy ovozi darajasiga ko‘tariladi.

A.A.Lipgartning «Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика» doktorlik dissertatsiyasi lingvopoetikani nazariy va amaliy jihatdan tizimlashtirgan tadqiqotlardan biridir [8]. Uning konsepsiyasi til birligining mavjudligini qayd etish bilan cheklanmay, birlik nega tanlangani, matnning boshqa elementlari bilan qanday munosabatga kirishgani va asarning umumiy estetik mazmunida qanday vazifa bajarganini aniqlashga yo‘naltiradi.

Mazkur yondashuvni uch o‘zaro bog‘liq tahlil darajasi orqali qo‘llash mumkin. Semantik darajada birlikning lug‘aviy va kontekstual ma’nolari, konnotatsiyasi hamda assotsiativ imkoniyati aniqlanadi. Metasemiotik darajada odatiy kommunikativ birlikning metafora, ramz, ironiya yoki badiiy detal sifatida qo‘shimcha estetik mazmun kasb etishi tekshiriladi. Lingvopoetik darajada esa shu birlikning obrazlar tizimi, muallif pozitsiyasi, kompozitsiya va asarning umumiy g‘oyasi bilan munosabati baholanadi. Məselen, shayir I.Yusupovtiń «Berdaqqa» atamasindag‘i qosig‘inda «Sen qosıqsań» semantik darajada ikkinchi shaxs olmoshi va ot-kesim munosabatidir; metasemiotik darajada insonni qo‘shiq bilan to‘liq tenglashtiruvchi

metaforik identifikatsiyadir; lingvopoetik darajada Berdaqni xalq ovozi va tarixiy xotira sifatida shakllantiruvchi makroobrazning yadrosidir.

Biz yuqorida ta'kidlaganimiz kabi, olimlarning nazariy qarashlariga tayangan holda tadqiqotimizda sh oir she'rlarining ingliz tilidagi badiiy tarjimasini tahlilga tortganimizda besh bosqichli mezonlar asosida modelga birlashtirgandik. 1) nominativ bosqichda obrazni atagan birlik; 2) predikativ bosqichda unga yuklangan belgi va harakat; 3) assotsiativ-kognitiv bosqichda milliy va universal ma'nolar; 4) matniy-funksional bosqichda refren, leytmotiv, kulminatsiya va kogeziv vazifa; 5) tarjimaviy bosqichda lug'aviy ma'no, semantik rol, sintaktik pozitsiya, assotsiatsiya va tovush tuzilishining saqlanish darajasi aniqlanadi. Bu model obrazdiң tarjimada saqlangan yoki yo'qolganini umumiy tarzda baholamay, uning qaysi til xususiyati saqlangani va qaysi jihati o'zgarganini aniqlashga yordam beradi.

Misollarga e'tibor beraylik: shoirning «Berdaqqa» she'rida obrazning lisoniy qurilishindag'i metaforik predikatsiyag'a e'tibor berganimizda:

Sen qosıqsa ń jırtıq ú yde tuwılǵan, misrada «Sen qosıqsa ń»da inson referentini bildiruvchi sen olmoshi mavhum-predmet ma'noli qosıq oti bilan ot-kesim munosabatiga kirishgan. O'xshatish ko'rsatkichi kuzatilmaydi. Berdaq shayir qo'shiqqa o'xshatilmaydi, qo'shiqning o'zi deb nomlanadi. Bu to'liq metaforik identifikatsiya bo'lib, «shoir – qo'shiq» konseptual modelini hosil qiladi. Qo'shiq domenidan xalq ovozi bo'lish, xotirada saqlanish, hissiy ta'sir va avlodlararo uzatilish belgilari shoir domeniga ko'chiriladi.

She'rning ingliz tilidagi matnida:

You are a song born in need,
In a decrepit yurta here,
Walking on the snow on bare feet,
There was a clatter of hoofs near,
The song, washed by the people's grief.

You are a song asosiy predikativ modelni saqlaydi. Biroq born in need asliyatda konkret makon orqali anglashiladigan qashshoqlikni oldindan izohlaydi. Natijada obraziy implikatsiya eksplikatsiyaga aylangan. Asliyatda kitobxon jırtıq ú y dan ijtimoiy ahvolni xulosa qilsa, tarjimada need bu ma'noni tayyor holda beradi.

Shuningdek, she'rning ingliz tilidagi tarjimasida jırtıq sifati asosan mato, kiyim yoki qog'oz bilan birikadi. Uning ú y bilan qo'shilishi odatiy leksik valentlikni buzib, uyning xarobligi bilan birga qashshoqlik va himoyasizlikni oldingi planga chiqaradi. Decrepit yurta esa ingliz tilida me'yoriy sifat-ot birikishiga yaqin. Denotativ mazmun saqlansa ham, asliyatdagi kutilmagan birikish estetik faolligini yo'qotadi. Bundan tashqari, umumiy ú y ning yurta bilan konkretlashishi makonni etnografik jihatdan toraytiradi; inglizcha me'yoriy shakl yurt bo'lishi kerak. Yag'niy, әpio'ayi qilip tүsindirgenimizde ao'darmada semantik deviatsiya usili qollanilg'an. Bunda so'zlarning odatiy ma'no yoki birikish qoidasidan ataylab chetga chiqib qo'llanishidir. Bu usul badiiy matnda yangi, ta'sirchan obraz yaratadi. Masalan, I.Yusupovdagi: jırtıq úy – «yirtiq uy» birikmasi odatiy emas. Odatda mato, kiyim yoki qog'oz «yirtiq» bo'ladi, uy esa «eski», «xarob» yoki «buzilgan» deb ta'riflanadi. Shoir «yirtiq uy» deb, qashshoqlik va ayanchli holatni kuchliroq ifodalagan. Bu semantik deviatsiya yesaplanadi. Shuningdek, mutarjim me'yorlashtirish usulidan ham unumli foydalangan. Bunda g'ayriodatiy ifodani tarjimada oddiy va qabul qilingan shakl bilan berilgen. Masalan, inglizcha tarjimada: a decrepit yurt – «xarob o'tov» deb berilgan. Bu ingliz tili uchun tabiiy birikma, lekin asliyatdagi «yirtiq uy»ning g'ayriodatiyligi va obrazli ta'siri biroz kamaygan.

Sherning asliyatida:

Tuwılıwdan ıǵbal izlep xalqına,
Jalań ayaq qardı basıp juwırǵan.

Misralarida juwırǵan fe'li harakatning tezligi, shiddati va maqsadga yo'nalganligini bildiradi. She'rning ingliz tilidagi tarjimasida: Walking on the snow on bare feet qatarinda Walking esa neytral davomiy harakatni anglatadi. Shu bois tarjimada faqat harakat turi emas, qahramon xarakteriga tegishli fidoyilik semasi ham susaygan. Ushbu o'rinda Running barefoot through the snow shakli dinamik obrazga yaqinroq funksional muqobil bo'lar edi. Chunki, she'rda fe'lning aspektual semantikasi, yag'niy, fe'l ifodalagan harakatning qanday kechishini bildiruvchi ma'nosi, ya'ni harakat tez yoki sekin, davomiy yoki qisqa, boshlangan yoki tugallangan, bir marta yoki takroriy ekanini ko'rsatg'an bolsa, Masalan: Jalań ayaq qardı basıp juwırǵan. Bu yerdagi juwırǵan fe'li tezlik, shiddat va faol harakatni ifodalaydi, al inglizcha tarjimada esa: Walking on the snow on bare feet qatarda Walking «yurish» fe'li harakatni sokin va oddiy tarzda ifodalaydi. Shuning uchun tarjimada asliyatdagi tezlik va shiddat ma'nosi pasaygan deyish mumkin.

Shoirning «*Ash xalıqtıń ármanına juwılǵan*» she'r misralarida árman leksemasida qayg'u, amalga oshmagan orzu va kelajakka intilish semalari birlashadi. She'rning ushbu misrasida ingliz tilidagi tarjimasida «The song, washed by the people's grief» qatirindag'i grief esa, asosan, yo'qotishdan kelgan qayg'uni bildiradi. Transformatsiyani á rman: qayg'u+orzu+intilish→ grief: qayg'u ko'rinishida ifodalash mumkin. Al, sorrow and longing juftligi bolsa, semantik maydonni to'liqroq qamrab alar yedi.

Shu bilan birgalikda, shoirning ushbu she'rida mikrobrazlarning makroobrazga o'tish jarayoni kuzatiladi. Msasalan:

Mikrobraz	Faol sema	Berdaq makroobrazidagi vazifa
qo'shiq	xalq ovozi	shoir va xalq xotirasi birligi
yirtiq uy	Qashshoqlik	xalq bilan ijtimoiy birlik
to'rg'ay	tanqis muhitda sayrash	ijodiy sabot
qaldirg'och	oz imkoniyatda yordam	fidoyilik
Prometey olovi	ma'rifat va isyon	ma'naviy jasorat
Bayron	jahoniy shuhrat	milliy qadr va jahon mezoni munosabati

Ya'ni, mikroobrazdan makroobrazga o'tish asardagi kichik obraz va badiiy detallarning birlashib, bitta katta va yaxlit obrazni hosil qilishi yesaplanadi. Bul jerde mikroobraz – muayyan so'z, ibora, o'xshatish yoki kichik badiiy detal orqali yaratilgan obraz yesaplanadi. Al makroobra – asar davomidagi bir nechta mikroobrazlarning birlashishidan hosil bo'lgan umumiy obraz yesaplanadi. Yuqoridagi jadvalda keltirilgani kabi shoir I.Yusupovning «Berdaqqa» she'rida: «qo'shiq» – Berdaqning xalq ovozi ekanini; «yirtiq uy» – uning qashshoq muhitda ulg'ayganini; «to'rg'ay» – og'ir sharoitda ham ijod qilganini; «qal-dirg'och» – xalqqa fidoyilik bilan xizmat qilganini; «Prometey» – ma'rifat va ozodlik uchun kurashganini anglatadi. Bularning har biri mikroobraz yesaplanip, usilardiń barchasi birlashib, Berdaqning xalqparvar, jasoratli va fidoyi shoir sifatidagi umumiy qiyofasini – makroobrazini yaratadi. Ilimpaz Y.A.Goncharova-ning qahramon obrazini yagona semantik markaz atrofida birlashgan portret, harakat va ichki holatlar maj-muasi sifatida tushuntirishi [10] mazkur tizimni izohlaydi. She'rda sen deyktik markaz, unga bog'langan metaforik predikatlar esa obrazni bosqichma-bosqich yig'uvchi belgilar vazifasini bajaradi.

Shoir I.Yusupovning «Berdaqqa» nomli she'rini ingliz tilidagi tarjimasi bilan qiyyoslaganimizda matnda tarjima transformatsiyalarining lingvistik model id agi tahlil usullari aniqlandi.

Tarjima transformatsiyalari

Lisoniy hodisa	Asliyat	Inglizcha tarjima	Natija
metaforik predikatsiya	Sen qosıqsań	You are a song	konseptual yadro saqlangan
semantik deviatsiya	jırtıq úy	decrepit yurta	me'yorlashtirish yuz bergan
makon nominatsiyasi	úy	yurta	etnografik konkretlashtirish
harakat tarzi	juwırǵan	walking	dinamik sema neytrallashgan
konnotatsiya	árman	grief	orzu va intilish semalari yo'qolgan
implitsit ma'no	jırtıq úy	born in need	ijtimoiy ma'no eksplikatsiya qilingan

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Umumlashtirib aytganimizda, shoir I. Yusupovning «Berdaqqa» she'rida tarixiy shaxs obrazi alohida metafora yoki portret detali emas, balki nominatsiya, metaforik predikatsiya va mikrobrazlarning matniy munosabatidan tashkil topgan semantik tizimdir. Sen qosıqsań konstruksiyasi Berdaqni xalq ovozi va madaniy xotira sifatida konseptuallashtiruvchi makroobrazning yadrosini hosil qiladi.

Shoirning «Berdaqqa» nomli she'rining inglizcha tarjimasida «shoir – qo'shiq» konseptual modeli saqlangan. Biroq jırtıq ú y ning decrepit yurta bilan berilishi semantik deviatsiyani me'yorlashtirgan; juwırǵan ning walking orqali ifodalanishi harakat dinamikasini susaytirgan; á rman ning grief bilan almashtirilishi esa konnotativ hajmni toraytirgan. Demak, obraz tarjimasini baholashda lug'aviy ma'no bilangina cheklanmasdan, metaforik model, leksik valentlik, harakat tarzi, konnotatsiya va matniy vazifani ham hisobga olish zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: дис. … д-ра филол. наук, Москва, 1992, с. 30. https://cheloveknauka.com/ slovesno-hudozhestvennoe-proizvedenie-na-raznyh-yazykah-kak-predmet-lingvopoeticheskogo-issledovaniya

(2). Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика. Дис. … д-ра филол. наук, Москва, 1996, 2 т., 656 с.
https://search.rsl.ru/ru/record/01000145449?utm_source=chatgpt.com

(3). Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Тошкент, “Фан”, 2013, 5-bet. https://kutubxona.adpi.uz/preview?filename=120dxudoyberganovamatnningantropotsentriktadkikoti.pdf
(4). Фёдоров А.И. Образная речь. Новосибирск, “Наука”, Сибирское отделение, 1985, 28 с. https://ruslan-neo.nsu.ru/pwb/detail?db=BOOKS&id=RU%5CNSU%5Cbooks%5C10279
(5). Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago; London: University of Chicago Press, 1980, p. 5. https://cs.uwaterloo.ca/~jhoey/teaching/cs886-affect/papers/LakoffJohnsonMetaphorsWeLiveBy.pdf
(6). Newmark P.A Textbook of Translation. New York; London, Prentice Hall, 1988, p.104. https:// ru. scribd.com/document/975142435/A-textbook-of-translation-Peter-Newmark-Z-Library-1
(7). Nida E.A., Taber Ch.R. The Theory and Practice of Translation. Leiden, E.J. Brill, 1969, p. 12. https://books.google.co.uz/books/about/The_theory_and_practice_of_Biblical_tran.html?id=jPIeAAAAIAAJ&redir_esc=y
(8). Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика. Дис. … д-ра филол. наук, Москва, 1996, 236 с.
(9). Рзаева Р.К. Вопросы художественного перевода: лирика каракалпакского поэта И.Юсупова: учебно-методическое пособие, Нукус, 2015, с. 25. https://ndpi.uz/uz
(10). Гончарова Е.А. Когнитивно-коммуникативные параметры ситуации порождения, восприятия и интерпретации литературного текста. Язык. Текст. Культура: Studia Linguistica. Вып. XVI. Санкт-Петербург, 2007, с. 87. https://ephil.herzen.spb.ru/wp-content/uploads/2009/05/studia-16.pdf

Qodirova Ma’rifat Abdullayevna (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti “Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasi assistenti (PhD); qodirovamarifat@gmail.com);
Fayzullayeva Yulduz (1-bosqich talabasi; fayzullayeva yulduz@gmail.com)

JAMIYATDAGI MA’NAVIY INQIROZ VA INSON RUHIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Ibodinovning “Latofat do‘konidagi qatl” qissasi, asarning badiiy-falsafiy mohiyati, qahramonlardagi ruhiy o‘zgarishlar, jamiyatning ma’naviy inqiroziga sabab bo‘luvchi illatlar tahlil qilinadi. Muallif qissada “qatl” tushunchasi orqali faqatgina jismoniy o‘limni emas, balki ma’naviy qadriyatlarning yemirilishi, jamiyatdagi axloqiy tanazzulni, inson tuyg‘ularining so‘nishi va shaxsning ichki dunyosida yuz beradigan ziddiyatlarni aks ettiradi. Qolaversa, qahramonning ichki kechinmalari orqali jamiyatdagi ijtimoiy-maishiy muammolar o‘rtaga tashlanadi.*

Kalit so‘zlar*: qissa, qahramon, qatl, qadriyat, ruhiyat, psixologiya, ijtimoiy muammo.*

Кодирова Марифат Абдуллаевна (доцент кафедры “Литература периода независимости и литературоведение” Института языков и культуры народов Центральной Азии Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (кандидат наук); qodirovamarifat@gmail.com),
Файзуллаева Юлдуз (студентка 1 курса; fayzullayeva yulduz@gmail.com)

ДУХОВНЫЙ КРИЗИС В ОБЩЕСТВЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ ДУХЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется повесть Алишера Ибодинова «Убийство в магазине “Латофат”, её художественно-философская сущность, духовно-психологические изменения героев, а также факторы, способствующие нравственному кризису общества. Посредством понятия “убийство” автор раскрывает не только физическую смерть, но и разрушение духовных ценностей, нравственный упадок общества, угасание человеческих чувств и внутренние противоречия личности. Кроме того, через внутренние переживания героев освещаются актуальные социально-бытовые проблемы современного общества.*

Ключевые слова*: повесть, герой, убийство, ценности, духовность, психология, социальные проблемы.*

Qodirova Ma’rifat Abdullayevna (Assistant Professor of the Department of “Literature of the Independence Period and Literary Theory” of the Institute of Languages and Culture of the Peoples of Central Asia, Samarkand State University named after Sharof Rashidov (PhD); qodirovamarifat@gmail.com),
Fayzullayeva Yulduz (1st year student; fayzullayeva yulduz@gmail.com)

THE SPIRITUAL CRISIS IN SOCIETY AND THE HUMAN SPIRIT

Annotation. *This article analyzes Alisher Ibodinov’s novella “The Murder in Latofat’s Shop”, focusing on its artistic and philosophical essence, the psychological transformations of the characters, and the factors contributing to the spiritual crisis of society. Through the concept of “murder”, the author depicts not only physical death but also the destruction of moral values, ethical decline, the fading of human emotions, and the inner conflicts experienced by individuals. Furthermore, the protagonist’s inner experiences serve to reveal the social and everyday problems existing within society.*

Keywords*: novella, protagonist, murder, values, spirituality, psychology, social issues.*

Kirish. “Qissa, dastlab, xalq og‘zaki ijodida shakllangan” [14]. Dastlab, qissalar ijro qilingan, keyinchali,k ular iqtidorli shaxslar tomonidan qayta ishlanib, kitob holiga keltirilgan. Bu janrda muallif faqat tashqi voqealarni emas, balki qahramonlarning ichki dunyosi, psixologik holati va xarakter-xususiyatini ham keng yoritadi. Shuningdek, qissa janri jamiyatdagi muammolarni badiiy uslubda namoyon qiladi. Shu o‘rinda Alisher Ibodinov o‘zining mashhur “Latofat do‘konidagi qatl” asari orqali qissa janriga salmoqli hissa qo‘shgan.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti vakillaridan biri Alisher Ibodinov ijodida ham inson va jamiyat munosabatlari, ma’naviy qadriyatlar, axloqiy tanazzul hamda ruhiy kechinmalar muhim o‘rin egallaydi. Yozuvchining “Latofat do‘konidagi qatl” qissasi jamiyatdagi muammolarni, ma’naviyatning inqiroziga sabab bo‘layotgan illatlarni, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashni badiiy vositalar yordamida yoritgan. qolaversa, ushbu qissa hozirgi kungacha voqealar rivoji va sirli hodisalari orqali turli muhokamalarga sabab bo‘lmoqda.

Alisher Ibodinovning “Latofat do‘konidagi qatl” qissasi detektiv janrda yozilganlik xususiyati va ma’no mazmuni bilan kitobxonlar orasida mashhur. Adib detektiv qissa janrida juda qobiliyatli yozuvchi bo‘lgan. Bilamizki, u haqida “Detektiv janr deyarli yo‘q edi. 50-yillarda “Shohida emas, bargida” degan bir kitobcha bo‘lar edi. Undan keyin boshqa bunday asar ko‘rmadim”, deb izohlaydi O‘zbekiston milliy me-diamarkazi rahbari o‘rinbosari Abdulholiq Abdurazzoqov. Tadqiqotchilar qissani tahlil qilishda unga “Qis-sa detektiv janrda mahorat bilan yozilgan”, deya ta’rif-tavsif berishadi. Chunki undagi qahramonlar harakati va voqealar rivoji bugungi kunga aloqador bo‘lgan muammolarni yaqqol yoritadi. Yana asarda qotillik ustida qilingan taxminlar, sirli hodisalar va konfliktlar kitobxonlarnining qiziqishiga sabab bo‘ladi. Tahlil-larga ko‘ra, qahramonlarning qanday razillik botqog‘iga tushishi va buning salbiy oqibatlari mahorat bilan aks ettirilgan bo‘lib, kitobxonni xuddi shu hodisalar atrofida yashayotgandek his qildiradi. Detektiv qissa talab qiladigan barcha shartlar (jinoyat va sirli hodisa, tergov jarayoni, dalil va ishoralar, shubhali qahramonlar, keskin sujet va hokazo) ushbu asarda mujassamlashgan. Masalan, latofatning o‘limiga sabab bo‘lgan barcha ishora va ashyolar ahrorga qarshi edi. Bunda ahror ko‘p marotaba tergov qilinib, jinoyat ishi aniqlandi. O‘sha vaqtda kitobxon ahror bilan yashaydi uning hissiyotlarini tushunadi. Tekshiruvlar chuqur va e’tibor bilan olib borilganligi tufayli haqiqiy jinoyatchi aniqlanadi.

Tadqiqotning metadologiyasi. “Latofat do‘konidagi qatl” qissasi jamiyatdagi ko‘zga ko‘rinmas, lekin jamiyatni ich ichidan yemirayotgan muammolarning salbiy oqibatlarini ko‘rsatib berdi. Ziddiyatli voqealar Ahrorjon ismli qahramon yordamida ochib berilgan bo‘lib, uning yo‘qchilik tufayli pul topish niyatida shaharga ketishi bilan boshlanadi. Asarda jamiyat ma’naviyatini pasaytiruvchi omillardan biri bu qahramonlarning milliy qadriyatlardan ko‘ra yevropacha uslubni ustun bilib yashashi ko‘rsatiladi. Xususan, bosh qahramonlaridan biri Latofat murakkab psixologik ruhiyatga ega qahramon bo‘lib, u yevropacha uslubda yashaydi, asosan, shu ruhda fikrlaydi. Buni Ahrorjonning Latofatni uyiga tug‘ilgan kunga borganidagi mehmonxonasi va dasturxonini bezatish uslubidan bilsa bo‘ladi. Asarda “Mehmonxona 80-yillarda urf bo‘lgan Chexiyaning qoramtir eman garnituri bilan jihozlangan, biroq garniturning devor-shkafi ichi qimmatbaho billur idishlar, chinni o‘yinchoqlar bilan to‘ldirilgan. Polga qalin Belgiya gilamlari to‘shalgan. Dasturxon yevropacha tuzalgan, har bir mehmon uchun alohida kumush qoshiq, sanchqi, pichoqlar, hatto ovqat payti taqiladigan oppoq bo‘yin sochiqlar ham u yer bu yerda konusday dikkayib turibdi” [2;17-b.]. Asardagi qatl tushunchasi, asosanm Latofatning o‘limi bilan bog‘liq hodisa emas, balki milliy qadriyatlarning unutilishi, insonlarning bir-biriga nisbatan adolatsizlik va yomonlik qilishi, pul, boylik uchun tubanlashib borayotgani nazarda tutilgan. Chunki ular buning ortidan o‘z hayotlariga o‘lim hukmini yaqinlashtirmoqda. Masalan, asarning bosh qahramoni Ahrorjonning tog‘asi pul, boylik, ichkilik ortidan quvib noto‘g‘ri yo‘llarga kirib qoladi va jiyanini ham shu ishga aralashtiradi. Natijada qilgan gunohlari oshkor bo‘lib, ichkilik ichib o‘zini jarga mashina bilan otib yuboradi. Bundan tashqari, muallif asar oxirida ko‘plab salbiy obrazdagi qahramonlarni fojiali yakun bilan tasvirlaydi. Misol uchun, Jontas va Abdurahmon kabi giyohvandlik savdosi bilan shug‘ullanuvchilar. Ularning o‘limini oddiy emas, ayanchli holatda aks ettiradi. Bu bilan muallif har qanday noto‘g‘ri qilingan ishning jazosi borligini, unga hamma javob berishini isbotlamoqchi bo‘lgan. Bu insonlarga berilgan jazo qonuniy emas, balki taqdir hukmi orqali amalga oshirilgan. Latofat, Abdurahmon, Jontas kabi qahramonlarning o‘limiga aloqador bo‘lgan narsalardan biri giyohvand moddalar savdosi hisoblanadi. Chunki ular giyohvandlik savosida ishtirokchi bo‘lib, uni yetkazib beruvchi bo‘lishgan. Lekin eng og‘iri Ahrorning tog‘asi ham bunga aloqador bo‘lsa-da, bu ishning qanchalik xavfli ekanini bila turib, o‘z jiyanini shu tubsiz quduqqa tortadi. Afsuski, bu xato yo‘l ularni hayotini yomon tomonga o‘zgartirib yubordi. Muallif shu hodisa orqali giyohvand moddalarning inson hayotiga hech qachon foyda keltirmasligini isbotlagan.

Asarning voqealar rivoji va ijtimoiy muhitini ifodalashda inson ruhiyati muhim rol o‘ynaydi. Chunki qahramonlar turli xil xarakter, xususiyat, psixologiyaga ega inson sifatida tasvirlanadi. Ularning har biri boshqa dunyoda yashaydi, boshqacha fikrlaydi. Shu orqali muallif qissada jamiyatdagi turli toifadagi odamlarni namoyish qilishga uringan. Ahror tabiatan sodda va ishonuvchan qishloq yigiti. Shuning uchun u giyohvandfurushlarga giyohvand moddani yetkazib berishda bilmasdan qo‘shilgan. Shuningdek, Latofatning ko‘knori haqidagi gaplariga chindan ishongan Ahror haqida asarda shunday ta’rif beriladi: “Shu tobda Latofat koknor emas, Ahrorjonning jonini so‘rasa ham u ikkilanmas edi...” [2;9-b.]. Latofat chiroyli va xushchaqchaq ayol sifatida gavdalanadi. U ko‘rinishidan zamonaviy, yevropacha uslubda yashaydigan ayoldek ko‘rinsa-da, ichki ruhiyati murakkab, bardoshli va ruhiy ziddiyatlarga to‘la ayol qahramon. Asar davomida uni salbiy xususiyatga ega qahramon deb tasavvur qilish mumkin. Ammo Latofatning Ahrorga yozgan oxirgi maktubida uning qanday yaxshi xususiyatlari borligini bilish mumkin. Asarda ijobiy qahramonlar bilan birga salbiy qahramonlar ham ishtirok etgan. Ulardan biri Yoqub, u giyohvand savdosining boshliqlaridan biri. Yoqub pul, chiroyli ayollarga o‘ch bo‘lsa-da, bir so‘zli qahramon. Uning ayollarga bo‘lgan hirsi yuqori bo‘lganligi tufayli latofatning hayotiga salbiy ta’sir qildi. Yoqubning jinoyat yo‘lidagi odamlari ko‘p bo‘lgan, bu uning jamiyat hayotida chuqur ildiz otganligini bildiradi. Yozuvchi ushbu qahramon orqali oddiy insonlarning hayotiga qanday yomon ta’sir qilishini ko‘rsatib bermoqchi bo‘lgan. Bundan tashqari, ijtimoiy muhit inson ruhiyatiga ta’sir qiladi, sababi hech kim azaldan yomon bo‘lishni, noto‘ri yo‘lga kirib xato qilishni xohlamaydi, aksincha, atrofdagilar unga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Tahlil va natijalar. Asar yakuniga kelib, barcha muammolar o‘z yechimini topadi. Ahror Latofatni o‘ldirmagani isbotlanib, haqiqiy aybdor aniqlanadi. Chunki Latofatni Ahror o‘ldirmagan edi. Giyohvandlik savdosiga qo‘shilgan ko‘pchilik o‘z joniga qasd qiladi yoki o‘ldirib ketiladi. Latofatning yagona o‘gli Shuhrat Ahrorda qoladi. Bu bilan muallif haqiqat doim g‘alaba qozonishini, noto‘gri yo‘lning oxiri fojia ekanini aytmoqchi bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, muallif “Latofat do‘konidagi qatl” qissasi orqali jamiyatdagi ma’naviy inqirozning inson hayotiga salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Ushbu jarayonlarda inson ruhiy olami va ma’naviy qarashlari muhim bo‘lib, uning hayotdagi tanlovlariga bevosita tasir ko‘rsatadi. Qissa qadriyatlarning susayishi, pul, davlatga ruju qo‘yish va axloqiy buzilishlarning fojiali oqibatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Eshmatova Y.B. Istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. Toshkent, 2020.
(2). Ibodinov A. Latofat do‘konidagi qatl. Toshkent, “Sharq”, 2001.

Allaberganova Umida Mammatovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Fakultetlararo chet tillar” kafedrasi o‘qituvchisi)

“TRISTAN VA IZOLDA” HAMDA “TOHIR VA ZUHRA” DOSTONLARIDA O‘RTA ASR ROMANTIKASI: QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada G‘arb va Sharq o‘rta asr adabiyotining ikkita nodir yodgorligi – “Tristan va Izolda” hamda “Tohir va Zuhra” dostonlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ikkala asarning sujet qurilishi, obrazlar tizimi, ziddiyat tabiati va badiiy-falsafiy xususiyatlaridagi umumiylik va o‘ziga xosliklar o‘rganiladi. Ikkala dostonda ham oshiqlarning taqiqlangan muhabbati, ijtimoiy to‘siqlar va sadoqat masalalari markaziy o‘rin egallashi, biroq bu mavzularning yechimi G‘arb va Sharq madaniyati, xususan, G‘arbda kurtoaziya muhabbati va Sharqda tasavvufiy-falsafiy qarashlar doirasida turlicha talqin etilishi ko‘rsatib beriladi. Maqolada “Tristan va Izolda”dagi taqdiriy sevgi-jo‘shqinlik (“tragik fatalizm”) va “Tohir va Zuhra”dagi sadoqat va adolat uchun kurash (“ijtimoiy va axloqiy drama”) aspektlari qiyoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘rta asr romantikasi, ‘Tristan va Izolda”, “Tohir va Zuhra”, qiyosiy adabiyotshunoslik, doston, kurtoaziya muhabbati, folklor, xalq dostonlari, badiiy tahlil.*

Аллаберганова Умида Мамматовна (преподаватель, Ургенческий государственный университет имени Абу Райхона Беруни, факультет иностранной философии, межфакультетское отделение иностранных языков)

“ТРИСТАН И ИЗОЛЬДА” И “ТОХИР И ЗУХРА”: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СРЕДНЕВЕКОВОЙ РОМАНТИКИ

Аннотация. *В данной статье проводится сопоставительный анализ двух выдающихся памятников западной и восточной средневековой литературы – эпосов “Тристан и Изольда” и “Тохир и Зухра”. Исследуются общие черты и специфические особенности сюжетостроения, системы*

образов, природы конфликта и художественно-философских аспектов обоих произведений. Показано, что в обоих эпосах центральное место занимает тема запретной любви, социальных преград и верности, однако трактовка этих мотивов различается в силу культурных особенностей: на Западе – в контексте куртуазной любви, на Востоке – в рамках суфийско-философских воззрений. В статье сопоставляются аспекты фатальной страсти ("трагический фатализм") в "Тристане и Изольде" и борьбы за верность и справедливость ("социальная и нравственная драма") в "Тохире и Зухре".

Ключевые слова: *средневековая романтика, "Тристан и Изольда", "Тохир и Зухра", сравнительное литературоведение, эпос, куртуазная любовь, фольклор, народные дастаны, художественный анализ.*

Allaberganova Umida Mammatovna (Teacher, Urgench State University named after Abu Raykhon Beruni. Faculty of Foreign Philology, Interfaculty Foreign languages Department)

"TRISTAN AND ISOLDE" AND "TOHIR AND ZUHRA": A COMPARATIVE ANALYSIS OF MEDIEVAL ROMANCE

Annotation. *This article provides a comparative analysis of two outstanding monuments of Western and Eastern medieval literature – the epics "Tristan and Isolde" and "Tohir and Zuhra". It examines the common features and specific characteristics of plot construction, character systems, the nature of conflict, and the artistic and philosophical aspects of both works. It is shown that both epics centrally feature the theme of forbidden love, social barriers, and fidelity; however, the interpretation of these motifs differs due to cultural contexts: in the West, within the framework of courtly love, and in the East, within Sufi-philosophical perspectives. The article compares aspects of fatal passion ("tragic fatalism") in "Tristan and Isolde" with the struggle for fidelity and justice ("social and moral drama") in "Tohir and Zuhra".*

Keywords: *medieval romance, Tristan and Isolde, Tohir and Zuhra, comparative literature, epic, courtly love, folklore, folk dastans, literary analysis.*

Kirish (Introduction). O'rta asrlar adabiyoti G'arb va Sharqda o'ziga xos tarzda rivojlanib, insonning ichki dunyosi, uning his-tuyg'ulari va ijtimoiy munosabatlari haqida chuqur badiiy talqinlarni yaratdi. Bu davrning eng yorqin namunalaridan biri bu sevgi-muhabbat mavzusiga bag'ishlangan romantik dostonlardir. G'arbda "Tristan va Izolda" afsonasi[1] [2.5.7-b.] Sharqda, xususan, O'zbekiston xalq og'zaki ijodida "Tohir va Zuhra" dostoni[2] [1;3.8-b.] o'zining ta'sirchanligi va falsafiy chuqurligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada mazkur ikki dostonni qiyosiy tahlil qilish orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, shuningdek, o'rta asr romantikasining madaniy xususiyatlarini yoritish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). "Tristan va Izolda" haqidagi dostonning ilk yozma manbalari XII asrga oid bo'lib, uning turli versiyalari (Thomas Britan, Béroul va boshqalar) adabiyotshunoslar tomonidan keng o'rganilgan[3] [2;9-b.]. Ushbu asar G'arb madaniyatida kurtoaziya muhabbati va ritsarlik ideallarining eng muhim ifodalaridan biri hisoblanadi[4] [12-b.]. "Tohir va Zuhra" dostoni esa turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek, turkman, ozarbayjon va boshqa xalqlar folklorida keng tarqalgan bo'lib, uning ilk adabiy ishlovlari XVII–XVIII asrlarda Sayyodiy tomonidan berilgan [5] [1;3.8-b.]. "Tohir va Zuhra" sujeti o'ziga xos ijtimoiy-axloqiy mazmun kasb etib, xalqning adolat va sadoqat haqidagi orzularini aks ettiradi[6] [1;11-b.]. Ikkala asar ham o'rta asr romantikasining namunasi sifatida tadqiqotchilar e'tiborini tortgan, biroq ularni qiyosiy jihatdan o'rganish yetarlicha amalga oshirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada qiyosiy-tipologik, tarixiy-adabiy va struktural tahlil usullari qo'llanildi. Asosiy e'tibor ikkala dostondagi syujet, obrazlar tizimi (Tristan-Izolda va Tohir-Zuhra), ziddiyat (konflikt) turlari, hamda asarlardagi muhabbat va sadoqat falsafasini taqqoslashga qaratildi. Tadqiqotda dostonlarning xalq og'zaki variantlari[7] [3;6.8-b.] hamda ularga berilgan adabiy ishlovlar[8] [1;2.9-b.] tayanch manba sifatida xizmat qildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Sujet va asosiy ziddiyat. Ikkala dostonning markazida oshiqlarning taqiqlangan muhabbati va uning fojiali oqibatlari turadi. "Tristan va Izolda"da ziddiyat sevgi,

[1] Tristan va Iseult // Vikipediya [2-b.].
[2] Tohir va Zuhra. Vikipediya [3-b.].
[3] Tristan va Iseult. Vikipediya [2-b.].
[4] Dzieje Tristana i Izoldy. Zintegrowana Platforma Edukacyjna [12-b.].
[5] Саиеодий. Тохир ва Зухра. Тошкент, 1960 [1-b.].
[6] Молланепес. Зохре – Тахыр. Ашгабат, 1959 [1-b.].
[7] Tohir va Zuhra. Vikipediya [3-b.].
[8] Короглы Х. Тахир и Зохра. Краткая литературная энциклопедия [1-b.].

burch (amakisiga bo‘lgan sadoqat) va ijtimoiy me’yorlar (zino) o‘rtasida vujudga keladi. Tristan va Izoldaning sevgisi sehrli iksir tufayli avj oladi, bu esa ularning taqdirini oldindan belgilab qo‘yadi[1] [2;10-b.]. “Tohir va Zuhra”da esa ziddiyat, asosan, ijtimoiy tabiatga ega: Tohir va Zuhraning sevgisiga podshoh (Zuhraning otasi) va ijtimoiy tengsizlik to‘sqinlik qiladi[2] [1;8-b.]. Bu yerda sevgi adolatsizlikka qarshi kurash timsoliga aylanadi.

Muhabbat talqini. G‘arb dostoni kurtoaziya muhabbati kanonlarida yaratilgan bo‘lib, bu yerda sevgi qahramonlik, fidoyilik va ba’zan diniy-axloqiy qarama-qarshiliklar bilan uyg‘unlashadi[3] [9.12-b.]. Tristan va Izoldaning his-tuyg‘ulari “o‘limga olib boruvchi ehtiros” (amour-passion) sifatida tasvirlanadi. Sharqda esa “Tohir va Zuhra” sevgisi ko‘proq sadoqat va poklik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. U tasavvufiy-falsafiy qarashlar bilan uyg‘unlashib, sevgiliga bo‘lgan muhabbat orqali yuksak ma’naviy fazilatlarga erishish g‘oyasini ilgari suradi[4] [3;11-b.].

Obrazlar xarakteristikasi. Tristan – jasur ritsar, sodiq do‘st, lekin ichki qarama-qarshiliklarga to‘la obraz[5] [2-b.]. Izold –go‘zallik va ehtiros timsoli. Ikkalasi ham taqdir qurboni. Tohir va Zuhra obrazlari esa ijtimoiy zulmga qarshi kurashchi, sodiq va matonatli qahramonlar sifatida gavdalanadi[6] [8-b.]. Ularning sevgisi pokiza va daxisiz bo‘lib, asarda ijtimoiy adolat uchun kurash g‘oyasi bilan chambarchas bog‘langan.

“Tristan va Izolda”da sehrli muhabbat iksiri, oq va qora yelkanlar, qilich va qalqon kabi predmetlar ramziy ma’no kasb etadi. Iksir taqdirning oldindan belgilab qo‘yilganligini, yelkanlar ranglari esa umid va umidsizlik, hayot va o‘lim o‘rtasidagi kurashni ifodalaydi. Masalan, Tristanning so‘nggi lahzada qora yelkanni ko‘rishi uning hayotdan uzilishiga sabab bo‘ladi. Bu sujetda taqdirga qarshi kurashning befoyda ekanligi ramziy aks etgan. “Tohir va Zuhra”da esa bulbul va gul, oy va quyosh kabi Sharq she’riyatida an’anaviy bo‘lgan obrazlar sevgi va sadoqatni ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, Tohirning majnunlik darajasiga yetgan muhabbati, uning sahroda yolg‘iz qolishi va tabiat bilan uyg‘unlashgan tasvirlari orqali ramziy ma’no chuqurlashadi. Zuhraning intizorlikda o‘tgan yillari va uning pokligi ramziy jihatdan Sharq adabiyotida “Layli va Majnun” an’analari bilan bog‘lanib, muhabbatning ma’naviy yuksaklik timsoliga aylanadi. Tabiat tasvirlari va ularning semantik yuki. G‘arb dostoni tabiati ko‘proq ritsarlik romantikasi ruhida – o‘rmonlar, qal’alar, jang maydonlari va dengiz manzaralari bilan boyitilgan. Tabiat qahramonlarning ichki kechinmalarini aks ettiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi: quyosh botishi, bo‘ron va sokin dengiz obrazlari orqali qahramonlarning kayfiyati va taqdiri o‘quvchiga yetkaziladi. “Tohir va Zuhra”da esa tabiat Sharqona lirizm – bog‘lar, buloqlar, gullar va oy yorug‘ligi bilan ifodalanadi. Bu tasvirlar nafaqat muhitni yaratadi, balki qahramonlarning hissiy holatiga mos ravishda o‘zgaradi. Tohirning zindondagi tasvirlari zulmat va qorong‘ulik, Zuhraning baxtli damlari esa yorug‘lik va bahor bilan uyg‘unlashgan. Bunday tasvirlar Sharq adabiyotining estetik tamoyillariga xos bo‘lib, muhabbatni ilohiylashtirish va tabiat bilan birlashtirish orqali yuksak ma’naviy tuyg‘ularni aks ettiradi.

Badiiy xususiyatlar. “Tristan va Izolda”da sehrgarlik, ramziy tafsilotlar (masalan, oq va qora yelkanlar) va ritsarlik urf-odatlariga oid tasvirlar muhim o‘rin egallaydi[7] [2;9-b.). “Tohir va Zuhra”da esa xalqona iboralar, afsonaviy motivlar va lirik chekinishlar ko‘proq uchraydi[8] [1;6.8-b.].

Sharqda, xususan, o‘zbek xalq dostonida islom dini va tasavvufiy qarashlar, shuningdek, xalqchil orzular – adolat, tenglik va poklik – muhabbatni ijtimoiy kurash va ma’naviy kamolot timsoliga aylantirgan. Aynan shu madaniy xususiyatlar ikkala dostonning badiiy-falsafiy yechimlari orasidagi tub farqni belgilab beradi. G‘arbda muhabbat taqdir va ehtirosning qurboni bo‘lsa, Sharqda muhabbat adolat va ma’naviy poklikni himoya qiluvchi kuchga aylanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, “Tristan va Izolda” hamda “Tohir va Zuhra” dostonlari o‘rta asr romantikasining ikki xil – G‘arb va Sharq – modelini ifodalaydi. Ikkala asar ham insoniyatning abadiy qadriyatlari – muhabbat, sadoqat va fidoyilikni madh etadi. Biroq, ulardagi ziddiyatlar va ularning yechimi madaniy-falsafiy tafovutlarni ko‘rsatadi: G‘arbda taqdir va ehtiros dramasi bo‘lsa, Sharqda ijtimoiy-adolat va ma’naviy poklik dramasi markazda turadi. Ushbu qiyosiy tahlil o‘rta asr adabiy merosini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

---

[1] Tristan va Iseult. Vikipediya [2-b.].
[2] Короглы Х. Тахир и Зохра. Краткая литературная энциклопедия [1-b.].
[3] Dzieje Tristana i Izoldy. Zintegrowana Platforma Edukacyjna [12-b.].
[4] Kitobiy Dostonlar. Qomus Info [11-b.].
[5] Tristan va Iseult. Vikipediya [2-b.].
[6] Ишанбабаева Ш.К. (Dissertatsiya) [8-b.)
[7] Tristan va Iseult. Vikipediya [2-b.].
[8] Тахир и Зохра. Краткая литературная энциклопедия [1-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):
(1). Короглы Х. Тахир и Зохра. Краткая литературная энциклопедия [1-b.].
(2). Tristan va Iseult. Vikipediya [2-b.].
(3). Tohir va Zuhra. Vikipediya [3-b.].
(4). O‘zbek xalq ijodi. Vikipediya [6-b.].
(5). Kitobiy Dostonlar. Qomus Info [11-b.].
(6). Ишанбабаева Ш.К. (Dissertatsiya) [8-b.].
(7). Bédier J. Romanas apie Tristaną ir Izoldą [9-b.].
(8). Dzieje Tristana i Izoldy. Zintegrowana Platforma Edukacyjna [12-b.].
(9). Молланепес. Зохре – Тахыр. Ашгабат, 1959 [1-b.].
(10). Саиеодий. Тохир ва Зухра. Тошкент, 1960 [1-b.].

Djurayeva Dilnoza Fazliddin qizi (O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti “To‘g‘on va Qudrat Ernazarovlar nomidagi Jamoatchilik bilan aloqalar” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi; E-mail: dfazliddinovna@mail.ru; ORCID: 0009-0003-0010-6796)

RAQAMLI EKOLOGIK KOMMUNIKATSIYADA ZAMONAVIY PR MODELLARI VA PSIXO-SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy davlat ekologik boshqaruvi va raqamli jamoatchilik bilan aloqalar (PR) tizimida klassik sotsiologik, psixologik va kommunikativ nazariyalarning integratsiyalashuv qonuniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida J.Grunig va T.Huntning ikki tomonlama simmetrik muloqot modeli, R.Thalerning “Turtki berish” konsepsiyasi hamda L.Festingerning “Kognitiv disonans” nazariyalari o‘zbek ekomedia makonidagi davlat organlari faoliyati misolida empirik tahlil qilingan. Maqolada raqamli platformalardagi byurokratik kontent anomal konsentratsiyasining aholi ongida keltirib chiqaradigan axborot disonansi hamda uni bartaraf etishda reaktiv transmedia va algoritmik PR-boshqaruv mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ikki tomonlama simmetrik model, kognitiv disonans, turtki berish nazariyasi, raqamli PR, ekologik diskurs, axborot asimmetriyasi, transmedia hikoyachilik, O‘rmon agentligi.*

Джураева Дильноза Фазлиддиновна (Самостоятельный соискатель кафедры по связям с общественностью имени Тугана и Кудрата Эрназаровых, Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана)

ИНТЕГРАЦИЯ СОВРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ PR И ПСИХО-СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ В ЦИФРОВОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация. *В данной статье исследуются закономерности интеграции классических социологических, психологических и коммуникативных теорий в систему современного государственного экологического управления и цифровых связей с общественностью (PR). В рамках исследования на примере деятельности госорганов в экомедиапространстве Узбекистана эмпирически проанализированы двусторонняя симметричная модель коммуникации Дж.Грунига и Т.Ханта, концепция «Подталкивания» (Nudge) Р.Талера и теория «Когнитивного диссонанса» Л.Фестингера. Научно обоснован информационный диссонанс, вызываемый аномальной концентрацией бюрократического контента на цифровых платформах в сознании населения, и разработаны механизмы реактивного трансмедиа и алгоритмического PR-управления для его устранения.*

Ключевые слова: *двусторонняя симметричная модель, когнитивный диссонанс, теория подталкивания, цифровой PR, экологический дискурс, информационная асимметрия, трансмедиа сторителлинг, Лесное агентство.*

Djurayeva Dilnoza Fazliddin qizi (Independent Researcher at the Department of Public Relations named after Tugan and Kudrat Ernazarov,University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan)

INTEGRATION OF MODERN PR MODELS AND PSYCHO-SOCIOLOGICAL THEORIES IN DIGITAL ECOLOGICAL COMMUNICATION

Annotation. *This article explores the laws governing the integration of classical sociological, psychological, and communicative theories within the framework of contemporary environmental public management and digital public relations (PR). Through the prism of state agencies’ performance in the Uzbek eco-media space, the study empirically analyzes J.Grunig and T.Hunt’s two-way symmetrical communication model, R.Thaler’s "Nudge" theory, and L.Festinger’s "Cognitive Dissonance" theory. The paper scientifically substantiates the informational dissonance triggered in the public consciousness by an anomalous concentration of bureaucratic content on digital platforms. Furthermore, it outlines reactive*

transmedia and algorithmic PR-management frameworks as definitive mechanisms to alleviate this dysfunction.

Keywords: *Two-way symmetrical model, cognitive dissonance, nudge theory, digital PR, ecological discourse, information asymmetry, transmedia storytelling, Forestry Agency.*

Kirish. Global iqlim transformatsiyalari, antropogen ekologik inqirozlar va hayotiy tabiiy resurslar taqchilligi sharoitida davlat boshqaruvi organlarining jamoatchilik oldidagi institutsional jozibadorligi va ekologik imijini strategik muvofiqlashtirish masalalarining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bugungi raqamli jamiyatda va Web 2.0/Web 3.0 virtual ekotizimida davlat ekologiya organlarining jamoatchilik bilan muloqoti shunchaki press-relizlar tarqatish yoki bir tomonlama axborot translyatsiyasi (monologik model) formatidan chiqib, gorizontal, sheriklik va dialogik xarakter kasb etmoqda.

O‘zbekistonda “Yashil makon” umummilliy loyihasining amalga oshirilishi, o‘rmon va yashil hududlarni kengaytirish, shuningdek, davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash borasida keng ko‘lamli institutsional islohotlar izchil davom ettirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-358- hamda PQ-184-qarorlarida belgilanganidek, 2030-yilga qadar aholining, ayniqsa, yosh avlodning ekologik madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining eng ustuvor strategik maqsadlaridan biridir. Biroq, ushbu yirik sotsiomadaniy marralarga an’anaviy, administrativ-byurokratik matbuot kotibligi formatlari yordamida erishib bo‘lmasligi aniq. Bu esa virtual auditoriya xulq-atvorini, jamoatchilik fikri dinamikasini chuqur sotsiologik va psixologik qonuniyatlar doirasida boshqarishni hamda fundamental muloqot nazariyalarini amaliy PR instrumentariysiga integratsiya qilishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi J.Grunig va T.Huntning jamoatchilik bilan aloqalar modellari, R.Thalerning "Turtki berish" [4] va L.Festingerning "Kognitiv disonans" [5] nazariyalarining o‘zaro simbiozini ilmiy asoslash hamda ularni davlat ekologik tashkilotlarining (xususan, O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish agentligi misolida) raqamli imijini transformatsiya qilish tizimiga tatbiq etishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli platformalarda davlat organlarining ekologik imijini transformatsiya qilish va jamoatchilik xulq-atvorini kommunikativ modellashtirish muammolari zamonaviy ilmiy makonda turli fanlararo yondashuvlar asosida o‘rganilmoqda. J.Grunig va T.Hunt tomonidan asoslangan jamoatchilik bilan aloqalarning ikki tomonlama simmetrik muloqot modeli raqamli makondagi ochiqlik va gorizontal dialog asosi ekanligi isbotlangan bo‘lsa, J.Macnamara davlat tuzilmalarida jamoatchilikni "tinglash arxitekturasi" (architecture of listening) muvaffaqiyatli PR-kommunikatsiyaning bosh mezoni ekanligini ilgari suradi. Virtual muhitdagi axborot inqirozlari va obro‘ eroziyasini muvofiqlashtirish mezonlari W.T.Coombs tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. L.Festingerning kognitiv disonans qonuniyatlari hamda R.Thalerning "turtki berish" (nudge) konsepsiyalari aholining ekologik qadriyatlari va real xulq-atvori o‘rtasidagi psixologik nomuvofiqliklarni kreativ mediaformatlar vositasida yumshatish mexanizmlarini ochib beradi. Markaziy Osiyo va O‘zbekiston media-makonidagi ekologik diskurs tabiati, iqlim diplomatiyasi hamda davlat idoralari PR-kommunikatsiyalarining sotsiolingvistik va lingvo-pragmatik xususiyatlari mediatadqiqotchilardan N.Qosimova, M.Xaitova va N.Muratova tomonidan tizimli o‘rganilgan. Biroq raqamli platformalardagi byurokratik kontent anomal konsentratsiyasining aholi ongida keltirib chiqaradigan axborot disonansi hamda uni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining rasmiy ochiqlik indeksi ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy-komparativ tahlil qilish masalalari yaxlit ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Metodologiya. Raqamli ekotizimda davlat organlarining kommunikatsiya strategiyasi va jamoatchilik xulq-atvorini modellashtirish muammolari zamonaviy ilmiy makonda sotsiometrik va lingvo-pragmatik yondashuvlar doirasida tadqiq etilmoqda. Xususan, raqamli media platformalardagi ekologik diskurs tabiati, "yashil imij" transformatsiyasi va mediakontent vositasida ijtimoiy nazorat mexanizmlari xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Biroq klassik psixologik va sotsiologik qonuniyatlarning (kognitiv disonans, turtki berish va simmetrik muloqot) virtual media muhitidagi algoritmik PR-boshqaruv drayverlari bilan o‘zaro funksional simbiozi hamda ularning davlat ekologik institutlari ochiqlik indekslariga ta’siri konseptual jihatdan tizimlashtirilmagan.

Mazkur tadqiqotda gumanitar va ijtimoiy kommunikatsiyalar fanining konvergent tabiatidan kelib chiqib, metodologik sintez va poliaspektli tahlil yondashuvi ilgari surildi. Davlat ekologik tuzilmalarining virtual makondagi institutsional aksini va jamoatchilik munosabatini aniqlash maqsadida quyidagi innovatsion metodlar majmui tizimli qo‘llanildi:

Algoritmik kontent-miks audit. Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan o‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish agentligining rasmiy raqamli kanallaridagi (Telegram, Instagram, Facebook) 2026-yil I choragiga oid barcha media-massivlari popsters.com professional platformasi yorda-

mida skanerlandi. Materiallar an'anaviy matbuot kotibligi relizlaridan farqli ravishda, ularning funksional-semantik tuzilishi bo'yicha uchta toifaga (tashkiliy-byurokratik, ekologik-funksional, interaktiv-ma'rifiy) ajratilib, foiz ko'rsatkichlari matematik tahlil qilindi.

Lisoniy-hissiy sentiment-tahli: Ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvchilar reaksiyalari va teskari aloqa (feedback) matnlari tarkibidagi hissiy bo'yoqlar tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) drayverlari orqali filtrlindi. Bunda jamoatchilik tomonidan qoldirilgan izohlar korpusi emotsional fon xarakteriga ko'ra (ijobiy, salbiy va neytral) sotsiologik guruhlashtirildi.

Raqamli KPI metrikalari modeli: Professor Jim Macnamaraning "Baholash piramidasi" [9] va Jeyms Grunigning "Mukammallik modeli" [3] mezonlariga tayanib, raqamli PR samaradorligini o'lchovchi uchta dinamik koeffitsiyent hisoblab chiqildi: *Faollik koeffitsiyenti (FK)* – auditoriyaning jalb qilinganlik darajasini, *Auditoriya o'sish sur'ati (O'S)* – mediamakonning kengayish tezligini hamda *Tarqalish koeffitsiyenti (TK)* – xabarlarning virtual muhitdagi virallik (virusli tarqalish) va ijtimoiy safarbarlik quvvatini miqdoriy ifodalashga xizmat qildi.

Maqsadli sotsiologik segmentatsiya: Raqamli kontentning aholi ekologik madaniyati va xulq-atvoriga (konativ darajaga) real ta'sir kuchini baholash uchun ekologiya sohasida faoliyat yuritmaydigan 420 nafar foydalanuvchi o'rtasida Google Forms platformasi orqali anonim so'rovnoma o'tkazildi. Olingan empirik natijalar demografik, gender va situativ iste'mol xarakteristikalari bo'yicha o'zaro korrelyatsiya qilindi.

Natijalar. 1.J.Grunig va T.Hunt tomonidan ishlab chiqilgan jamoatchilik bilan aloqalarning to'rtta modeli (Matbuot agentligi, Jamoat axboroti, Ikki tomonlama assimetrik va Ikki tomonlama simmetrik modellar) zamonaviy raqamli platformalar tabiatiga ko'ra yangicha funksional ko'rinish olmoqda [3]. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat ekologik tashkilotlarining ochiqlik ballari (indeksi) ularning virtual makonda tanlagan kommunikativ modeli xarakteriga to'g'ridan to'g'ri proporsionaldir.

Empirik ma'lumotlarga ko'ra, "Ikki tomonlama simmetrik muloqot modeli"ni tizimli joriy etgan Suv xo'jaligi vazirligi (89 ball, yashil zona) hamda "O'zsuvta'minot" AJ (86.4 ball) raqamli mediamakonda maksimal ochiqlik ko'rsatkichiga ega [13]. Bu muassasalar tranzaksion billing tizimlari (cabinet.uzsuv.uz), interaktiv botlar va geomonitoring platformalari orqali auditoriya bilan teng huquqli, dialogik va gorizontal aloqani muvaffaqiyatli qurgan.

Aksincha, O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish agentligi (48.5 ball, qizil zona) hamon eskirgan "Matbuot agentligi (Targ'ibot) modeli" qoliplari doirasida faoliyat yuritmoqda [13]. Agentlikning Telegram va Facebook sahifalarida kontentning tematik tahlili o'tkazilganda anomal nomutanosiblik aniqlandi: materiallarning 44-47,9 foizini quruq, ma'muriy va tashkiliy-byurokratik postlar (majlislar, rasmiy uchrashuvlar hisoboti) tashkil etadi. Bevosita sohaga oid ekologik-funksional (ko'chat ekish texnologiyalari, cho'llanishga qarshi kurash) kontent ulushi atigi 28–30% oralig'ida cheklangan. Eng asosiysi, agentlik o'zining Telegram va Facebook kanallarida foydalanuvchilarning izoh qoldirish (comment) va muhokama yuritish funksiyalarini texnik jihatdan butunlay bloklab qo'ygan. Jurnalistika nazariyasida "kommunikativ izolatsiya" deb ataluvchi ushbu holat ikki tomonlama muloqot muvozanatini butunlay buzadi va ochiqlik indeksining keskin pasayishiga olib keladi.


2. Leon Festingerning "Kognitiv disonans" nazariyasi inson ongidagi mavjud kognitsiyalar (bilimlar, qarashlar) va unga tashqi muhitdan kelib tushayotgan yangi ziddiyatli ma'lumotlar o'rtasidagi psixologik nomuvofiqlik va hissiy uzoqlashish holatini tushuntiradi [5]. Davlat ekologik kommunikatsiyalari tizimida ushbu nazariya "axborot disonansi" va "obro' eroziyasi" ko'rinishida namoyon bo'ladi.

O'rmon agentligi misolida tahlil qilinganda, agentlik rasmiy sahifalarida namoyish etilayotgan "virtual surat" (xodimlar cho'llarda o'rmon barpo etayotgani, ulkan yashil hududlar yaratilayotgani) bilan ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi shaxsiy News feed tasmasida o'qiydigan zerikarli, ma'muriy-byurokratik va quruq hisobotlar o'rtasida chuqur interpretativ ziddiyat vujudga keladi. Fuqaro real faoliyat natijalarini mediamakonda vizuallashgan holda ko'rmagani sababli, unda muassasaga nisbatan media-shubha kayfiyati shakllanadi. Sotsiologik so'rovnoma natijalari ham buni empirik isbotladi: respondentlarning jami 36,4 foizi agentlik onlayn materiallariga faqat "qisman" ishonishini, 13,6 foizi esa umuman ishonmasligini qayd etgan. Bu raqamlar subyekt tomonidan taqdim etilayotgan kontentning real ijtimoiy amaliyotlar va shaffof monitoring vositalari (masalan, interaktiv geo-xaritalar) bilan mustahkamlanmaganligi natijasida jamiyatda ishonchsizlik inqirozi yuzaga kelganini ko'rsatadi. Izohlar kanali ochiq bo'lgan yagona platforma – Instagram sentiment-tahlil qilinganda, cheklangan aks aloqa matnlari ichida negativ hissiy fon anomal darajada yuqori, ya'ni 66,7%ni tashkil etishi fosh etildi.

3. Nobel mukofoti laureati Richard Taler va Kass Sunstein tomonidan asoslangan "Turtki berish" nazariyasi aholiga imperativ (buyruq, taqiq, jazo) ohangida bosim o‘tkazmasdan, bilvosita, ijobiy va kreativ raqamli mexanizmlar yordamida ularning xulq-atvorini kerakli tomonga o‘zgartirish (ekologik safarbarlikni shakllantirish) arxitekturasini ilgari suradi [4]. So‘rovnoma davomida "Qaysi turdagi raqamli kontent ekologik madaniyatni oshirishga ko‘proq xizmat qiladi?" degan savolga respondentlarning 53,3 foizi qisqa videoroliklar (Reels, Shorts–1 daqiqagacha bo‘lgan format) deb javob bergan bo‘lsa, 39,5 foizi infografikalar va vizual rangli xaritalarni tanlagan. Uzoq va zerikarli matnlarni o‘qish ulushi esa eng minimal (22,4%) ko‘rsatkichni qayd etdi.

Eng muhimi, O‘rmon agentligi tayyorlagan vizual materiallarni ko‘rgandan so‘ng aholining 55,5 foizida "har doim", 29 foizida esa "ba’zan" daraxt ekish va tabiatni asrash bo‘yicha real hayotda amaliy harakat qilish istagi (konativ reaksiyasi) uyg‘onishi tasdiqlandi. Bu ko‘rsatkich raqamli vizual PR-kontentning jamiyat ongiga kognitiv va affektiv darajada ta’sir ko‘rsatib, ularni ekologik passivlikdan ekologik faollikka o‘tkazuvchi eng kuchli raqamli "turtki" (nudge instrumenti) ekanligini ilmiy jihatdan dalillaydi.

Muhokama. Ushbu 3 ta fundamental nazariyaning davlat boshqaruvi va ommaviy kommunikatsiya tizimidagi uzviy bog‘liqligi hamda o‘zaro integratsiya zanjiri quyidagi maxsus tarkibiy sxemada (1-rasmda) aks ettirilgan:



1-rasm. Raqamli ekokommunikatsiyada zamonaviy PR modellari va psixosotsiologik nazariyalar integratsiyasining tarkibiy-funksional modeli

Kognitiv/Axborot disonansi: Inson ongidagi ekologik qadriyatlar (masalan, suvni tejash o‘gitlari) bilan unga mediamakondan kelayotgan quruq ma’muriy xabarlar yoki atrof-muhitdagi real inqirozlar o‘rtasidagi ziddiyat; modelda byurokratik relizlarni keskin kamaytirish orqali korreksiyalanadi [5].

Ikki tomonlama simmetrik model. J.Grunig va T.Hunt nazariyasiga ko‘ra, davlat idoralari va aholi o‘rtasida ochiqlik, shaffoflik va o‘zaro manfaatlar muvozanatiga asoslangan gorizontal va dialogik PR-aloqalar tizimi [3].

Transmedia Storytelling. Bitta strategik ekologik g‘oyani (masalan, daraxt parvarishini) tarqoq holda emas, balki har bir platformaning (Telegram, Instagram, YouTube) o‘ziga xos imkoniyatlaridan kelib chiqib bo‘laklangan, lekin yaxlit bir zanjir shaklida taqdim etish uslubi.

Turtki berish (Nudge). Aholiga buyruq yoki jazo choralari bilan bosim o‘tkazmasdan, raqamli media platformalardagi kreativ va interaktiv formatlar yordamida ularning ekologik xulq-atvorini ijobiy tomonga bilvosita yo‘naltirish mexanizmi [4].

Mediagamifikatsiya (o‘yinlashtirish). Raqamli PR instrumentlariga (Telegram-botlar, mobil ilovalar) maxsus ekologik o‘yinlar, testlar va onlayn kalkulyatorlarni kiritish hamda faollarni ekobrendli mahsulotlar bilan virtual/real rag‘batlantirish tizimi.

Xulosa. Davlat ekologik muassasalarining raqamli media-makondagi ochiqlik darajasi hamda institutsional jozibadorligi ularning jamoatchilik bilan muloqot o‘rnatishda tanlagan kommunikativ modeli xarakteriga to‘g‘ridan to‘g‘ri proporsionaldir. Raqamli platformalarda qayta aloqa kanallarini (izohlarni) sun’iy ravishda yopib qo‘yish va kontent tarkibida administrativ-byurokratik postlar ulushini anomal darajada oshirib yuborish (O‘rmon agentligi keysidagi kabi 44–46%) aholi ongida chuqur axborot disonansini vujudga keltiradi va sentiment-tahlilda negativ fonning (66,7%) shakllanishiga sabab bo‘ladi.

PR-inqirozlarni bartaraf etish hamda aholini "ekologik passivlik"dan "ekologik faollik"ka o‘tkazish uchun raqamli makon arxitekturasini Grunigning simmetrik dialog modeli va Talerning bilvosita raqamli "turtki" (nudge) instrumentlari asosida qayta qurish lozim. Buning uchun amaliyotga "Kontent-miksing" (70/20/10) modelini, ya’ni, 70% funksional-vizual hikoyachilik (storytelling), 20% interaktiv-simmetrik muloqot va atigi 10% tashkiliy-byurokratik kontent balansini hamda onlayn ochiq geo-pasportlashtirish tizimlarini joriy etish strategik jihatdan majburiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

(2). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-184-qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

(3). Grunig J., Hunt T. Managing Public Relations. Orlando: Harcourt Brace Jovanovich, 1984, 550 p.

(4). Thaler R., Sunstein C. Nudge: Improving Decisions About Health, Wealth, and Happiness. New York, Penguin Books, 2009, 320 p.

(5). Festinger L. A Theory of Cognitive Dissonance. Stanford: Stanford University Press, 1957, 291 p.

(6). Qosimova N. Zamonaviy media makonda kontent tahlili va auditoriya bilan muloqot transformatsiyasi: Monografiya, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2023, 180-bet.

(7). Xaitova M. Davlat tashkilotlari axborot xizmatlari PR kommunikatsiyalarining ijtimoiy xususiyatlari. Filologiya fanlari falsafa doktori dissertatsiyasi, Toshkent, 2025, 144-bet.”

(8). Muratova N. Media-imij: nazariya, amaliyot, texnologiya. Monografiya, Toshkent, “Mumtoz so‘z”, 2019. 164 bet.

(9). Macnamara J. Evaluating Public Relations: A Guide to Demonstrating Value and Effect. London, Routledge, 2018, 284 p.

(10). Coombs W.T. Ongoing Crisis Communication: Planning, Managing, and Responding. 5th ed. Los Angeles: SAGE Publications, 2019, 280 p.

(11). Schulz M., Karimova, N. Environmental Diplomacy in Central Asia. The Case of New Uzbekistan’s Eco-Image. Journal of Environmental Communication, vol. 18, Issue 3, 2024, p. 112–129.

(12). Sabirova S. Digital Eco-Journalism: SMM and Public Control in Central Asian Ecological Discourse. Media and Society Research, vol. 9, 2025, p. 45–58.

(13). O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlik indeksi. 2025-yil yakunlari bo‘yicha rasmiy hisoboti. Toshkent, 2026 (anti-corruption.uz).

Saparbaeva Saltanat Omirbaevna (Assistant of department of uzbek language, languages and social sciences of Medical Institute of Karakalpakstan; saltiksaparbaeva@gmail.com)

THE CONCEPT AS A FUNDAMENTAL UNIT OF THE NATIONAL LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD

Annotation. *This article examines the concept within Western and post-Soviet cognitive and linguacultural traditions. It analyzes theoretical approaches to defining and structuring conceptual models, with a particular focus on metaphor as a primary cognitive mechanism for conceptualizing experience. Special attention is paid to the cultural specificity and axiological models of concepts as reflected in 20th-century English and Karakalpak literature.*

Keywords: *concept, cognitive linguistics, linguaculturology, linguistic picture of the world, culture, national consciousness, metaphor, values.*

KONSEPT DUNYONING MILLIY LISONIY MANZARASINING ASOSIY BIRLIGI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada konsept G‘arb va postsovet kognitiv hamda lingvomadaniy an’analarida o‘rganiladi. Unda konseptual modellarni aniqlash va tuzishning nazariy yondashuvlari tahlil qilingan bo‘lib, tajribalarni konseptuallashtirishning asosiy kognitiv mexanizmi sifatida metaforaga alohida e’tibor qaratilgan. XX asr ingliz va qoraqalpoq adabiyotida aks etgan konseptlarning madaniy o‘ziga xosligi va aksiologik modellariga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar*: konsept, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, olamning lisoniy manzarasi, madaniyat, milliy ong, metafora, qadriyatlar.*

КОНЦЕПТ КАК ФУНДАМЕНТАЛЬНАЯ ЕДИНИЦА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ МИРА

Аннотация. *В данной статье рассматривается концепт в западных и постсоветских когнитивных и лингвокультурных традициях. В ней анализируются теоретические подходы к определению и структурированию концептуальных моделей, с особым акцентом на метафору как основной когнитивный механизм концептуализации опыта. Особое внимание уделяется культурной специфике и аксиологическим моделям концептов, отраженных в английской и каракалпакской литературе XX века.*

Ключевые слова: *концепция, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, языковая картина мира, культура, национальное сознание, метафора, ценности.*

1. Introduction. One of the main categories of modern cognitive linguistics is the concept, a mental unit that reflects the content of human experience and is defined in language. In the context of the national linguistic picture of the world, the concept plays the role of a key element, forming the cultural and linguistic consciousness of speakers of a language belonging to a particular ethnic group. The emergence of the term "concept" in linguistics is linked to the transition from the structural and formal models of language to a cognitive and anthropocentric approach.

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim tizimi o‘quvchi shaxsining shakllanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darsliklari bolalarda nafaqat nutq ko‘nikmalarini, balki ma’naviy-axloqiy sifatlarni ham shakllantiradi, shu ma’noda darsliklar “ma’naviy tarbiya vositasi” sifatida qaralishi lozim. Darsliklardagi matnlar orqali o‘quvchilarda yaxshilik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, halollik kabi fazilatlar shakllantiriladi, bu esa ta’lim mazmunini nafaqat axborot beruvchi, balki tarbiyalovchi tizim sifatida ko‘rishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi milliy darajada ham tasdiqlangan: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-qarori bilan tasdiqlangan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasi yosh avlodda vatanga sadoqat, mehr-oqibat, mas’uliyat kabi tayanch fazilatlarni bosqichma-bosqich, jumladan, boshlang‘ich sinf davridan boshlab shakllantirishni davlat siyosati darajasiga ko‘targan [6], shu bois boshlang‘ich sinf darsliklarining mazkur vazifani qay darajada bajarayotganini ilmiy tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Boshlang‘ich ta’lim va darslikshunoslik sohasida bir qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, darslik mazmuni va uning tarbiyaviy ahamiyati masalalari[1;7;8] tadqiq etilgan. Pedagogik tadqiqotlarda darslik faqat bilim manbayi emas, balki shaxsni tarbiyalovchi vosita sifatida qaraladi [3;78-b.]. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda darslik dizay-

ni, illyustratsiyalari va matn hajmi o‘quvchilarning qabul qilish jarayoniga ta’sir qiluvchi muhim omil sifatida baholanadi. Ma’naviy tarbiya masalasining milliy zaminini Sh.Mirziyoyev belgilab bergan bo‘lib, unda ma’naviyat millat taraqqiyotining tayanch omili sifatida ko‘rsatilgan [5]. D.Abdullayeva tadqiqotida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi ilmiy-nazariy asoslari ochib berilgan, bu esa darslik orqali amalga oshiriladigan tarbiyaviy jarayonning o‘qituvchi omili bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi [1].

Nazariy asos. Tadqiqotning nazariy negizini ikkita xorijiy psixologik-pedagogik nazariya tashkil etadi, ular darslik matnlari orqali husni xulq shakllanishi mexanizmini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Birinchisi – Tomas Likonaning xarakter tarbiyasi nazariyasi bo‘lib, unga ko‘ra axloqiy tarbiya uch o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismdan iborat: axloqiy bilim (nima yaxshi-yu nima yomonligini anglash), axloqiy tuyg‘u (yaxshilikka ichki ehtiyoj va qoniqish hissi) va axloqiy xatti-harakat (bilim va tuyg‘uning amaliy xulqda namoyon bo‘lishi) [3]. Ushbu model darslik matnlarini baholashda foydali mezon bo‘la oladi: samarali tarbiyaviy matn o‘quvchida nafaqat tushuncha (masalan, rostgo‘ylik nima ekanini bilish), balki hissiy munosabat va xulqiy ko‘nikmani ham shakllantirishi lozim.

Ikkinchisi – Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi bo‘lib, unga ko‘ra, bola xulqni bevosita tajriba orqali emas, balki atrofdagi namunaviy obrazlarni kuzatish, esda saqlash va takrorlash orqali ham o‘zlashtiradi [2]. Ushbu nazariya darslik qahramonlarining tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy asoslaydi: adabiy qahramon qanchalik yorqin va bolaga yaqin tasvirlansa, uning xulq-atvor namunasi sifatida o‘zlashtirilish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi.

Darslik bezatilishi – matn-illustratsiya uyg‘unligini baholashda Richard Mayerning multimediali o‘qitish nazariyasidan foydalanish mumkin. Inson axborotni vizual va verbal kanallar orqali parallel qayta ishlaydi, shu bois matn bilan uyg‘unlashgan, ortiqcha yuklamasiz rasm ta’lim samaradorligini oshiradi, nomuvofiq yoki ortiqcha bezak esa aksincha idrok etishni qiyinlashtiradi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi: tahlil va sintez; qiyosiy tahlil; pedagogik kuzatish; didaktik modellashtirish, yuqorida keltirilgan xarakter tarbiyasi va ijtimoiy o‘rganish nazariyalari tahlil uchun konseptual asos sifatida qo‘llanildi; boshlang‘ich sinf darsliklari mazmuni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganildi, ularning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar.

1. Darslik matnlarining mazmuniy xususiyatlari. Boshlang‘ich sinf darsliklaridagi matnlar, avvalo, o‘quvchi yoshiga mos bo‘lishi lozim: qisqa, tushunarli va ta’sirchan bo‘lishi kerak. Ayniqsa, tarbiyaviy mazmunga ega matnlar ustuvor ahamiyat kasb etadi: mehnatsevarlik, do‘stlik, rostgo‘ylik mavzusidagi matnlar bolalar ongiga tez ta’sir qiladi va ularning xulq-atvorida namoyon bo‘ladi.

2. Matn hajmining didaktik ahamiyati. Darslikdagi matnlar hajmi o‘quvchining qabul qilish imkoniyatiga mos bo‘lishi zarur. Juda katta hajmli matnlar diqqatni susaytiradi, kichik matnlar esa mazmunni to‘liq ochib bermasligi mumkin. Shuning uchun optimal hajmdagi matnlar tanlanishi metodik jihatdan muhim hisoblanadi [1;25-b.].

3. Darslik bezatilishining psixologik ta’siri. Darslik dizayni, ranglar, illustratsiyalar o‘quvchi qiziqishini oshiradi. Illustratsiyalar matn mazmunini to‘ldirib, uning tushunishini osonlashtiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rangli va chiroyli bezatilgan darsliklar bolalarda o‘qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi [4;56-b.]. Bu holat Mayerning matn-rasm uyg‘unligi prinsipi bilan ham izohlanadi [4].

4. Husni xulqni shakllantirishda darslikning roli. Darsliklardagi matnlar orqali o‘quvchilarda quyidagi fazilatlar shakllanadi: odob-axloq; vatanparvarlik; mehr-oqibat; mas’uliyat. Bu jarayonda ayniqsa badiiy matnlar muhim ahamiyat kasb etadi. Likonaning xarakter tarbiyasi modeli nuqtayi nazaridan, bunday matnlar samarali bo‘lishi uchun ular faqat axloqiy tushuncha bermasdan, o‘quvchida hissiy kechinma uyg‘otishi va xulqiy namunani taklif etishi lozim [3].

5. Illustratsiya va matn uyg‘unligi. Matn va rasm o‘rtasidagi uyg‘unlik o‘quv materialini samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Agar rasm matn mazmuniga mos kelsa, o‘quvchi uni tezroq anglaydi, bu borada multimediali o‘qitish nazariyasi ko‘rsatadiki, so‘z va tasvirning mazmunan bir-birini to‘ldirishi xotirada saqlanishni sezilarli darajada yaxshilaydi [4].

6. Darslikning umumiy hajmi va tuzilishi. Darslikning umumiy hajmi ham muhim omildir: ortiqcha yuklama o‘quvchida charchoqni keltirib chiqaradi, shuning uchun darslik mazmuni ixcham va tizimli bo‘lishi lozim.

7. Amaliy natijalar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mazmunan boy va estetik jihatdan puxta ishlangan darsliklar o‘quvchilarning: o‘qishga qiziqishini oshiradi; nutqini rivojlantiradi; ma’naviy kamolotini ta’minlaydi.

8. Darslik matnlarining tarbiyaviy-psixologik ta’siri. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qabul qilish jarayoni, avvalo, emotsional-obrazli tafakkurga asoslanadi, shuning uchun darsliklardagi matnlar nafaqat axborot berish, balki hissiy ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ham ega bo‘lishi lozim. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, bolalar badiiy va hayotiy voqelikka yaqin matnlarni tezroq qabul qiladi va ular orqali berilgan g‘oyalarni o‘z xulq-atvoriga singdiradi [4;62-b.]. Shu nuqtayi nazardan, darsliklarda qahramonlar obrazi orqali namunaviy xulq-atvorni ko‘rsatish samarali hisoblanadi – buni Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi kuzatish, eslab qolish, takrorlash va rag‘batlantirilish zanjiri orqali ilmiy izohlaydi [7].

9. Milliy qadriyatlarni singdirishda darslikning o‘rni. Darsliklar orqali milliy an’ana va qadriyatlarni singdirish muhim vazifalardan biridir: ona tili darsliklarida xalq og‘zaki ijodi namunalari, maqol va matallar, rivoyatlardan foydalanish o‘quvchilarning milliy o‘zligini anglashini kuchaytiradi. “Kattani hurmat qil, kichikka izzatda bo‘l” kabi mazmundagi matnlar orqali bolalarda ijtimoiy munosabat madaniyati shakllanadi, bu ularning kelgusi ijtimoiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi [3;91-b.]. Bunday matnlar “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasida belgilangan vatanga sadoqat va mehr-oqibat kabi tayanch fazilatlarni shakllantirish vazifasini ham amalda ro‘yobga chiqaradi [7].

10. Darslik va nutq rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik. Darsliklardagi matnlar o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda asosiy manba hisoblanadi. Matnlarni o‘qish, qayta hikoya qilish, savollarga javob berish orqali bolalarning: lug‘at boyligi; nutq madaniyati; fikrlash qobiliyati rivojlanadi; dialogik va monologik nutqni shakllantirishda matnlar asosiy didaktik vosita sifatida xizmat qiladi [1;58-b.].

11. Interaktiv yondashuv va darslik mazmuni. Zamonaviy ta’limda interaktiv metodlar muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, darsliklarda faqat matn emas, balki savol va topshiriqlar, ijodiy mashqlar; muammoli vaziyatlar ham berilishi maqsadga muvofiq, bu o‘quvchilarni faol fikrlashga undaydi va ularning mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

12. Darsliklarda vizual materiallar samaradorligi. Illyustratsiyalar, sxemalar va jadvallar o‘quvchilarning vizual xotirasini faollashtiradi, boshlang‘ich sinfda rasmlar orqali tushuntirish samarali hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, matn va vizual material uyg‘unligi bilimni o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi [4;70-b.].

13. Darsliklarni takomillashtirish muammolari. Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim darsliklarda: matnlar hajmi ortiqcha; illyustratsiyalar mazmunga to‘liq mos emas; mashqlar tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, bu ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun darsliklarni ishlab chiqishda kompleks yondashuv talab etiladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalarga kelindi: darsliklar o‘quvchi shaxsini shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi; matn mazmuni tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi lozim, darslik bezatilishi estetik talablarga javob berishi kerak, matn hajmi o‘quvchi yoshiga mos bo‘lishi zarur.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy xulosalarni bayon etish mumkin. Birinchidan, boshlang‘ich sinf darsliklari o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi kompleks vosita hisoblanadi, u nafaqat bilim beradi, balki tarbiyalaydi va shakllantiradi. Ikkinchidan, darsliklardagi matnlar mazmunan boy, tarbiyaviy jihatdan ta’sirchan va yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi zarur. Uchinchidan, darslik bezatilishi va vizual materiallar o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otuvchi muhim omildir. To‘rtinchidan, interaktiv topshiriqlar va ijodiy mashqlar darslik samaradorligini oshiradi. Beshinchidan, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan xarakter tarbiyasi va ijtimoiy o‘rganish nazariyalari shuni ko‘rsatadiki, darslik matnining tarbiyaviy samarasi uning faqat axloqiy bilim berishida emas, balki o‘quvchida hissiy munosabat uyg‘otishi va amalda taqlid qilish uchun yorqin namuna (qahramon obrazi) taqdim etishida namoyon bo‘ladi. Shu bois darslik mualliflari matn tanlashda ushbu uch omilni bilim, tuyg‘u va xulqiy namuna – birgalikda hisobga olishi maqsadga muvofiqdir.

Takliflar. Darsliklarda milliy qadriyatlarga asoslangan matnlar ulushini oshirish; illustratsiya va matn uyg‘unligini ta’minlash, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan topshiriqlar sonini ko‘paytirish, darsliklarni ishlab chiqishda pedagogik va psixologik yondashuvlarni integratsiya qilish; zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan darslik modellarini yaratish; darsliklarda badiiy matnlar ulushini oshirish, illustratsiyalarni mazmunga mos tanlash, husni xulqni shakllantiruvchi maxsus mashqlar ishlab chiqish; darsliklarni yaratishda psixologik omillarni hisobga olish, darslik matnlarini loyihalashda xarakter tarbiyasi nazariyasining bilim–tuyg‘u–xatti-harakat modelidan metodik vosita sifatida foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdullayeva D. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent, “Fan”, 2020, 128-bet.

(2). Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977, 332 p.

(3). Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York, Bantam Books, 1991, 242 p.

(4). Mayer R.E. Multimedia Learning. Cambridge, Cambridge University Press, 2001, 232 p.

(5). Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021, 464 bet.

(6). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-qarori. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

(7). Qodirov B. Pedagogika nazariyasi. Toshkent, 2010, 256 bet.

(8). Rahimov R. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Toshkent, 2015, 180 bet.

To‘rayev Farxodjon Farmonovich (Alfraganus universiteti “Matematika va fizika” kafedrasi dotsenti v.b. (PhD); E-mail: farhodjon9618@mail.ru; https://orcid.org/:0009-0007-2244-1332)

BO‘AJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA MANTIQ ELEMENTLARIGA OID TUSHUNCHALARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiq elementlariga oid tushunchalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Boshlang‘ich ta’limda matematik ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish hamda zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan pedagoglarni tayyorlashda mantiq elementlarini puxta o‘zlashtirishning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqotda hukm, mulohaza, xulosa chiqarish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, analogiya va mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash kabi mantiq elementlarining mazmuni hamda ularni bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘rgatish metodikasi tahlil qilingan.*

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida mantiq elementlarini o‘qitishda muammoli ta’lim, interfaol metodlar, mantiqiy masalalar, amaliy topshiriqlar va kasbiy vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish hamda samarali qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, metodik kompetentligini oshirish hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirishga tayyorligini kuchaytirishini ko‘rsatadi. Taklif etilgan metodika pedagogika oliy ta’lim muassasalarida matematika o‘qitish metodikasini takomillashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiyaviy yondashuv, mantiq elementlari, mantiqiy fikrlash, matematik tafakkur, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, kasbiy kompetentlik, metodik kompetentlik, muammoli vaziyat, kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar.*

Тураев Фарходжон Фармонович (Alfraganus University, кафедра «Математика и физика», и.о. доцента (PhD); E-mail: farhodjon9618@mail.ru; https://orcid.org/:0009-0007-2244-1332)

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ ОБ ЭЛЕМЕНТАХ ЛОГИКИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В данной статье раскрываются научно-теоретические и методические основы развития представлений о элементах логики у будущих учителей начальных классов на основе компетентностного подхода. Обосновывается значение глубокого усвоения элементов логики для повышения эффективности математического образования в начальной школе, развития логического мышления учащихся и подготовки педагогов, отвечающих требованиям современного образования. В исследовании анализируются содержание основных элементов логики, таких как суждение, высказывание, умозаключение, сравнение, классификация, обобщение, аналогия и выявление логических связей, а также методика их формирования у будущих учителей начальных классов.*

Кроме того, рассматриваются возможности реализации компетентностного подхода при обучении элементам логики с использованием проблемного обучения, интерактивных методов, ло-

гических задач, практических заданий и профессионально ориентированных педагогических ситуаций. Предлагаются методические рекомендации, направленные на интеграцию теоретических знаний с практической деятельностью, развитие самостоятельного и критического мышления студентов, формирование умений анализировать педагогические ситуации и принимать эффективные профессиональные решения.

Результаты исследования показывают, что организация образовательного процесса на основе компетентностного подхода способствует развитию математического и логического мышления будущих учителей начальных классов, повышению их методической компетентности и готовности к формированию логического мышления у учащихся начальной школы. Предлагаемая методика может быть эффективно использована в учреждениях высшего педагогического образования для совершенствования методики обучения математике, развития профессиональной компетентности будущих педагогов и повышения качества начального образования.

Ключевые слова: *компетентностный подход, элементы логики, логическое мышление, математическое мышление, будущие учителя начальных классов, профессиональная компетентность, методическая компетентность, проблемная ситуация, компетентностно-ориентированные задания.*

Turaev Farkhodjon (Alfraganus University, Department of Mathematics and Physics, Acting Associate Professor (PhD); E-mail: farhodjon9618@mail.ru; https://orcid.org/:0009-0007-2244-1332)

METHODOLOGY FOR DEVELOPING PROSPECTIVE PRIMARY SCHOOL TEACHERS' CONCEPTS OF THE ELEMENTS OF LOGIC THROUGH A COMPETENCY-BASED APPROACH

Annotation. *This article examines the scientific, theoretical, and methodological foundations for developing prospective primary school teachers' understanding of the elements of logic through a competency-based approach. It substantiates the importance of mastering the elements of logic in improving the quality of mathematics education in primary schools, fostering pupils' logical thinking, and preparing teachers who meet the requirements of modern education. The study analyzes the content of fundamental logical elements, including judgments, propositions, inference, comparison, classification, generalization, analogy, and the identification of logical relationships, as well as the methodology for teaching these concepts to prospective primary school teachers.*

Furthermore, the article highlights the possibilities of applying a competency-based approach in teaching the elements of logic through problem-based learning, interactive teaching methods, logical tasks, practical assignments, and professionally oriented learning situations. Methodological recommendations are proposed to integrate theoretical knowledge with practical activities, develop students' independent and critical thinking skills, enhance their ability to analyze pedagogical situations, and strengthen their competence in making effective professional decisions.

The findings indicate that organizing the educational process on the basis of a competency-based approach contributes significantly to the development of prospective primary school teachers' mathematical and logical thinking, improves their methodological competence, and enhances their readiness to foster logical thinking skills among primary school pupils. The proposed methodology can be effectively applied in higher pedagogical education institutions to improve the methodology of teaching mathematics, develop the professional competence of future teachers, and enhance the overall quality of primary education.

Keywords: *competency-based approach, elements of logic, logical thinking, mathematical thinking, prospective primary school teachers, professional competence, methodological competence, problem situation, competency-based tasks.*

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning mazmunini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularda zamonaviy pedagogik va metodik yondashuvlarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang'ich matematika ta'limida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish va muammolarni samarali hal etish ko'nikmalarini shakllantirish o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasiga bevosita bog'liqdir.

So'nggi yillarda xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PISA**,** TIMSS va PIRLS tadqiqotlarida o'quvchilarning bilimlarini baholashda tayyor bilimlarni takrorlash emas, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llash, mantiqiy mushohada yuritish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur talablar boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat yu-

ritadigan pedagoglardan nafaqat matematik bilimlarga, balki rivojlangan mantiqiy tafakkurga va uni o‘quvchilarda shakllantirish metodikasiga ega bo‘lishni talab etadi.

Mantiq elementlari matematikaning nazariy asoslarini tashkil etuvchi muhim tarkibiy qismlardan biri bo‘lib, ular hukm, mulohaza, rost va yolg‘on fikrlar, inkor, mantiqiy bog‘lovchilar, xulosa chiqarish, tasniflash, analogiya va umumlashtirish kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tushunchalarni puxta o‘zlashtirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish bilan bir qatorda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladigan samarali metodlarni tanlash va qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Shu sababli mantiq elementlarini o‘qitish faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmasdan, ularni kasbiy faoliyatda qo‘llash kompetensiyasini rivojlantirishga ham yo‘naltirilishi zarur.

Kompetensiyaviy yondashuv bugungi ta’lim tizimining asosiy metodologik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u talabaning bilim, ko‘nikma va malakalarini real pedagogik vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tahlil qilishi, ijodiy yondashuvi hamda kasbiy muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, mantiq elementlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va metodik qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida matematika o‘qitish metodikasiga oid mavjud o‘quv dasturlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, mantiq elementlari ko‘proq nazariy ma’lumotlar ko‘rinishida yoritilib, ularni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Xususan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiq elementlariga oid tushunchalarni kasbiy faoliyat bilan bog‘liq holda shakllantirish, ularni amaliy va kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali rivojlantirish masalalari alohida ilmiy-metodik tadqiqotlarni talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiq elementlariga oid tushunchalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish, uning mazmuni, tamoyillari, metodlari, vositalari va baholash mezonlarini ilmiy asoslash dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Taklif etilayotgan metodika talabalarning mantiqiy va matematik tafakkurini rivojlantirish, kasbiy kompetentligini mustahkamlash hamda kelgusida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini samarali shakllantirishga xizmat qiladi [1,2,3].

Mazkur tadqiqotning maqsadi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiq elementlariga oid tushunchalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish hamda uning ta’lim jarayonidagi samaradorligini asoslashdan iborat.

Mantiq elementlarini o‘qitishning nazariy asoslari. Mantiq inson tafakkurining qonuniyatlari, fikrlash jarayonining shakllari va usullarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, matematikaning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Mantiqiy fikrlash har qanday matematik faoliyatning ajralmas qismi bo‘lib, u tushunchalarni shakllantirish, mulohaza yuritish, xulosa chiqarish va muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli boshlang‘ich matematika ta’limida mantiq elementlarini o‘qitish nafaqat matematik bilimlarni egallash, balki o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning muhim omili sifatida qaraladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kelgusida o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantiruvchi asosiy subyekt hisoblanadi. Shu bois ular mantiq elementlarini chuqur o‘zlashtirishi va ularni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh hamda psixologik xususiyatlariga mos ravishda o‘qita olishi zarur. Mantiq elementlariga hukm, mulohaza, rost va yolg‘on fikrlar, inkor, mantiqiy bog‘lovchilar ("va", "yoki", "agar..., u holda..."), tasniflash, taqqoslash, umumlashtirish, analogiya hamda xulosa chiqarish kiradi. Mazkur tushunchalar boshlang‘ich matematika kursining deyarli barcha mavzularida bevosita yoki bilvosita uchraydi.

Masalan, o‘quvchi "8 soni juft son" degan fikrning rostligini, "Har bir to‘g‘ri to‘rtburchak kvadratdir" degan fikrning esa yolg‘onligini aniqlash orqali hukm va uning rostlik qiymatini anglaydi. Bu jarayon, keyinchalik, matematik isbotlash va dalillash ko‘nikmalarining shakllanishiga zamin yaratadi.

Mantiq elementlarining boshlang‘ich matematika ta’limidagi o‘rni. Boshlang‘ich matematika kursida mantiq elementlari alohida mavzu sifatida emas, balki ko‘plab matematik tushunchalar tarkibida mujassam holda uchraydi. Sonlarni taqqoslash, geometrik shakllarni guruhlarga ajratish, qonuniyatlarni topish, ketma-ketlikni davom ettirish, sodda algoritmlarni tuzish kabi faoliyatlarning barchasi mantiqiy tafakkurga asoslanadi.

Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi topshiriqni beradi:

2, 4, 6, 8, …

Savol: Keyingi sonni toping.

Mazkur topshiriqni bajarishda o‘quvchi sonlar orasidagi qonuniyatni aniqlaydi, umumlashtiradi va mantiqiy xulosa chiqaradi. Demak, oddiy ko‘ringan misol ham mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yana bir misol:

Olma, nok, shaftoli, sabzi.

Qaysi biri ortiqcha?

Bu topshiriqda o‘quvchi predmetlarni tasniflaydi. U uchta meva va bitta sabzavotni ajratib, umumlashtirish hamda guruhlash ko‘nikmalarini namoyon etadi. Shunday qilib, boshlang‘ich matematikadagi deyarli har bir mavzu mantiq elementlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega.

Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati. Bugungi kunda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor metodologik yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi talabaning faqat bilimga ega bo‘lishini emas, balki o‘z bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish kompetensiyasini shakllantirishdan iborat.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi mantiq elementlarini bilishi yetarli emas. U ushbu bilimlarni dars jarayonida samarali qo‘llashi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishi, muammoli vaziyatlar yaratishi va mantiqiy topshiriqlar orqali ularning fikrlash faoliyatini rivojlantira olishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan kompetensiyaviy yondashuv quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi;
- mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishni o‘rgatadi;
- kasbiy kompetentlikni shakllantiradi;
- ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Hayotiy vaziyatlar asosida mantiq elementlarini o‘qitish.

Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy talabi – bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishdir. Shu sababli mantiq elementlarini o‘qitishda real hayotdan olingan misollardan foydalanish katta pedagogik samara beradi.

1-misol. Svetofor.

O‘quvchilarga quyidagi vaziyat beriladi:

“Agar svetofor **qizil chiroq yonsa**, nima qilasiz?”

Ular:

“To‘xtayman.”

degan javobni beradilar.

Bu yerda **“Agar…, u holda…”** ko‘rinishidagi mantiqiy bog‘lanish shakllanadi.

2-misol. Do‘konda xarid qilish.

Faraz qilaylik, do‘konda **ikki mahsulot** mavjud:

- **non** – 5 000 so‘m;
- **sut** – 12 000 so‘m.

O‘quvchida 20 000 so‘m bor.

Savol:

“Non va sutni birgalikda sotib olsa, puli yetadimi?”

O‘quvchi:

5 000 + 12 000 = 17 000.

17 000 < 20 000.

demak,

“Ha, puli yetadi.”

Bu yerda u hisoblash bilan birga mantiqiy xulosa chiqarishni ham amalga oshiradi.

Mantiq elementlarini rivojlantirish metodikasining maqsadi va vazifalari. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiq elementlariga oid tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilganda talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki ularni kasbiy faoliyatda qo‘llash ko‘nikma-larini ham rivojlantiradi.

Taklif etilayotgan metodikaning asosiy maqsadi – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiq elementlariga oid bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish, ularning mantiqiy va ma-

tematik tafakkurini rivojlantirish hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni samarali tashkil etishga tayyorlashdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- mantiq elementlariga oid nazariy bilimlarni tizimli shakllantirish;
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash;
- kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- muammoli vaziyatlar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni qo‘llash;
- talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirish.


Mantiq elementlarini rivojlantirishning metodik modeli.

Mazkur metodika quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.



Mazkur modelda har bir bosqich oldingisini to‘ldirib boradi.

Endi mantiq elementlarining asosiy turlarini va ularning ma‘nolarini hayotiy misollar bilan bog‘lagan holada ko‘rib chiqamiz.



Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiq elementlariga oid tushunchalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish ularning matematik va metodik kompetentligini shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Taklif etilgan metodika muammoli vaziyatlar, kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar, interfaol metodlar va hayotiy misollar asosida talabalarning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish hamda kasbiy faoliyatda bilimlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [4,5].

Tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini ko‘rsatdi. Mazkur metodikani pedagogika oliy ta’lim muassasalarida matematika o‘qitish metodikasi fanlarini takomillashtirish va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). To‘rayev F.F. Matematik tenglamalar asosida iqtisodiy jarayonlarni matematik tahlil yordamida modellashtirish. Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar (2025, 10-son) ISSN:2181-1709(p), ISSN: 2181-1717(E)–b.213-219 Uzbekistan (Buxoro).

(2). To‘rayev F.F. Tenglamalarning grafik ko‘rinishi va ularning matematik analiz asosidagi tahlili. Namangan davlat universiteti Ilmiy Axborotnomasi (2025, 11-son). ISSN:2181-1458, ISSN:2181-0427.B.115-120 Uzbekistan, (Namangan).

(3). To‘rayev F.F. Chiziqli funksiyaning turli fanlardagi roli va ahamiyati. “Ilm Sarchashmalari”, 12/2-son, (Dekabr, 2025) ISSN 2010 – 6246, 115–120-betlar Uzbekistan (Urganch).

(4). Turaev F. (2026, January). Methods of preparing grade 3–4 students for international assessment in mathematics based on real-life examples. In International Conference on Engineering & Technology (Vol. 2, №1, p. 27–28).

(4). Turaev F. (2026, January). Methods of teaching mathematics in grades 3–4 based on real-life examples. In International Conference on Arts, Society & Humanities (Vol. 2, № 1, p. 28–29).

Qodirova Sevara Xayriddin qizi (Buxoro davlat Texnika universiteti dotsenti, t.f.n (PhD); b25309507@gmail.com)

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALAR KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida talabalar kreativligini rivojlantirishning pedagogik qonuniyatlari va tamoyillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayonining mazmuni va texnologiyalaridagi o'zgarishlar talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholangan. Tadqiqot natijasida kreativlikni rivojlantirishning asosiy pedagogik qonuniyatlari hamda shaxsga yo'naltirilganlik, interaktivlik, innovatsionlik, integrativlik va moslashuvchanlik tamoyillari aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, kreativlik, pedagogik qonuniyat, pedagogik tamoyil, kreativ kompetensiya, innovatsion ta'lim.*

Кодирова Севара Хайриддин кизи (Доцент Бухарского государственного технического университета, кандидат технических наук (PhD): E-mail: b25309507@gmail.com)

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ЗАКОНОМЕРНОСТИ И ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация. *В статье проведен научно-теоретический анализ педагогических закономерностей и принципов развития креативности студентов в цифровой образовательной среде. В условиях цифровой трансформации изменения содержания и технологий обучения рассматриваются как важный фактор развития творческого мышления студентов. Определены основные педагогические закономерности развития креативности, а также принципы личностно-ориентированности, интерактивности, инновационности, интегративности и гибкости.*

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, креативность, педагогическая закономерность, педагогический принцип, креативная компетентность, инновационное образование.*

Qodirova Sevara Khayriddin qizi (Associate Professor, Bukhara State Technical University, PhD in Technical Sciences; E-mail: b25309507@gmail.com)

PEDAGOGICAL PATTERNS AND PRINCIPLES FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVITY IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

Annotation. *The article presents a scientific and theoretical analysis of pedagogical regularities and principles for developing students' creativity in a digital educational environment. Under conditions of digital transformation, changes in educational content and technologies are considered important factors in enhancing students' creative thinking. The study identifies key pedagogical regularities of creativity development as well as the principles of learner-centeredness, interactivity, innovation, integration, and flexibility.*

Keywords: *digital educational environment, creativity, pedagogical regularity, pedagogical principle, creative competence, innovative education.*

Kirish. Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi jamiyat hayotining barcha sohalarida, xususan, ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy mutaxassis nafaqat chuqur nazariy bilimlarga ega bo'lishi, balki yangicha fikrlash, muammolarni kreativ hal etish, innovatsion g'oyalarni ilgari surish va ulardan amaliy faoliyatda samarali foydalanish kompetensiyalariga ham ega bo'lishi zarur. Shu sababli oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri talabalar kreativligini rivojlantirish va ularni innovatsion faoliyatga tayyorlashdan iborat bo'lib bormoqda. So'nggi yillarda raqamli ta'lim muhiti tushunchasi pedagogik tadqiqotlarning markaziy kategoriyalaridan biriga aylandi. Raqamli ta'lim muhiti deganda ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron resurslar, sun'iy intellekt vositalari, masofaviy ta'lim platformalari va raqamli kommunikatsiya vositalarining yaxlit tizimi tushuniladi. Mazkur muhit talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish, bilimlarni izlash, qayta ishlash va yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kreativlik esa zamonaviy pedagogikada shaxsning yangi g'oyalarni yaratish, muammolarga noodatiy yondashish, mavjud bilim va tajribalarni yangi vaziyatlarda samarali qo'llash qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Kreativlikning rivojlanishi shaxsning intellektual salohiyati, motivatsiyasi, mustaqilligi va innovatsion faoliyatga tayyorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan qaraganda, raqamli ta'lim muhiti kreativ shaxsni shakllantirish uchun qulay pedagogik sharoitlarni yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raqamli ta'lim muhitida talabalarning kreativligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalarining dolzarb yo'nalishlaridan biri

hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga jadal kirib kelishi natijasida talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga nostandart yechim topishi, yangi g‘oyalarni ilgari surishi va ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu sababli kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, qonuniyatlari va tamoyillarini aniqlash masalasi ilmiy tadqiqotlarning muhim obyektiga aylanmoqda. Kreativlik tushunchasining nazariy asoslari J.Guilford, E.Torrance, J.P.Guilford, R. Sternberg, T.Amabile, K.Robinson kabi xorijiy tadqiqotchilar ishlarida keng yoritilgan. Xususan, J. Guilford kreativlikni divergent tafakkur bilan bog‘lab, muammoning yagona yechimini izlashdan ko‘ra, turli xil g‘oya va yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini muhim omil sifatida ko‘rsatadi. E.Torrance esa kreativ fikrlashni muammoni aniqlash, farazlarni ilgari surish, ularni tekshirish va yangi g‘oyalarni shakllantirish jarayoni sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuvlar raqamli ta’lim muhitida talabalar kreativligini rivojlantirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

T.Amabile tomonidan ishlab chiqilgan kreativlikning komponentli modeli ham tadqiqot mavzusi uchun alohida ahamiyatga ega. Olim kreativ natijaning yuzaga kelishida sohaga oid bilim va ko‘nikmalar, kreativ fikrlash qobiliyati hamda ichki motivatsiyaning o‘zaro ta’sirini asosiy omillar sifatida belgilaydi. Ushbu qarashlar raqamli ta’lim muhitida faqat texnologik vositalardan foydalanishning o‘zi talaba kreativligini ta’minlamasligini, balki motivatsion, kognitiv va faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarurligini ko‘rsatadi.

R.Sternberg va uning hamkorlari tomonidan ilgari surilgan kreativlikka oid qarashlarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash, muammolarga turli nuqtayi nazardan yondashish va an’anaviy qarashlarni qayta ko‘rib chiqish muhimligi ta’kidlanadi. Mazkur yondashuv raqamli ta’lim texnologiyalarining interaktiv, muammoli va hamkorlikka asoslangan imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda kreativlik, raqamli ta’lim muhiti va pedagogik texnologiyalar masalalari alohida yo‘nalishlar sifatida yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro integratsiyasi, ya’ni raqamli ta’lim muhitida talaba kreativligini rivojlantirishning pedagogik qonuniyatlari va tamoyillarini yaxlit tizim sifatida asoslash masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, raqamli muhitning didaktik imkoniyatlari bilan talabaning kreativ kompetensiyasi o‘rtasidagi pedagogik bog‘liqlik, kreativlikni rivojlantirish mexanizmlari, pedagogik shart-sharoitlar, mezon va ko‘rsatkichlarni yagona metodologik tizim asosida belgilash zarurati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi ilmiy ishlardan farqli bizning ilmiy izlanishimiz, Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining mazmuni va metodlarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. An’anaviy ta’limda talaba ko‘proq tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi subyekt sifatida qaralgan bo‘lsa, raqamli ta’lim muhitida u bilimlarni yaratuvchi, tahlil qiluvchi va ulardan yangi g‘oyalar ishlab chiquvchi faol ishtirokchiga aylanadi. Raqamli platformalar talabalarga dunyoning turli ilmiy bazalari, elektron kutubxonalari va ochiq ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Natijada ular bir muammo bo‘yicha turli qarashlarni taqqoslash, mustaqil xulosa chiqarish va yangi yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa kreativ fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limga kirib kelishi ham kreativ rivojlanish uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari talabalarning individual xususiyatlarini tahlil qilish, ularning qiziqishlariga mos topshiriqlar ishlab chiqish va individual rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish imkonini beradi. Natijada talaba o‘z qobiliyatlarini to‘liq namoyon etish uchun qulay muhitga ega bo‘ladi. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari esa murakkab nazariy tushunchalarni amaliy jihatdan o‘rganish imkoniyatini kengaytiradi. Talaba virtual muhitda eksperimentlar o‘tkazadi, muammoli vaziyatlarni modellashtiradi va yangi yechimlarni sinab ko‘radi. Bu jarayon kreativ tafakkurning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [1].

Kreativlik fenomeni turli ilmiy yondashuvlar doirasida tadqiq etilgan. Klassik tadqiqotlarda kreativ fikrlashning asosiy ko‘rsatkichi sifatida divergent tafakkur ilgari surilgan. Keyingi izlanishlarda esa kreativlik shaxsning kompleks sifatlaridan biri sifatida talqin etila boshlagan. Psixologik yondashuvlarda kreativlikning rivojlanishi ijtimoiy muhit va faoliyat bilan bog‘liqligi asoslab berilgan. Pedagogik tadqiqotlarda esa kreativlikni shakllantirish uchun muammoli o‘qitish, mustaqil faoliyat va refleksiya muhim omil sifatida e’tirof etiladi. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar raqamli ta’lim muhitining kreativlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini kengaytirib berishini ko‘rsatmoqda. Xususan, interaktiv platformalar, virtual muhitlar va sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quv jarayonini yangi sifat darajasiga olib chiqmoqda. Mazkur metodlar yordamida kreativlikni rivojlantirishning asosiy qonuniyatlari va tamoyillari aniqlashtirildi. Tadqiqot natijasida quyidagi qonuniyatlar asoslab berildi [3].

Tadqiqot natijasida quyidagi qonuniyatlar asoslab berildi:

- faoliyatga asoslanganlik – kreativlik amaliy faoliyat jarayonida yuzaga keladi va rivojlanadi;
- motivatsion omillarning ustuvorligi – ichki qiziqish va rag‘bat kreativ fikrlashni faollashtiradi;
- interaktiv muhit ta’siri – muloqot va hamkorlik kreativ jarayonni kuchaytiradi;
- individuallashtirish zarurati – shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish muhim;
- refleksiv yondashuv – o‘z faoliyatini tahlil qilish kreativ rivojlanishga xizmat qiladi.

Kreativlikni rivojlantirish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:	
shaxsga yo‘naltirilganlik	mustaqillik va faollik
muammoli o‘qitish	hamkorlikda o‘rganish
moslashuvchanlik	innovatsionlik

1. Shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyili. Mazkur tamoyil talabaning individual qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Kreativlikning rivojlanishi har bir talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq.

2. Interaktivlik tamoyili. Interaktiv ta’lim metodlari talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Muloqot va hamkorlik asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni kreativ fikrlash uchun qulay sharoit yaratadi.

3. Innovatsionlik tamoyili. Ta’lim jarayonida yangi texnologiyalar va pedagogik yondashuvlardan foydalanish kreativ faoliyatni rag‘batlantiradi. Innovatsion muhit talabaning yangilik yaratishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

4. Integrativlik tamoyili. Fanlararo integratsiya talabalarda tizimli va kompleks fikrlashni rivojlantiradi. Turli fanlar bo‘yicha bilimlarning uyg‘unlashuvi kreativ yondashuvning shakllanishiga xizmat qiladi.

5. Moslashuvchanlik tamoyili. Ta’lim mazmuni va metodlarining moslashuvchanligi talabalarning individual rivojlanish ehtiyojlariga mos keladi. Bu esa kreativ faoliyatning samaradorligini oshiradi.

Tahlil va natijalar. Raqamli muhitda kreativlikni rivojlantirish quyidagi usullar orqali samarali amalga oshiriladi:

- loyiha faoliyati;
- gamifikatsiya elementlari;
- virtual va simulatsion muhitlar;
- sun’iy intellekt asosidagi vositalar;
- kreativ fikrlash texnikalari.

Xulosa. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhiti kreativlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, bu imkoniyatlardan samarali foydalanish pedagogik yondashuvlarga bog‘liq. Texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo‘llash orqali o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shuningdek, o‘qituvchi faoliyatining transformatsiyasi – ya’ni bilim beruvchidan fasilitatorga aylanishi – kreativ ta’limni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

- kreativlikni rivojlantirish tizimli va uzluksiz jarayon hisoblanadi;
- raqamli ta’lim muhiti bu jarayonni jadallashtiruvchi muhim omildir;
- pedagogik qonuniyatlar va tamoyillarga asoslangan yondashuv yuqori samaradorlikni ta’minlaydi;
- innovatsion texnologiyalar kreativ kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. New York, McGraw-Hill, 1967, 538 p.

(2). Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. Princeton, Personnel Press, 1974, 312 p.

(3). Gardner H. Creating Minds. New York, Basic Books, 2011, 320 p.

(4). Fullan M. The New Meaning of Educational Change. New York, Teachers College Press, 2016, 352 p.

(5). UNESCO. Reimagining Our Futures Together. A New Social Contract for Education. Paris: UNESCO Publishing, 2021, 186 p.

(6). Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. 2005, vol. 2, № 1, p. 3–10.

(7). Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. Edmonton: Athabasca University Press, 2017, 472 p.

(8). Вербитский А.А. Компетентностнйй подкҳод и теория контекстного обучения. Москва, Юрайт, 2019, 312 с.

(9). Полат Э.С. Современнйе педагогические и информатсионнйе текҳнологии в системе образования. Москва, “Академия”, 2021, 368 с.

(10). Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, “Iste’dod”, 2020, 384-bet.

(11). Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari va masofaviy ta’lim asoslari. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 202, 288-bet.
(12). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. Toshkent, 2020.

Yusupova Tursunoy Bekpo‘lat qizi (Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi (PhD); E-mail: tursunoy1112@gmail.com)

USTA-DEMONSTRATSIYASINING NEYROPEDAGOGIK SIKLI: PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARIDA SENSOR-PERSEPTIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODI

Annotatsiya. *Maqolada professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining sensor-perseptiv kompetensiyalarini rivojlantirish metodi – usta-demonstratsiyasining neyropedagogik sikli asoslanadi. Muammo dolzarbligi shundaki, malaka talabi bitiruvchidan mahsulot sifatini organoleptik baholashni talab qilsada, bu ko‘nikma maxsus o‘rgatilmaydi. Nazariy-metodologik va qiyosiy tahlil, me’yoriy hujjatlarning kontent-tahlili hamda pedagogik modellashtirish metodlari qo‘llanildi. Asosiy natija – besh fazali sikl, uning o‘zagi an’anaviy demonstratsiyada bir vaqtda yuklanadigan vizual va og‘zaki kanallarni vaqt bo‘yicha ajratishdan iborat. Ilmiy yangilik har bir fazaga sensor vazifa va diagnostik natija biriktirilishida; amaliy ahamiyati – siklning bir mashg‘ulot doirasiga joylashishida. Muallif hissasi demonstratsiyani intuitiv akt darajasidan o‘lchanuvchi metodik texnologiya darajasiga ko‘tarishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *sensor-perseptiv kompetensiya, neyropedagogik texnologiya, usta-demonstratsiyasi, polimodal idrok, kognitiv yuklama, ikki kanalli kodlash, professional ta’lim, refleksiv qiyoslash, sensor etalon.*

Юсупова Турсуной Бекпулат кизи (независимый исследователь (PhD), Гулистанский государственный университет; E-mail: tursunoy1112@gmail.com)

НЕЙРОПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ЦИКЛ ДЕМОНСТРАЦИИ МАСТЕРА: МЕТОД РАЗВИТИЯ СЕНСОРНО-ПЕРЦЕПТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье обосновывается метод развития сенсорно-перцептивных компетенций учащихся учреждений профессионального образования – нейропедагогический цикл демонстрации мастера. Актуальность в том, что квалификационные требования предполагают умение выпускника оценивать качество продукции органолептическим путём, однако этому специально не обучают. Использованы теоретико-методологический и сравнительный анализ, контент-анализ нормативных документов и педагогическое моделирование. Основной результат – пятифазный цикл, ядро которого составляет разведение во времени зрительного и словесного каналов, одновременно нагружаемых при традиционной демонстрации. Новизна – в закреплении за каждой фазой сенсорной задачи и диагностической фиксации её результата; практическая значимость – в размещении цикла в рамках одного занятия. Личный вклад автора состоит в переводе демонстрации из интуитивного акта в измеримую методическую технологию.*

